

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI  
MAGISTRATURA BO'LIMI

Qo'lyozmahuquqida  
UDK:811512133:813732

TOSHOVA GO'ZAL TOJINOROVNA

BADIIY MATNDA QO'LLANGAN ONOMASTIK NOMLARNING  
FUNKSIONAL-STILISTIK XUSUSIYATLARI

70230101- Mutaxassislik -Lingvistika:o'zbek tili  
magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

**DISSERTATSIYASI**

Ilmiy rahbar:

**A.A.Shukurov**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa

doktori(PhD)



SHOT ON REDMI 7  
AI DUAL CAMERA

**Magistrlik dissertatsiyasi mavzusi Termiz davlat universiteti rektorining 2022 yil 24 yanvardagi № 2 -TM sonli buyrug'i asosida tasdiqlangan.**

Magistrlik dissertatsiyasi Termiz davlat universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrasida bajarilgan

Magistrlik dissertatsiyasi elektron nusxasi Termiz davlat universitetining rasmiy veb sahifasiga joylashtirilgan.

**Dissertatsiya manzilining QR - kodi:**



Magistrlik dissertatsiyasi bilan Termiz davlat universitetining axborot resurs markazida tanishish mumkin (30 raqam bilan ro'yxatga olingan. Manzil: Termiz shahri Barkamol avlod ko'chasi 43 uy)

**Ilmiy rahbar:**

PhD. A.A. Shukurov

**Kafedra mudiri:**

PhD. N.R. Amonturdiyev

**Magistratura bo'lim boshlig'i:**

PhD. A.B. Narbayev



70230101-Lingvistika(o'zbek tili) mutaxassisligi magistranti Toshova  
Go'zal Tojinorovnaning "Badiiy matnda qo'llangan onomastik nomlarning  
funktional-stilistik xususiyatlari" mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi

#### ANNOTATSIYASI

**Tadqiqot obyekti:** badiiy matnda muayyan maqsadda qo'llangan onomastik birliklarning xususiyatlari tanlangan.

**Ishning maqsadi:** Ilmiy ishda onomastik birliklarning rivojlanish tarixini o'rganish, badiiy matndagi onomastik birliklarni funktsional-stilistik tamoyillar asosida tasnif va tavsif qilish hamda ularning funktsional-stilistik aktuallashtiruvini aniqlash.

**Tadqiqot metodlari:** tadqiqot mavzusini yoritishda tasniflash, tavsiflash, kontekstual tahlil, sinxron va diaxron yondashuv hamda leksik-stilistik tahlil.

Olingan natijalar va ularning yangiligi.

- Onomastik birliklarning lingvistik xususiyatlarini o'rganish natijasida o'zbek tilining badiiy imkoniyatlarini yanada chuqurroq o'rganishga imkon berishi ilmiy va nazariy jihatdan yoritilganligi;

- O'zbek tilshunosligida ilk marotaba onomastik birliklar terminlarining mohiyati yoritib berilgan;

- Antroponim va toponimlarning onomastik metafora, allyuziv nom, so'zlovchi nom kabi vazifalari aniqlangan;

- Onomastik birliklarda o'zbek millati mentalitetiga xos jihatlar, uning tafakkur tarzi o'z aksini topishi materiallar asosida ochib berilgan.

**Amaliy ahamiyati:** Tadqiqot natijasining amaliy ahamiyati shundaki, olingan xulosalar o'zbek tilining badiiy imkoniyatlarini yanada chuqurroq o'rganish uchun muhim nazariy ma'lumotlar beradi, tadqiqot badiiy matnning funktsional-stilistik tahlili, o'zbek tili uslubiyati, matn tilshunosligi kabi fanlardan yaratiladigan o'quv qo'llanmalarining mukamallashtiruviga, onomastik birliklarning badiiy matndagi o'rnini aniqlashga, soha terminologik tizimining ishlab chiqishiga xizmat qiladi.

**Tadqiqotning metodlari** tadqiqot mavzusini yoritishda tasniflash, tavsiflash, kontekstual tahlil, sinxron va diaxron yondoshuv hamda leksik-stilistik tahlil usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:** Onomastik birliklarning lingvistik xususiyatlarini o'rganish natijasida o'zbek tilining badiiy imkoniyatlarini yanada chuqurroq o'rganishga imkon berishi ilmiy va nazariy jihatdan yoritilganligi;

- O'zbek tilshunosligida ilk marotaba onomastik birliklar terminlarining mohiyati yoritib berilgan;

- Antroponim va toponimlarning onomastik metafora, allyuziv nom, so'zlovchi nom kabi vazifalari aniqlangan;

- Onomastik birliklarda o'zbek millati mentalitetiga xos jihatlar, uning tafakkur tarzi o'z aksini topishi materiallar asosida ochib berilgan.

**Amaliy ahamiyati:** Tadqiqot natijasining amaliy ahamiyati shundaki, olingan xulosalar o'zbek tilining badiiy imkoniyatlarini yanada chuqurroq o'rganish uchun muhim nazariy ma'lumotlar beradi, tadqiqot badiiy matnning funksional-stilistik tahlili, o'zbek tili uslubiyati, matn tilshunosligi kabi fanlardan yaratiladigan o'quv qo'llanmalarining mukammallashuviga, onomastik birliklarning badiiy matndagi o'rmini aniqlashga, soha terminologik tizimining ishlab chiqishiga xizmat qiladi onomastik birliklarning badiiy matnda muayyan obyekt nomini atab kelish bilan birga ijodkorning turli badiiy niyatlariga ham xizmat qilishi aniqlangan.

**Ishning tuzilishi** dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan bo'lib, umumiy hajmi 88 sahifadan iborat.



**Tadqiq etish darajasi:** Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, tadqiqot natijalaridan ona tili ta'limida o'quvchilarning filologik sezgisini oshirish, shuningdek, nomlar zamirida yashiringan ma'nolarni anglashga xizmat qilishi ko'rsatilgan.

**Linguistics (Uzbek language) graduate student of masters degree  
Toshova Guzal Tojinorovna's master's thesis on the topic "Functional-  
stylistic features of onomastic names used in literary texts"**

### ANNOTATION

The object of research is the characteristics of the onomastic unit used for a specific purpose in the literary text.

The purpose of the work: the history of the development of onomastic units in scientific work.

Studies, functional and stylistic principles of onomastic unit in literary text on the basis of classification and description and functional –stylistic actualization of the link determination.

Research methods: classification, description, Windows contextual analysis in the coverage of the research topic. Synchronic and diachronic approach and lexical –stylistic analysis.

Obtained results and their novelty:

It is scientifically and theoretically explained that as a result of the study of the linguistic features of onomastic units, it is possible to study the artistic possibilities of the Uzbek language more deeply.

For the first time in Uzbek linguistics the meaning of the terms of onomastic units has been explained.

Onomastic metaphor, allusion of anthroponyms and toponyms.

Functions such as name and pronoun have been defined.

Aspects specific to the mentality of the Uzbek nation in onomastic units.

The reflection of the way of thinking is revealed on the basis of the

materials

SHOT ON REDMI 7  
AI DUAL CAMERA

*Practical significance:* The practical significance of the research result is that the conclusions obtained provide important theoretical information for a more in-depth study of the artistic possibilities of the Uzbek language. It serves the improvement of training manuals, the determination of the meaning of onomastic units in the artistic text, and the development of the terminological system of the field.

*Level of research:* The practical significance of the research is that the results of the research show that it serves to increase the philological instiution of students in the education of the mother tongue, as well as to understand the meanings hidden behind the names.



## MUNDARIJA

KIRISH .....	3
<b>I Bob. ONOMASTIK BIRLIKLARNING BADIY MATNDAGI TAVSIFI</b>	
1.1. Badiiy matndagi onomastik birliklar.....	6
1.2. Badiiy matnda qo'llangan onomastik birliklar ko'lami.....	19
1.3. Onomastik birliklarning badiiy matndagi vazifalari.....	21
Bob yuzasidan xulosalar.....	33
<b>II Bob. BADIY MATNDA QO'LLANGAN ANTROPONIMLARNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI</b>	
2.1. Badiiy matnda antroponimlar lingvistik vosita sifatida.....	35
2.2. Badiiy matnda laqab va taxalluslarning lingvistik xususiyatlari.....	51
Bob yuzasidan xulosalar.....	61
<b>III Bob. BADIY MATNDA TOPONIMLARNING LINGVISTIK XUSUSIYATLAR</b>	
3.1. Toponimlarning badiiy matndagi xususiyatlari.....	63
3.2. Real va to'qima toponimlarning badiiy matnda ifodalanish imkoniyatlari..	70
Bob yuzasidan xulosalar.....	78
<b>XULOSALAR.....</b>	<b>80</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....</b>	<b>81</b>



## KIRISH

### **Magistrlik dissertatsiyasi ishining asoslanishi va uning dolzarbligi**

Dunyo tilshunosligining yangi ilmiy konsepsiyalari asosida onomastik birliklarning badiiy matni shakllantirishdagi oʻrni va vazifalari, nomlarning nominativ vazifasidan tashqari ramziy maʼnolarini ham anglatishi, ularning funksional-stilistik, emotsional-ekspressiv xususiyatlari oʻzbek lingvomadaniyatida tutgan oʻrni kabi masalalarni tadqiq etish dissertatsiya mavzusining zamonaviy tilshunoslik uchun dolzarbligini belgilaydi.

Yalpi axborotlashuv texnika asrida bolalarni kitobga jalb qilish oson kechmaydi. Oʻquvchi kerakli maʼlumotni tez va oson topish yoʻllarini izlaydi. “Sharq donishmandlari aytganidek”, eng katta boylik- bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros-bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik-bu bilimsizlikdir! “Shu sababli hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni oʻzlashtirish, chinakam maʼrifat va yuksak madaniyat egasi boʻlish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak”<sup>1</sup>.

Oʻzbek nomshunosligida onomastik birliklarning umumnazariy masalalari boʻyicha bir qator tadqiqotlar yaratilgan boʻlsa-da, ularning badiiy matndagi estetik vazifalari, xususiyatlari tadqiq qilinmagan. Darhaqiqat, tilimizda kishi nomlari, turli geografik nomlar badiiy matnda muayyan obyekt nomigina boʻlib qolmasdan, balki, ijodkorning xilma-xil badiiy niyatlarini taʼkidlash uchun ham xizmat qiladi. Bu esa onomastik birliklarga nihoyatda boy tilimizning mazkur birliklar vositasida yuzaga keluvchi ifoda imkoniyatlarini aniqlash, oʻzbek badiiy matnlaridagi nomlarni xalqimizning tarixi, maʼnaviy-madaniy qadriyatlari bilan birgalikda oʻrganish muhimligini koʻrsatadi.

**Magistrlik tadqiqot usullari:** Dunyo filologlarining diqqat markazida boʻlgan masalalardan biri onomastik birliklarning badiiy matndagi oʻrni masalasidir. Bu borada onomastik birliklarning badiiy matnning koʻp qatlamliligini taʼminlovchi poetik vosita sifatida yondashilgan bir qator tadqiqotlar yaratildi. Onomastik birliklar badiiyatiga bagʻishlangan ilk tadqiqotlar N.Mixaylov,

---

<sup>1</sup> Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga murojaatnomasidan „Xalq soʻzi“ gazetasi, 2020-yil, 25-yanvar soni.



E.B.Magazanik, L.I.Kolokolova, S.I.Zinin kabi olimlar tomonidan olib borilgan<sup>2</sup>. Shuningdek, ukrain tilshunosi V.M. Kalinkinning mazkur mavzuda olib borgan tadqiqotlari alohida eʼtirofqa loyiqdir<sup>3</sup>.

Oʻzbek tilshunosligida badiiy matnning funksional-stilistik xususiyatlari, muayyan bir ijodkorning tildan foydalanish mahorati kabi masalalar maxsus oʻrganilgan. Jumladan, I.Mirzayev, A.Nurmonov, N.Mahmudov, M.Yaqubbe-kova hamda M.Yoʻldoshevning tadqiqotlari ilmiy-nazariy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega<sup>4</sup>. Onomastik birliklarning badiiy matnda oʻrni, funksional-stilistik xususiyatlari esa hanuz mukammal tavsifini topmagan. Bu borada onomastik birliklarning uslubiy xususiyatlari haqida aytilgan ayrim fikrlar mavjudligini taʼkidlash mumkin<sup>5</sup>. Boy adabiyotimiz namunalarida qoʻllangan onomastik birliklarning funksional-stilistik xususiyatlari tamoyillar asosida maxsus tadqiq etilmaganligi ushbu mavzuni monografik asosda oʻrganishni taqozo etadi.

**Tadqiqotning maqsadi** badiiy matndagi onomastik birliklarni funksional-stilistik tamoyillar asosida tasnif va tavsif qilish hamda ularning funksional-stilistik aktuallashtiruvini aniqlashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari** onomastik birliklar estetik vazifasining namoyon boʻlish mexanizmlarini aniqlash, shu asosda ularning qimmatini ochib berish;

- Antroponimlarning badiiy matndagi vazifalarini aniqlash;
- Toponimlarning funksional-stilistik xususiyatlarini aniqlash;

**Ishning obykti va predmeti** sifatida badiiy matnda muayyan maqsad bilan qoʻllangan onomastik birliklarning xususiyatlari tanlangan;

Onomastik birliklarning funksional-stilistik xususiyatlari tanlangan.

**Tadqiqotning metodlari** tadqiqot mavzusini yoritishda tasniflash, tavsiflash, kontekstual tahlil, sinxron va diaxron yondoshuv hamda leksik-stilistik tahlil usullaridan foydalanildi.

---

<sup>2</sup> Abdurahmonov Sh.A. Oʻzbek badiiy nutqida kulgi qoʻzgʻatuvchi lisoniy vositalar: Filol.fan.nom...diss-Toshkent1997.-147b

<sup>3</sup> Avlaqulov Ya Oʻzbek tili onomastik birliklarining lingvistik tadqiqi: Filol.fan.nomz.diss-Toshkent 2012-158 b.

<sup>4</sup> Altuxova O.N. Poetonimy-mediatoriy v makrokontekste proizvedeniy: V.Pelevina Sotsiosfera-M; 2014 -№3 c/ 50-59

<sup>5</sup> Axmanova O.S. Slovar lingvisticheskix terminov-M: 1969 -608s.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:** Onomastik birliklarning lingvistik xususiyatlarini o‘rganish natijasida o‘zbek tilining badiiy imkoniyatlarini yanada chuqurroq o‘rganishga imkon berishi ilmiy va nazariy jihatdan yoritilganligi;

- O‘zbek tilshunosligida ilk marotaba onomastik birliklar terminlarining mohiyati yoritib berilgan;

- Antroponim va toponimlarning onomastik metafora, allyuziv nom, so‘zlovchi nom kabi vazifalari aniqlangan;

- Onomastik birliklarda o‘zbek millati mentalitetiga xos jihatlar, uning tafakkur tarzi o‘z aksini topishi materiallar asosida ochib berilgan.

**Amaliy ahamiyati:** Tadqiqot natijasining amaliy ahamiyati shundaki, olingan xulosalar o‘zbek tilining badiiy imkoniyatlarini yanada chuqurroq o‘rganish uchun muhim nazariy ma’lumotlar beradi, tadqiqot badiiy matnning funksional-stilistik tahlili, o‘zbek tili uslubiyati, matn tilshunosligi kabi fanlardan yaratiladigan o‘quv qo‘llanmalarining mukammallashuviga, onomastik birliklarning badiiy matndagi o‘rnini aniqlashga, soha terminologik tizimining ishlab chiqishiga xizmat qiladi onomastik birliklarning badiiy matnda muayyan obyekt nomini atab kelish bilan birga ijodkorning turli badiiy niyatlariga ham xizmat qilishi aniqlangan.

**Ishning tuzilishi** dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan bo‘lib, umumiy hajmi sahifadan iborat.

# I Bob. ONOMASTIK BIRLIKLARNING BADIY MATNDAGI TAVSIFI

## 1.1 Badiiy matndagi onomastik birliklar

Keyingi yillarda dunyo filologlarining diqqat markazida bo‘lgan masalalardan biri onomastik birliklarning badiiy matndagi o‘rnini o‘rganish muammosi bo‘lib, bu borada onomastik birliklarga badiiy matnning ko‘pqatlamlilikini ta‘minlovchi poetik vosita sifatida yondoshilgan bir qator tadqiqotlar yaratildi<sup>6</sup>.

Onomastik birliklarning funksional-stilistik xususiyatlarini tadqiq qilish o‘zbek tilshunosligida ham yangi va dolzarb masalalardan biridir.

O‘zbek tilshunosligi mustaqillik yillarida katta yutuqlarni qo‘lga kiritdi. Har qanday til birligi badiiy matnda muallifning badiiy niyatiga xizmat qiluvchi bebaho vositaga aylanishi hamda tamoman o‘ziga xos poetik qonuniyatlarni namoyon qilishi mumkin. Muayyan tilning boyligi, badiiy imkoniyatlar doirasining sarhad bilmasligi aynan badiiy matnda ifodalanadi.

Tilda konnotatsiya muhim o‘rin tutishini tadqiqotlarida ta’kidlab boradigan tilshunos N.Mahmudov “tilda konnotastiyaning mavjudligi, rang-barangligi, barqarorligi tilning nechog‘liq boyligining, qadimiy an‘analarga sohibligining, ifoda imkoniyatlari sarhadsizligining, ta’sir va tasvir quvvati o‘tkirligining shahodatidir”<sup>7</sup>, – deb yozadi. Olim alohida ta’kidlagan ushbu masalaning asosiy zalvori so‘z san’atkorlari, ya’ni ijod ahlining zimmasiga tushadi. Natijada esa huzurlanib o‘qiladigan “so‘zlar raqsi”dan yuzaga kelgan san’at asari-badiiy matn yuzaga keladi. Shunday ekan, badiiy matnning badiiylikka “to‘yingan” holda yaratilishi ham o‘ziga xos jarayon, til olamiga bo‘lgan betakror sayohatdir. Bu “sayohat”da mahoratli ijodkorgina tildagi konnotatsiyaga boy so‘zlarni, iboralarni kashf qilishi mumkin.

Til estetik vazifasining asosiy namoyon bo‘lish o‘rni badiiy matn ekanligi mutaxassislar tomonidan ko‘p marta ta’kidlangan<sup>8</sup>. Badiiy matnni tugal anglash,

---

<sup>6</sup> Axmanova O.S.Gyubbenet I.B., Vertikalniy kontekst” kak filologicheskiy problema. Voprosy yazikoznaniya- M.1997-№3-s47-54

<sup>7</sup> Ahmad S,Vladimirova N Hikoyanavisliksan’ati// O‘zbek tili va adabiyoti.-Toshkent,1973-№4-B53-58

<sup>8</sup> Ahmedova N O‘zbek tilida murojaat birliklarining semantic-konnotativ tadqiqi.Filol.fan.nomz....diss-Toshkent,2008.-154b

uning tarkibidagi murakkab tuzilishga ega bo'lgan qatlamlarni fahmlash uchun o'zbek tili grammatikasini yetarli darajada bilish kifoya qilmaydi. Chunki badiiy matnda ifodalangan asosiy g'oya-fikr-mazmuni tushunish shunchaki ish emas, balki ancha qiyin va murakkab ijodiy jarayondir. Badiiy asarda mutlaqo o'ziga xos, goh ochiq, goh yashirin turli ishoralar, tagma'nolar bilan namoyon bo'ladigan mazmunning ma'nosini to'g'ri anglash ma'naviy-madaniy, aqliy-hissiy va lisoniy-estetik faoliyat natijasida mumkin bo'ladi<sup>9</sup>.

Tilshunoslarning fikricha, zamonaviy o'zbek filologiyasida XX asrning birinchi yarmida badiiy asar tilini ilmiy asosda o'rganishning boshlanishi ikki ulkan alloma-adabiyotshunos va adib Izzat Sulton<sup>10</sup> va Ayyub G'ulom<sup>11</sup> nomlari bilan bog'liq. Ular badiiy tilni o'rganishning adabiyotshunoslik va tilshunoslik nuqtai nazaridan ilmiy-nazariy asoslari, tamoyillarini ko'rsatib berganlar<sup>12</sup>.

Tilshunos B.Yo'ldoshev bu borada olib borilgan ishlarini bir joyga to'plab "Badiiy asar tili masalalari" qo'llanmasini e'lon qildi. Bu kitob so'z san'atining atoqli namoyondalari Oybek, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor, Hamid Olimjon, Said Ahmad, Asqad Muxtor, Erkin Vohidov, Ulug' Tursunov, Pirimqul Qodirov, Ozod Sharafiddinov, G'anijon Abdurahmonov, Orifjon Ikromov, Nuriddin Shukurov, Rahmatilla Qo'ng'urov, Nizomiddin Mahmudov, Ergash Qilichev kabi yozuvchi, shoir va olimlarning badiiy asar tili masalalariga bag'ishlangan ilmiy-nazariy qarashlariga oid mavzularni o'z ichiga oladi<sup>13</sup>.

Badiiy matn masalalariga doir tadqiqotlarda badiiy matnga shunday ta'rif berilgan: "Badiiy matn badiiy asar mazmunini ifodalagan, funksional jihatdan tugallangan, tilning tasvir imkoniyatlari asosida shakllangan, o'zida turli uslub ko'rinishlarini muallif ixtiyoriga ko'ra erkin jamlay oladigan, kishilarga estetik zavq berish xususiyatiga ega bo'lgan g'oyat murakkab butunlik hisoblanadi"<sup>14</sup>.

Tadqiqotlarda onomastik birliklarning turlaridan biri bo'lgan antroponimlar semantikasi ularning konnotativ jihatlari bilan uzviylikda tadqiq etilgan.

<sup>9</sup> Begmatov E Joy nomlari-ma'naviyat ko'zgusi.-Toshkent.Ma'naviyat,1998

<sup>10</sup> Begmatov E.O'zbek ismlari.-Toshkent:O'zbekiston milliy ensiklopediyasi,2007.-595b

<sup>11</sup> Begmatov E.O'zbek tili antroponimikasi.-Toshkent:Fan,2013.-264b

<sup>12</sup> Begmatov E.Ismlarning sirli olami.-Toshkent:O'zbekiston,2014.

<sup>13</sup> Begmatov E,Uluqov N.O'zbek onomastikasi terminlarining izohli lug'ati.-Namangan,2006.-104b

<sup>14</sup> Yo'ldoshev M,Yadgarov Q.Badiiy matnning lisoniy tahlili.-Toshkent,2007.-b.3.

L.A.Feoktistova nom semantikasining modeli xususida fikr yuritib, antroponim appelyativ va ikkilamchi nominatsiya o'rtasidagi semantik munosabatlarga e'tibor qaratadi. Tadqiqotchining fikriga ko'ra, mazkur modelda konseptual yadro, pragmatik zona hamda ma'naviy aloqadorlik amal qiladi. Maqolada antroponimlarning emotiv, konnotativ jihatlari, appelyativ-onomastik periferiya, deonimlashish, ya'ni onomastik birliklarning nom sifatidagi xususiyatlari kuchsizlanib, turdosh ot sifatidagi xususiyatlarining ortishi, onomastik birlik semantikasida gender va etnik komponentlarning roli rus tilidagi shaxs nomlari misolida yoritilgan<sup>15</sup>.

O'zbek tilshunosligida ayrim ishlarda onomastikaning uslubiy xususiyatlari haqida aytilgan fikrlar mavjud, biroq ularda mazkur birliklarning badiiy imkoniyatlari keng tadqiq qilinmagan<sup>16</sup>.

Tilshunos B.Yo'ldoshev tadqiqotchi X.Bo'ronova bilan hamkorlikdagi kitobida ham taniqli adib Erkin Samandar asarlaridagi onomastik birliklarning funksional-stilistik xususiyatlari o'rganilgan bo'lib, ba'zi maqsadli qo'llangan antroponim va toponimlar funksional-stilistik vosita sifatida tahlil qilingan<sup>17</sup>. Ushbu ish tilshunosligimizni onomastik birliklarning til xususiyatlarini o'rganish hamda tarixiy asardagi badiiy maqsadda qo'llangan nomlarni tadqiq etish yuzasidan yangi, asosli xulosalar bilan boyitdi.

Tadqiqotimizning obykti onomastik birliklar bo'lgani bois quyida bu birliklarni o'rganuvchi soha haqida to'xtalib o'tamiz.

Ma'lumki, tildagi barcha atoqli otlarni, ularning paydo bo'lishini, leksik-semantik xususiyatlarini tilshunoslikning onomastika sohasi o'rganadi. Onomastika-yunoncha so'z bo'lib "nomlash san'ati" degan ma'noni anglatadi<sup>18</sup>. "Onomastika til onomastikasi" birliklarini tashkil qiluvchi har qanday atoqli otlarni

---

<sup>15</sup> Feoktistova L.A. Kmetodike analiza assotsiativno-derivatsionnyy semantiki lichnogo imeni // Voprosi onomastika. - Yekaterinburg, 2016. №1. -s.85-166

<sup>16</sup> Qilichev E. Ayniy asarlaridagi antroponimlarning stilistik xususiyatlari // O'zbek tili va adabiyoti. - Toshkent, 1978. - №4. -b21-24. Xudonazarov I. Antroponimlarning til lug'at tizimidagi o'rni va ularning semantik-uslubiy xususiyatlari. Filol. fan. nomz. ...diss. - Toshkent, 1998.

<sup>17</sup> Yo'ldoshev B., Bo'ronova X. Erkin Samandarning onomastik birliklarni qo'llash mahorati // E. Samandar Nazm nafasi. Saylanma. - Toshkent: „Turon zamin ziyo“, 2015. -b.393

<sup>18</sup> Podolskaya N.V. Slovar russkoy onomasticheskoy terminologii - M: Nauka, 1998. -s.96.

lingvistik va sotsiolingvistik aspektida tadqiq qiladi<sup>19</sup>. Tilshunoslikda onomastik birliklar onim deb nomlanadi. E.Begmatov onimlarni “atoqli otning ko‘rinishi va tiplari” deb izohlaydi<sup>20</sup>.

Onomastik birliklar badiiy matnda turli holatlarda namoyon bo‘ladi. Bu birliklar yozuvchining badiiy niyatiga muvofiq tarzda matnda ba‘zan sodda, o‘z ma‘nosida ba‘zan murakkab va turli assotsiatsiyalar bilan birgalikda ishtirok etadi. G‘oyat o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘luvchi badiiy matndagi onomastik birliklar tilshunoslikda so‘nggi o‘n yilliklarda jadal rivoj topayotgan fanlararo aloqadorlik tamoyillari va yondashuvlari doirasida o‘rganilmog‘i lozim. Xususan, onomastik birliklar birinchi navbatda, funksional-stilistik yondashuv tamoyillari asosida tadqiq qilinmog‘i zarur. Bu o‘rinda antroponim, toponim, zoonimlar, fitonimlar badiiy matnda o‘ziga xos estetik vazifa bajarishini va turli ma‘no nozikliklarini yuzaga chiqishiga xizmat qilishini ta‘kidlash mumkin. Ma‘lumki, kishi ismlari milliy tafakkurning, xalq turmush tarzining, orzu va istaklarining tarjimoni bo‘lib, g‘oyat rang-barangdir. Bu so‘zlar nomlash vazifasidan tashqari ism sohibiga munosabatni ham o‘zida aks ettiradi. Kishi ismlarining badiiy adabiyotdagi qo‘llanishi ham faqatgina qahramonlarni nomlashga emas, balki ijodkorning turli badiiy maqsadlarini ifodalashga xizmat qiladi. Nomlarning mazkur vazifasi tilshunoslar diqqatini ham jalb qilganini ko‘rish mumkin. Jumladan, A.Nurmonov shunday yozadi: “Badiiy adabiyotda qahramonlarning xarakteriga mos ism tanlashga harakat qilinadi. Masalan, “Tohir va Zuhro” dostonida Tohir-pokiza, nuqsonsiz; Zuhro-nurli, ko‘rkam; niyati qora bo‘lgan qahramonga esa Qorabotir deb ot qo‘yiladi ko‘rinadiki, ism insonning o‘z zurriyotiga bo‘lgan orzu-niyatining debochasi, badiiy asarlarda esa qahramon xarakteriga ishoradir. Demak, ismda ham gap ko‘p. Ismning tilsimini ochish, ma‘nolarini belgilab berish katta amaliy ahamiyatga ega”<sup>21</sup>.

Islomgacha bo‘lgan davrda ham ota-bobolarimiz ism qo‘yishning o‘ziga xos tizimini ishlab chiqishgani va unga amal qilishganini xalq og‘zaki ijodi

---

<sup>19</sup> Begmatov E.O‘zbek tili antroponimikasi.-Toshkent:Fan,2013.-b.9

<sup>20</sup> Begmatov E.Ko‘rsatilgan asar.-b.10

<sup>21</sup> Nurmonov A.Tanlangan asarlar.III jild .-Toshkent. Akademya nashri,2012.-b.286.

namunalaridan bilamiz. “Chunonchi, ibtidoiy jamoa va urug‘chilik davrida ijod qilingan turkiy ismlarda ko‘proq botirlik, jasurlik ramzi bo‘lgan tushunchalar; chaqaloqning hayoti, uning sog‘lig‘i, ulg‘ayishini orzu qilish bilan aloqador tasavvurlar; go‘zallik, o‘ktamlik, chevarlik bilan bog‘liq estetik qarashlar, xo‘jalikning ko‘p qirrali tomonlarini ifoda etuvchi tushunchalar yetakchi o‘rin tutgan. Mana shunday ismlarning bir qismi hozir ham saqlanib qolgan: Alpon, Arig‘, Arslon, Burgutboy, Yo‘lbars, Kumushoy, Lochin, Oyarig‘, Oygul, Oyxon, Ulg‘ay, Unsun, Tirkash, Tursun, To‘xta, Ergash, Erkin, O‘lmas, Quvondiq, Qoplon, Qanotboy, Yursin, Yursinoy, Qilichboy va boshqalar<sup>22</sup>.

Shuningdek, xalq og‘zaki ijodining bebaho durdonasi “Alpomish” dostonida ajdodlarimizning o‘ziga xos ism qo‘yish tamoyili aks etgan. Boybo‘ta Do‘stqorayev “Alpomish matnining jilolari” nomli maqolasida dostonidagi ismlarga alohida to‘xtaladi: “O‘g‘il bolalarga katta niyat bilan ulug‘, ulkan narsa yoki kuchli mavjudotlarning otlari qo‘yilgan. Yoki yosh jonivorlarni anglatuvchi ismlarni tanlashgan. Negaki, har qanday jonzotning kichigi “shirin”, yoqimli ko‘rinadi. Dostonda Olpinbiy, Dobonbiy, Boybo‘ri, Boysari degan turkiy nomlar uchraydi. Olpinbiy asli bahodir, polvon degan ma‘noni anglatuvchi “alp” va katta ma‘nosini beruvchi qo‘shimcha “mon” dan tashkil topgan, “Alpmon” so‘ziga qo‘shilgan “biy” esa, turkiy qavmlarda “qozi” yoki “oqsoqol” ma‘nolarini bildirgan<sup>23</sup>.

B.Do‘stqorayev yuqorida qayd qilingan maqolasida Yortiboy ismi haqida shunday yozadi: “unda qandaydir nuqson mavjud bo‘lgan. Shuning uchun uning ismi “yarim” degan ma‘noni bildiradi. Demak, xalq og‘zaki ijodi namunalarida qahramon ismlariga muayyan badiiy maqsad yuklatilishi an‘anaviy jarayondir.

Antroponimlarning til lug‘at tizimidagi o‘rni, mavzusida tadqiqot olib borgan I.Xudoynazarov o‘zbek xalq dostonlaridagi ayrim qahramon ismlarining tanlanishi bilan bog‘liq fikrlarini quyidagicha bayon qiladi: “Atoqli otlar (kishi ismlari)ga matn maqsadidan kelib chiqib okkazional ma‘no yuklanadi. Natijada,

---

<sup>22</sup> Begmatov E. O‘zbek ismlari.-Toshkent: „O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2-nashri, 2007. -b. 595.

<sup>23</sup> Do‘stqorayev B. „Alpomish matnining jilolari//O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati, 2011.1-son

maqsadli tagma'noli matn yuzaga keladi. Masalan, Dingboy, Qing'irboy, Chalaboy, Quvnoqboy, Yortiboy, Kuymasboy, Toymasboy, Daqqi, Dumaloq, Baxilboy, Kallaboy, Bo'lakboy, Qanorboy kabilarda xuddi shunday tag ma'no yotadi"<sup>24</sup>. Bu xalq og'zaki ijodi namunalarida keng tarqalgan usul bo'lib, odatda, ijobiy qahramonlar ismiga ijobiy, salbiy qahramonlar ismiga esa salbiy ma'no yuklanadi.

Badiiy adabiyotda ism ko'pincha qahramon xarakteriga ishora qilib keladi. Qahramonlar odatda, ismlarining mazmuniga mos xarakteriga ega bo'ladi. Mumtoz adabiyot namunalarini ko'zdan kechiradigan bo'lsak, ismiga munosib qahramonlarni deyarli barcha xalqlar adabiyotlarida uchratishimiz mumkin.

Mashhur "Don Kixot" asarining qahramonlaridan biri Sanchoning laqabi Panso ana shunday ismi jismiga mos laqab bo'lib, "ishkamba" ma'nosini bildiradi.

E.Magazanik rus adabiyotidagi bir qator maqsadli qo'llangan nomlarni tahlil qilib, ularning ismi familiyasidan anglashilgan ma'nolarni qahramon xakteri, ruhiyati bilan bog'laydi. Olim atoqli rus adibi F.Dostoevskiyning "Jinoyat va jazo" romanidagi bosh qahramonga berilgan Radion Raskolnikov antroponimida ham yozuvchining muayyan maqsadi borligini ta'kidlab, shunday fikr bildiradi: qahramonning ismi ham familiyasi ham asar g'oyasi bilan bog'liq badiiy niyat ochiq ko'rinib turadi. O'quvchiga ma'lumki, qahramon jinoyatni bolta yordamida sodir etadi. "Raskolot" -"yormoq" fe'lidan yasalgan familiya Radion- "radiy" kuchli kimyoviy element appelyativiga ega ism qahramonning xarakter va harakatlariga ishora qiladi"<sup>25</sup>.

Bu holatni sharq og'zaki va yozma adabiyotining mumtoz namunalarida ham istagancha uchratish mumkin. Bizningcha qahramonlarga ramziy nom berishning dastlabki go'zal namunalari Qutadg'u bilig" asarida uchraydi. Bir qator tadqiqotchilar ham asardagi nomlar haqida o'z fikr-mulohazalarini bildirib o'tishgan. "Kuntug'di (chiqqan kun)-adolat timsoli bo'lib, Elig o'rnida Oyto'ldi (to'lgan oy) – davlat timsoli bo'lib, vazir o'rnida, O'gdulmish (aqli raso) -aql

---

<sup>24</sup> Xudoynazarov I.Antroponimlarning til-lug'at tizimidagi o'rni va ularning semantik-uslubiy xususiyatlari:Filol.fan.nomz...diss.-Toshkent,1998.-b.81

<sup>25</sup> MagazanikE.B.Onomapoetika ili govaryashiye imena v literature.-Tashkent:Fan,1978.-s18.



timsoli bo‘lib, vazirning o‘g‘li o‘rnida, O‘zg‘urmish (uyg‘ongan) -qanoat timsoli bo‘lib, vazirning qarindoshi o‘rnidadir<sup>26</sup>.

Alisher Navoiy asarlaridagi Majnun, Iso, Yusuf, Farhod, Dilorom, Parichehra, Paripaykar va boshqa antroponimlar nominativ ma’nosiga muvofiq xarakterlar bo‘lish barobarida muallifning uslubiy maqsadiga beminnat xizmat qiluvchi obrazlar sifatida ham diqqatga sazovor<sup>27</sup>.

Ulug‘ mutafakkirning qahramonlarga ism tanlashdagi mahoratini “Farhod va Shirin” dostonida yaqqol ko‘rish mumkinligini ta’kidlagan Y.Solijonov va S.Mo‘minovlar ushbu asardagi bir qator nomlarni faqat qahramonlarni tanishtiruvchi, yaxshi va yomonligini anglatuvchi ismgina emas, balki, voqelikni ma’lum darajada o‘zida mujassamlashtirgan, qahramonning kelajak taqdiriga ishora qilgan, xarakterli xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtirgan nomlar tarzida namoyon bo‘lishini ham aytgan<sup>28</sup>. Mazkur maqolada mualliflar Gulxaniyning “Zarbulmasal” idagi Yapoloqqush, Kulonqirsulton, Gunashbonu kabi qahramonlar ismini ham ayni aspektda yoritishgan.

Tilshunoslik sohasida antroponimlarning uslubiy xususiyatlariga aloqador bir qator maqola xarakteridagi ishlar mavjud. Jumladan, R.Qo‘ng‘urov va R.Mo‘minovalarning o‘zbek badiiy adabiyotida va satirik jurnallarda qo‘llanilgan antroponimlarning uslubiy xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan maqolasida bunday antroponimlar asar badiiyatini, ta’sir kuchini orttirishga xizmat qilishi aytiladi. Mualliflar Olg‘irboy, G‘iybatilla, Tepki, Elpig‘ichxon kabi satirik, Temur, Jo‘ra, Omon kabi adabiy qahramonlarning ismi bilan bog‘liq fikrlarini onomastik stilistika tamoyillari asosida izohlaganlar<sup>29</sup>.

Onomastikaga bag‘ishlangan ayrim dissertatsion ishlarda onimlar o‘z nominativ vazifasidan tashqari, badiiy adabiyot va folklor asarlari tilida o‘ziga xos

---

<sup>26</sup> Karimov Q., „Qutadg‘u bilig‘“ asarida uchraydigan shaxs nomlari//O‘zbek tili va adabiyoti.-Toshkent,1967.-№2-b.42.

<sup>27</sup> Yoqubov SH..Navoiy asarlari onomastikasi:Filol.fan.nomz...diss.avtoferat-Toshkent,1994.-b.8-18.

<sup>28</sup> Solijonov Y.Mo‘minov S.Badiiy asarlarda ismning ayrim funksiyalari//O‘zbek tili va adabiyoti.-Toshkent-1984.-№2.-b.44-49

<sup>29</sup> Kungurov R,Mo‘minov R.собственные имена в языке художественной литературы//Ономастика Узбекистана.-Tahkent,1989,-s.124-125.

badiiy-uslubiy vazifa bajarishi ham aytib o‘tilgan<sup>30</sup>. Tilshunos E.Qilichev yozuvchi Sadridin Ayniy asarlaridagi antroponimlarning uslubiy xususiyatlari haqidagi maqolasida bu haqda shunday yozadi: “Yozuvchi ba’zi personajlarga ularning karakteridan kelib chiqib nom bergan. Ya’ni, ism personaj karakterini izohlab turadi. Jumladan, “Qullar” romanida doimo “Men kak partiyaniy” deb boshqalarga gap bermaydigan, mahmadona, har qanday ishga yuzaki, shoshma-shosharlik bilan qaraydigan bir personajning nomi Shoshmaquldir. Uning nomi xarakteriga mos bo‘lib tushgan.

Mazkur maqolada S.Ayniy asarlaridagi qahramonlar uchun ism tanlashda ularning qaysi sinf yoki tabaqaga mansub ekanligiga katta e’tibor bergani ta’kidlanadi. Zodagonlar ismi mansab va tabaqa bildiruvchi affiksoidlar bilan berilgani holda, boshqa tabaqaga mansub kishilar ismi sodda, dabdabadan yiroq ismlar ekanligi badiiy mahorat bilan tilga olinadi. Akademik V.V.Vinogradov “badiiy adabiyotda personaj ismi, familiyasi va laqabini tanlash masalasiga, turli janr va uslublar struktura jihatidan o‘ziga xos namoyon bo‘lish tarziga, xarakteristik funksiyasi va shu kabilarga bir necha misol berish bilan kifoyalanib qolmaslik kerak. Bu badiiy adabiyot stilistikasining juda murakkab mavzusi hisoblanadi”<sup>31</sup> degan o‘rinli fikrni aytgan.

Badiiy matnda onomastik birliklar turli tasniflar asosida o‘rganiladi. Bunday tasniflarni belgilashda asar mualliflarining xotiralari yoki asar bilan bog‘liq sharhlari ma’lum ahamiyatga ega hisoblanadi. Masalan, Said Ahmad xotiralarida o‘z asarlaridagi qahramonlar ismining tanlanishi bilan bog‘liq tajribalarini o‘rtoqlashgan. Yozuvchining olimi N.Vladimirova bilan suhbatida qahramon ismi bilan bog‘liq bir detalni aytib bergan edi: “Shunday qilib “Cho‘l burguti” hikoyasining bosh qahramoni real prototip asosida paydo bo‘ldi. (Asarda) O‘rik domla degan odam ham bor. O‘rik haqida kandidatlik dissertatsiyasini yoqlagan bu odamga Adham Hamdam “O‘rik domla” deb laqab qo‘ygan. Shu gap kalamda yuraverdi. O‘rik domla boshqa kishilarni ham yodimga soldi. Sayfiddinxon degan

---

<sup>30</sup>Yoqubov Sh.Navoiy asarlari onomastikasi:Filol.fan.nomz...diss.-Toshkent,1994.-b.3.

<sup>31</sup> Vinogradov V.Stilistika.Teoriya poeticheskoy rechi.Poetika.-M,1963.-S.38

bir pochchamiz bo'lardi. Mirzacho'lda bog' yaratgan odam edi. O'sha odamning keyin Rizamat otaning fazilatlarini ko'z oldimga keldi. Shularning hammasini yig'ib bir obraz qildim. O'zim biologiyani yaxshi bilmaganim uchun hazil bilan o'tib ketish mumkin bo'lgan detallar qidira boshladim. Yoshligimda eshitgan gaplar, o'zim to'qigan latifalar ish berdi. Mana shunday qilib, O'rik domla haqida hikoya yaratildi"<sup>32</sup>. Said Ahmad asarlari qahramonlarining aksariyati "o'z hikoyasiga ega" ismlardir.

Darhaqiqat, adabiyotshunoslarning ham badiiy matndagi qahramon ismlari haqida qimmatli fikrlari juda ko'p. Aksariyat nom badiiy matnga olib kirilar ekan, undan ko'zlangan badiiy maqsad bo'ladi, albatta. Ammo bu birliklarga yuklatilgan stilistik vazifa ham muvaffaqiyatli namoyon bo'la olmaydi. Masalan:

Bugun so'ylayotir buyuk bobolar,  
Buxoriy, Termiziy, qancha Kubrolar,  
Amir Temur, Naqshbanddek daholar:  
Omon bo'lsin karvoning Vatan.

(T.Ahmad "Uyg'oq vijdonimsan, Vatan!")

Adabiyotshunos N.Rahimjonov fikricha, bu she'rda qo'llangan nomlar badiiyatdan uzoq, shuningdek, ajdodlarimiz nomini viloyat va tumanlarni birma bir tilga olish, bu ona yurt, Vatanni ulug'lash degan emas, bu kabi she'rlar gazeta xabarlaridagi ma'lumotlarni, yillik rejalarning bajarilishiga bag'ishlangan she'riy raportlarni esga soldi<sup>33</sup>.

Badiiy asardagi qahramonlar nomining asar g'oyasi bilan uyg'un holatlarini sinchkovlik bilan tahlil qilayotgan M.Qo'chqorova tadqiqotlarida ham bu masala yuzasidan fikrlar uchraydi<sup>34</sup>.

Shuni ta'kidlash kerakki, antroponimlarga emas atoqli otlarning barcha tip va ko'rinishlarining badiiy matndagi o'rni funksional-stilistik nuqtai nazardan jiddiy tadqiq qilinishi lozim. Chunki badiiy asarning poetik qimmatini belgilashda

---

<sup>32</sup> Ahmad S.Vladimirova N.Hikoyanavislik san'ati//O'zbek tili va adabiyoti.-Toshkent,1973.№4-b.55

<sup>33</sup> Rahimjonov N.Mustaqillik davri o'zbek she'riyati.-Toshkent:Fan,2007.-b.179

<sup>34</sup> Qo'chqorova M.Erkin A'zam nasri va kinoyaviy-badiiy shartlilik//E.A'zam badiiy olami.-Toshkent:Turon zamin ziyo,2014.-b.81

bunday birliklarning funksiyasi katta. Bu borada toponimlar ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Mutaxassislarning fikricha, badiiy asar tilidagi toponimlarni tadqiq qilish, bir tomondan, tilshunoslikning toponimika sohasi uchun ahamiyatli bo'lsa, ikkinchi tomondan, tilshunoslikdagi eng dolzarb masalalardan biri-badiiy asar tili va yozuvchi muammosiga ma'lum bir aniqlik kiritishi, shubhasizdir<sup>35</sup>.

T.Qurbonov badiiy asarlardagi toponimlarni o'rganish masalasiga bag'ishlangan monografiyasida Pirmqul Qodirov asarlaridagi toponimlarni to'plash va kompleks tahlil qilishning ahamiyati muhim ekanini ta'kidlab, bunday tadqiqotlar yozuvchi mahoratini belgilashda, joy nomlari tasnifini berishda, toponimlarning leksik-semantik, grammatik xususiyatini yoritishda ularni tarixan taqqoslab o'rganishda, joy nomlarining izohli etimologik lug'atini tuzishda, oliy o'quv yurtlarida etimologiya va til tarixi fanini o'qitishda dolzarbligini qayd etadi<sup>36</sup>. U P. Qodirov asarlarida qo'llangan toponimlarni tarixiy toponimlar va hozirgi toponimlar tarzida ikkita guruhga bo'lib o'rganadi.

Sh. Yoqubov "Navoiy asarlari onomastikasi" mavzusidagi dissertatsion tadqiqotida o'zbek nomshunoslari o'zbek tili atoqli otlari tizimini o'rganish bo'yicha jiddiy ishlarni amalga oshirganini e'tirof etish bilan birga bu sohada qilinishi kerak bo'lgan bir qator ishlar mavjudligini aytadi. Ayniqsa, o'zbek adabiy onomastikasi yoki badiiy onomastika deb yuritiluvchi atoqli otlar tizimining deyarli tadqiq qilinmaganligini qayd etish o'rinlidir" - deydi tadqiqotchi<sup>37</sup>.

Badiiy matnda onomastik birliklarning funksional-stilistik maqsadda qo'llanishi, xususan, okkazional, ya'ni to'qima nomlarning asar badiiyatidagi o'rni va til xususiyatlari rus tilshunosligida va turkiyshunoslikda atroflicha o'rganilganligini ta'kidlash mumkin. Bu sohada Superanskaya, A.A.Fomin, B.M.Kalinkin, N.V.Vinogradova, N.V.Podolskaya kabi rus va ukrain tilshunoslari L.M.Xamitova, A.R.Biktimirova. K.Z.Jappar. S.Kurbonmamadov kabi tatar, qozoq, tojik tilshunoslari tadqiqot olib borishgan.

---

<sup>35</sup> Qurbonov T. Badiiy asarlardagi toponimlarning lingvistik tahlili va izohi masalalari. - Samarqand, 2006. - b. 11.

<sup>36</sup> Qurbonov T. Badiiy asarlardagi toponimlarning lingvistik tahlili va izohi masalalari. - Samarqand, 2006. - b. 11.

<sup>37</sup> Yoqubov Sh. Navoiy asarlari onomastikasi: Filol. fan. nomz... diss. avtoreferat. - Toshkent, 1994. - b. 3

Yuqorida ismi qayd qilingan mualliflarning tadqiqotlarida tekshirish obyekti boʻlgan onomastik birliklar qaysi koʻlamga mansubligidan qatʼi nazar “onimlar” atamasi ostida oʻrganilganligini kuzatish mumkin.

V.M.Kalinkin rus, ukrain, polyak, ingliz va fransuz adabiy matnlaridan namunalar keltirish orqali onimlarning poetik imkoniyatini tadqiq etdi. U soha nomi haqida ham oʻz fikrlarini bildirib, “adabiy onomastika”, “stilistik onomastika” terminlari qoʻllanayotganligini aytib, mazkur terminlarni oʻzaro qiyoslaydi va mazkur sohani “poetik onomastika” deb nomlash maqulligini taʼkidlaydi<sup>38</sup>.

Rus tilshunosi N.V.Podolskaya “onomastika, badiiy adabiyotdagi atoqli otlarning uslubiy va ideologik vazifalarini oʻrganadigan, muallifning gʻoyasini oʻzida mujassamlashtirgan onomastik termin”<sup>39</sup> deb taʼrif etadi.

Umuman olganda, onomastik birliklarning badiiy matndagi oʻrni tadqiqida ikki holat nazarda tutiladi: birinchidan, yozuvchi yoki shoirning soʻz xazinasini bilan bogʻliq statistik holat aniqlanadi. Bu muayyan mavzuda olib boriladigan sof lingvistik tadqiqotlar uchun ahamiyatli boʻlishi mumkin. Ikkinchidan, leksik bazadan ajratilgan maʼlum qatlam birliklarini turli yondashuvlar asosida tahlilga tortish imkoni hosil qilinadi.

Badiiy matn leksikasining struktur elementini, oʻziga xos qatlamini tashkil etgan antroponimlarning konnotativ, signifikativ va denotativ maʼnosi nomlarning funksional-stilistik vazifasini oʻzgartiradi va bu hodisa ularni turli yondashuvlar bilan oʻrganishga sabab boʻladi. Badiiy matndagi onomastik birliklarning ekspressiv xususiyatlari dastlab “onomapoetika” termini ostida oʻrganilgan. Onomapoetika masalalariga bagʻishlangan ilk tadqiqotlar V.N.Mixaylov, E.B.Magazanik, L.I.Kolokolova kabi olimlar tomonidan olib borilgan<sup>40</sup>. Keyingi yillarda badiiy matndagi onomastik birliklarning oʻrni haqidagi turli masalalar

<sup>38</sup> Калинин В.М.Поэтика собственных имен в произведениях романтического направления: avtoref. diss... kand. nauka-Donesk,1987

<sup>39</sup> Подольская Н.В.Словарь русской ономастической терминологии.-М:Наука,1998.-s.28

<sup>40</sup> Михайлов В.Н.собственные имена персонажей русской художественной литературы XVIII и первой половины XIX в их функции и словообразование.автореф.дисс.канд.филол.наук.-М.1956. Магазаник Э.Б.Поэтика имен собственных в русской классической литературе. Автореф. дисс. канд. филол. наук.-Самарканд.1967 Колоколова Л.И.Ономастика в художественной речи А.П.Чехова. автореф. дисс. канд. филол. наук.-Волоград.2000

“poetik onomastika” termini ostida o‘rganilgan. Bu borada ukrain tilshunosi V.M.Kalinkinining doktorlik dissertatsiyasi hamda ayni dissertatsiya asosidagi “Onim poetikasi” monografiyasi alohida e‘tiborga loyiq<sup>41</sup>.

O‘zbek onomastikasi terminlariga bag‘ishlangan ishlarda onomastik birliklar badiiyati bilan bog‘liq terminlar haqida ba‘zi fikrlarni uchratish mumkin. Jumladan, R. Nuritdinova atoqli otlarning estetik xususiyatlaridan kelib chiqib, ushbu masalani o‘rganuvchi onomastikaning mustaqil yo‘nalishi mavjudligini aytadi va bu yo‘nalishning o‘ziga xos terminlarini quyidagicha tasniflaydi:

1. Nomlarning badiiy-uslubiy xususiyatlarini o‘rganadigan ilmiy yo‘nalishlar, usullarni bildiruvchi terminlar: adabiy onomastika, adabiy-badiiy onomastika, badiiy adabiyot onomastikasi, badiiy onomastika, badiiy til onomastikasi, onomastik stilistika, dostonlar onomastikasi.

2. Nomlarning uslubiy xususiyatlariga ishora qiluvchi terminlar: atoqli otlarning uslubiy xususiyatlari, antroponimlar uslubiyati, “gapiruvchi nomlar”, ismlarning uslubiy xususiyatlari, so‘zlaydigan laqablar, “so‘zlovchi” ismlar, uslubiy ma‘no tashuvchi nomlar, nomning uslubiy-poetik vazifasi, shoirona “chiroyli” ismlar, asarlar onomastikasi.

3. Konkret asar, shaxs, badiiy obrazlar, personajlar nomi bilan bog‘liq tushunchalarni anglatuvchi terminlar: adabiy taxallus, badiiy asarlar nomi, badiiy asarlar lavhasi, badiiy obrazlar nomi, doston nomi, dostonlar onomastikasi, doimiy taxallus, mavsumiy taxallus, personajlar ismi, personajlar nomi, to‘qima nomlar, to‘qima obrazlar nomi, salbiy obrazlar nomi, to‘qima-xayoliy obrazlar, to‘qima ismlar<sup>42</sup>.

N. Mahmudov “Fan tili va til fani” nomli maqolasida “Har qanday fanni o‘rganish, o‘zlashtirish uchun uning alifbosidan-terminologiyasidan xabardorlik zarur bo‘ladi. Ma‘lumki, fanning katta-kichik asosiy tushunchalari bevosita terminlar orqali ifodalanadi”<sup>43</sup>, – deb ta’kidlaganidek, ayni sohaning terminologik

---

<sup>41</sup>Калинкин В.М.Поэтика онима.-Донецк.1999.

<sup>42</sup> Nuritdinova R. O‘zbek onomastikasi terminlarining lisoniy tahlili: Filol.fan.nomz...diss.-Toshkent, 2005.-b.62-63

<sup>43</sup> Mahmudov N.Fan tili va til fani//O‘zbek tili va adabiyoti.-Toshkent,2013.-№5-b.3-10.

tizimi tartibga solinishi, ilmiy jihatdan aniq izohlanishi va unifikatsiya qilinishi kerak.

Ko‘rinadiki, turli tilshunosliklarda nomlar poetikasi borasida bir qancha ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, rus, ukrain, tatar tilshunosligidagi tadqiqotlar diqqatga sazovordir. O‘zbek tilshunosligida mazkur muammoga bag‘ishlangan tadqiqotlar tizimli ravishda maxsus o‘rganilgan emas. Tilimizning boy ifoda imkoniyatlarini namoyon etuvchi bu birliklarning funksional-stilistik xususiyatlarini yoritish tilshunosligimiz oldida turgan dolzarb masalalardan biridir. Yuqoridagilardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, o‘zbek tilshunosligida onomastik birliklarning funksional-stilistik xususiyatlarini o‘rganish orqali chiqarilgan xulosalar o‘zbek badiiy onomastikasining shakllanishiga zamin yaratadi va bo‘lajak tadqiqotlar uchun nazariy manba bo‘lib xizmat qiladi.

## **1.2. Badiiy matnda qo‘llangan onomastik birliklar ko‘lami**

Tilshunoslikda onomastik ko‘lam deganda, muayyan xalq tilidagi real, taxminiy va xayoliy obyektlarni nomlash uchun qo‘llanadigan atoqli otlar majmui tushuniladi<sup>44</sup>.

Badiiy matndagi onomastik birliklar matn ko‘lamini, mazmun va uslubini shakllantiruvchi muhim vosita hisoblanadi. Darhaqiqat, hajviy asarlarning onomastik ko‘lamida komik effektini hosil qiluvchi nomlar yetakchilik qilsa, tarixiy asarlar onomastik ko‘lamini, asosan, tarixiy nomlar tashkil qiladi. Masalan, T. Malikning „Tilla kalamush yoxud Yo‘qqulobod hangomalari“ nomli kitobidan hajviy qissa va hikoyalar o‘rin olgan bo‘lib, unda jamiyatdagi odamlar tabiatidagi ba‘zi „fazilatlar“ yumoristik usulda ifodalangan. Asarning onomastik ko‘lami ham shunga uyg‘un holda komik effektini hosil qiluvchi, maqsadli qo‘llangan nomlardan tashkil topgan. Ya‘ni, joylar va kishilarni nomlashda Janjalqishloq, Yo‘qqulobod, Arbobxonim, Yo‘g‘onbek, Ma‘nijon, Falonulla Pismadonxo‘jayev, Dumbultoy, Toyloq, Bo‘taqul, Balliqul, Jazqul, Holsizova, Yumalabtortarov, Boyqul, Bevoshqul bobo, O‘ngqulobod, Chapqulobod kabi to‘qima nomlardan foydalanilgan. Demak, hajviy asarlar onomastik ko‘lamida

---

<sup>44</sup> Begmatov E. O‘zbektili antroponimikasi. - Toshkent, 2013. - b.34

ism,laqab,familiya yoki taxalluslar,hatto joy nomlarining,asosan,komik effekt hosil qilishi asosiy o‘ringa chiqadi.Bu o‘rinda qahramonning ismi(laqabi,familiyasi yoki taxallusi) dagi komizmdan asarning butuniga oid badiiy kulgi osongina faxmlanadigan yozuvchining badiiy niyati qahramonlar ismiga ilk marotaba ko‘z yugurtirilganda yoki eshitilgandayoq ilg‘anadigan bo‘ladi.

Istalgan badiiy matnni kuzatsak,behisob darajada qo‘llangan onomastik birliklarni uchramiz.Bu o‘rinda nasriy va nazmiy asarlarni taqqoslaydigan bo‘lsak,garchi onomastik ko‘lam mohiyati epik asarlarda yaqqol namoyon bo‘lsada,unda onomastik birliklarning aksariyati nominativ vazifa bajarishi uchun qo‘llanadi.Masalan,A.N.Tolstoy „Sarson-sargardonlikda” trilogiyasida 2000 dan ortiq personaj nomi qo‘llangani aytiladi<sup>45</sup>.

O‘zbek tilshunosligida ham keyingi yillarda bu tarzda ishlarining amalga oshirilayotganligi diqqatga sazovordir.Masalan,Sh.Yoqubovning „Navoiy asarlarining onomastikasi”,deb nomlangan nomzodlik dissertatsiyasi va Q.Karimovning „Qutadg‘u bilig”asarida uchraydigan shaxs nomlari” maqolasida asosiy e‘tibor onomastik birliklarning tasnifiga qaratilgan bo‘lib, ularda ayrim nomlarning uslubiy vazifa bajargani aytib o‘tilgan.E.Qilichev esa S.Ayniy asarlari onomastik ko‘lamidagi uslubiy maqsadda qo‘llangan antroponimlarga diqqatini qaratgan.D.Xudoyberganova „Muhammad Yusuf she‘riyatida onomastik birliklarning o‘rni”maqolasida shoir she‘rlaridagi onomastik birliklarga lingvokulturalogik va lingvopoetik jihatdan yondashgan hamda muallifning onomastik birliklardan badiiy maqsadda foydalanishdagi mahoratini ko‘rsatib bergan<sup>46</sup>.

Ma‘lumki,she‘riy nutqda antroponimlardan badiiy maqsadda foydalanish holati ko‘p kuzatiladi.Shu bois she‘riy matnlarning onomastik ko‘lami o‘ziga xos bo‘lib,bu o‘ziga xoslik tarixiy va mifologik antroponimlarga ko‘p murojaat qilishda yaqqol ko‘rinadi.Bunda nomlar orqali intertekstuallik yuzaga

---

<sup>45</sup> Деревяго А.Н.Имя собственное в художественном тексте.Учебного-методическое пособие.-М.2008.-с.36.

<sup>46</sup> Karimov Q.,„Qutadg‘u bilig”asarida uchraydigan shaxs nomlari//O‘zbek tili va adabiyoti.-Toshkent,1967.-№2-b.42-45. Qilichev E.Ayniy asarlaridagi antroponimlarning stilistik xususiyatlari//O‘zbek tili va adabiyoti.-Toshkent,1978.-№4.-b.22-25;Yoqubov Sh.Ko‘rsatilgan asar;Xudoyberganova D.M.Yusuf she‘riyatida onomastik birliklarning o‘rni//Ilm sarchashmalari.-Urganch,2016.-№6.-b.75-80



keladi. Masalan, E. Vohidov she'riyatining onomastik ko'lamidan o'rin olgan poetonimlar o'zbek, sharq va g'arb adabiyoti, madaniyati va tarixiga oid faktlarga ishora qilib, g'azallarning mazmun jihatidan to'laqonli, badiiyat jihatidan yuksak bo'lishiga xizmat qilgan. Jumladan, shoirning birgina „O'zbekiston“ faxriyasining o'zida boshqa matnlarga „ya'ni ijtimoiy-tarixiy fakt hamda filologik fakt mazmuniga ishora qiluvchi jami 25ga yaqin onomastik birlik qo'llangan“<sup>47</sup>.

Umuman olganimizda, badiiy matnning onomastik ko'lami asarning struktural-semantik yaxlitligiga xizmat qilish barobarida biror janr tabiatiga xos effektini yaratishda (masalan, tarixiy koloritni yuzaga keltirishda), matnning serqatlamligini ta'minlashda, xalqning milliy mentaliteti, o'ziga xos madaniyatini ko'rsatishda, ijodkorning badiiy tafakkur darajasini namoyon qilishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli badiiy asar tili tadqiqida badiiy matnning onomastik ko'lami muammosini ham alohida o'rganish lozim.

### **1.3. Onomastik birliklarning badiiy matndagi vazifalari**

Til birliklarini uni yaratuvchi shaxs hamda etnos bilan uzviylikda o'rganish lingvistika sohasida lingvokulturalogiya, kognitiv tilshunoslik, etnolingvistika, madaniyatlararo kommunikatsiya kabi yangi sohalarning shakllanishiga sabab bo'ldi. Mazkur sohalar bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda nomlarga dahldor bir qator nazariy qarashlar ilgari surildiki, bugungi kunda onomastik birliklarni bu qarashlardan holi tarzda tadqiq etish aslo mumkin emas.

Matn tilshunosligi bilan bog'liq tadqiqotlarda „presedent birliklar“ termini bilan umumlashtirilgan alohida hodisa qayd qilinadi. „Muayyan til egalariga yaxshi tanish bo'lgan va ularning lisoniy xotirasida saqlanadigan, nutqiy faoliyatida qayta-qayta murojaat qilinadigan shaxs nomlari, barqaror so'z birikmalari, jumalalar hamda matnlar presedent birliklar“<sup>48</sup> sifatida olinadi. D. Xudoyberganova mazkur termin tilshunoslikda birinchi marta YU.N. Karaulov tomonidan qo'llanganini aytadi<sup>49</sup> hamda presedent birliklar ichida presedent nomlarning alohida o'rin tutishini ta'kidlaydi. Shuningdek, tilshunos presedent nomlarning yana bir vazifasi

<sup>47</sup> Andaniyozova D. Intertekstuallik doirasida poetonimlar/O'zbek filologiyasining dolzarb muammolari. - Buxoro, 2015. - b. 280-282

<sup>48</sup> Xudoyberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi. - Toshkent; Fan, 2013. - b. 87

<sup>49</sup> Xudoyberganova D. Ko'rsatilgan asar. - b. 87

bo‘lgan „mikromatn subyekt sifatida matn yaratilishida ishtirok etishi”ni misollar vositasida yoritadi. D.Xudoyberganovanning o‘zbek xalqi milliy mentaliteti bilan bog‘liq mashhur nomlar haqida fikr yuritib,ularning matn yaratishdagi o‘rni xususida bildirgan mulohazalari tilshunosligimizda bu boradagi ilk qarashlardan biri deyish mumkin<sup>50</sup>.

Olimning ta‘kidlashicha,presedent nomlar tayyor mazmuniy bloklar”bo‘lib,ular ko‘p qirrali hodisa sifatida tilshunoslikda turli aspektlarda o‘rganilishi lozim.Bu borada tilshunos presedent nomlarning lingvopoetik tadqiqini ham nazarda tutgan bo‘lib,bu kabi tadqiqotlar orqali badiiy matndagi ko‘pchilikka tanish bo‘lgan mashhur nomlarning ijodkor badiiy niyatini yoritishda muhim vosita bo‘la olishini yoritish mumkinligini aytadi<sup>51</sup>.Presedent nomlar nazariyasi rus tilshunosligida keng va chuqur tadqiq etilgan mavzulardandir.Ularning aksariyatida muayyan adib asarlaridagi nomlarni tahlil qilishga katta e‘tibor qaratilgan.Bunday xarakterdagi ishlarda biror bir asarda qo‘llangan presedent nomlarni aniqlash,ularni mazmuniga ko‘ra tasnif qilish va badiiy matndagi funksional-stilistik xususiyatni aniqlash markaziy o‘rinni egallaydi.

Presedent nomlarga berilgan ta‘riflarni umumlashtirish natijasida bu tushunchaga xos bo‘lgan xususiyatlarni quyidagicha belgilash mumkin: 1)til egalari xotirasida mavjud bo‘lishlik; 2)mashhurlik; 3)biror mashhur matn yoki vaziyat bilan bog‘liqlik; 4)ramziy ma’no kasb etishi.

Ta‘kidlash kerakki,o‘zbek lingvomadaniyatida etalonlik xususiyatiga ega presedent nomlar borki,ulardan ko‘plab ijodkorlar badiiy vosita sifatida foydalanganligini kuzatishimiz mumkin.Xususan,she‘riy matnlarda ko‘p murojaat qiladigan qahramonlik etaloni-Alpomish, go‘zallik, ibolik etaloni-Kumush;mard ayol etaloni-To‘maris; vatanparvarlik etaloni-Shiroq; zukkolik etaloni-Nasriddin Afandi; mehnatsevarlik etaloni-Zumrad; dangasalik va qo‘pollik etaloni-Qimmat; saxiylik etaloni-Hotamtoy; xasislik etaloni-Qorun kabi nomlar ijodkorning

---

<sup>50</sup> Xudoyberganova D.Ko‘rsatilgan asar.-b.91

<sup>51</sup> Гунко Ю.особенности функционирования прецедентных высказываний в разговорной речи носителей русского языка.дисс....д-ра.филол.наук.-Санкт-Петербург,2002-с.76-77

muayyan maqsadini yoritishga xizmat qiladi. Bu nomlar ko'rsatilgan ma'nolarda ramziy nomlar sifatida qo'llanadi.

Masalan, badiiy matnda Zumrad antroponimi oqilalik, suyuklilik, mehnatsevarlik ramziy ma'nolarida qo'llangan. Quyidagi parchada esa antroponim ertak qahramoni nomiga ishora sifatida o'xshatish vazifasini bajarib kelgan: Afsuski ertak -ertak-da... Ammo Shukurjon, bizga Zumradday suyukli bo'ladigan o'zbek qizlarimizning obrazini ham yaratib berishingiz kerak! Bilmadim-ov Zumraddakasi yo'g'-ov ... Bor! Bo'lmasligi mumkin emas, -o'z so'zida turib oldi Mengziyo. -Ehtimol, Saidangizning o'zi Zumraddir. (Sh. Xolmirzayev „Bu kishim ustoz, men shogird“).

Quyida Qimmat antroponimi orqali „Zumrad va Qimmat“ ertagidagi qahramon nomiga ishora qilingan. Ertak qahramoni nomi Xolbeka ismli qahramonga salbiy munosabatni ifodalash maqsadida qo'llangan: Xolbeka keyin ham Masturaning boshiga ko'p kunlarni soldi. Har kelganida yoki bular borganida, albatta, bir ko'ngilsizlikni oraga suqar, g'iybat yo malomatni tayyorlab qo'ygan bo'lar edi. So'ng necha kun Nuriddinning uyida g'urbat... G'urbatni Mastura boshlamaydi, u bir og'izgina beozor shama qiladi, xolos. Shu Qimmatxonim (Xolbeka demoqchi) qiziq-da, uyda o'tirib, buncha gapni qayoqdan olarkan? (E. A'zam., „Javob“).

Badiiy matnda nafaqat antroponimlar, balki boshqa onomastik birliklar ham presedent birlik sifatida funksional-stilistik vazifa bajaradi.

Presedent nomlar badiiy matnda quyidagi vazifalarni bajaradi.

1. Ekspressivlikni hosil qiladi. Badiiy matnning anglanish jarayonini tezlashtiradi. Mazkur nomlar yordamida matnning tez va oson tushunilishi ta'minlanadi.

2. Tashqi aloqadorlikni hosil qiladi. Ya'ni matnlar orasidagi aloqadorlikni ta'minlaydi. Boshqa bir matnga muayyan maqsad bilan ishora qiladi. Turli vositalar orqali kitobxon ongiga mustahkam o'rnashgan, uning lisoniy xotirasiga joylashgan „tanish nomlar“ asarning ko'pqatlamliligini ta'minlaydi. Badiiy matndagi bu hodisani M. Yo'ldoshev intertekstuallik termini ostida tadqiq qilgan.

3. Ichki aloqadorlikni hosil qiladi. Ya'ni badiiy matndagi qahramonlarning biror-bir xususiyati bilan „tanish nom” o'rtasida aloqadorlik o'rnatiladi. Bunda o'xshatish, qiyoslash, farqlash, sharhlash yoki eslatish maqsad qilingan bo'ladi.

4. Badiiy matnda onomastik repertuari kengaytiradi.

5. Badiiy ifoda vositalari tarkibida kelib, ta'sirchanlikni oshiradi.

Demak, lingvomadaniy yondashuvga ko'ra presedent nom deb hisoblangan onomastik birliklar badiiy matnda allyuziv nom, onomastik metafora, o'xshatish etaloni kabi funksional-stilistik vazifalarda qo'llanishi mumkin.

Onomastik birliklar allyuziv nom sifatida qo'llanganda yozuvchining badiiy maqsadi birmuncha aniq ifodalanadi. „Tarixiy voqealar, mashhur asarlar, diniy, mifologik rivoyatlar va shu kabi keng ommaga ma'lum bo'lgan narsalarga ishora qilish yoki ulardagi turg'un tushunchalarni badiiy matnga olib kirish”<sup>52</sup> usuliga allyuziya deyiladi.

Adabiyotshunoslik terminlari lug'atida esa allyuziyaga shunday ta'rif berilgan: „Allyuziya (lot. allusio-ishora, hazil)- barchaga tanish deb hisoblangan real siyosiy, maishiy, tarixiy yoki adabiy faktga ishora qilishga asoslangan stilistik usul. Mohiyatan sharq mumtoz she'riyatida keng qo'llanilgan talmeh san'atiga yaqin keladi. Farqli jihati shundaki, talmehda ko'proq mashhur tarixiy va badiiy faktlarga ishora qilinsa, allyuziyada ijodkor o'z zamonasidagi siyosiy, maishiy yoki badiiy faktlarga ishora qilishi mumkin. Ya'ni allyuziyada ishora obyektining doirasi kengroq”<sup>53</sup>.

D. Xudoyberganova allyuziv nomga shunday ta'rif bergan: „Allyuziv matnda allyuziv ko'rsatkichi vazifasida keluvchi onomastik birlik, assotsiativ tarzda idrok qilinuvchi presedent matnning tarkibiy qismi; ikki madaniy-semiotik maydonni tutashtiruvchi vosita. Tilshunos allyuziv nomni allyuziv ko'rsatkichlarning bir turi sifatida ta'kidlaydi hamda allyuziv ko'rsatkichning, odatda, mashhur

---

<sup>52</sup> Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. - Toshkent: Fan, 2008. - b. 124

<sup>53</sup> Qurbonov D, Mamajonov Z, Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. - Toshkent. Akademiya nashri, 2013. - b. 27.

nomlar,jumlalar yoki matnlar,ya'ni presedent birliklardan iborat bo'lishini yozadi<sup>54</sup>.

Tilshunoslikda allyuziv nomlar muammosi bo'yicha shu kungacha ko'plab tadqiqotlar yaratilgan.Shunday bo'lsa-da,bu masala hamon tadqiqotchilar diqqatini o'ziga jalb qilib kelmoqda.O'zbek tilshunosligida ham matn tilshunosligi, xususan,intertekstuallik borasida ilgari surilgan yangicha qarashlar bu muammoning dolzarb bo'lishiga sabab bo'ldi.Tilshunos M.Yo'ldoshev badiiy matnni tadqiq etishda bu tushunchani chetlab o'tishning imkoni yo'qligini bir qator misollar bilan yoritib bergan.<sup>55</sup>

O'zbek adabiyotini kuzatish shundan dalolat beradiki,allyuziv nomlar,ayniqsa she'riyatda muhim o'rinni egallaydi.She'riy matnda qo'llangan allyuziv nomlar tahlili muayyan ijodkor asarlari onomastik ko'lami haqida yaxlit tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Masalan,E.Vohidov o'z she'rlarida shoirlar nomi hamda badiiy asar personajlari nomlaridan turli badiiy maqsadlarda mahorat bilan foydalanganligini ko'rish mumkin.Quyidagi misolda Layli va Majnun allyuziv nomlariga ishora qilish orqali lirik qahramon o'zining oshiqlik holatini bo'rttirib ifodalashga erishgan:

Jahonda ikki dilbarning Biri sensan biri Laylo,

Jahonda ikki oshiqning Biri menman,biri Majnun.

(E.Vohidov „Rubobim tori ikkidur’’).

Shoirning „O'zbekiston’’faxriyasida esa qo'shimcha boshqa matnlarga,ya'ni ijtimoiy-tarixiy fakt mazmuniga ishora qiluvchi To'maris, Kayxusrav, Spitamen, Maroqand, Shiroq, Iskandar, Beruniy, Farg'oniy, Saydona, Ho'qand, Kampanella, Maskov,Osiyoxon kabi;filologik fakt mazmuniga.ishora.qiluvchi.Alisher,.Alpomish,.Go'ro'g'li,.Barchin,.Zebuniso,. Nodirabegim,Dilshodi Barno, Anbar Otin,Pushkin kabi nomlar ushbu matnning g'oyaviy-badiiy mazmunini nihoyatda boyitgan.Asarni o'qir ekansiz,unda qo'llangan har bir nom bilan bog'liq axborotlar ko'z o'ngingizda gavdalanaveradi.

<sup>54</sup> Xudoyberganova D.Lingvokulturalogiya terminlarining qisqacha izohli lug'ati.-Toshkent.Turonzaminziyo,2015.- b.19.

<sup>55</sup> Yuldashev M.Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi:Filol.fan....d-ri diss.-Toshkent,2009.-b.126-150.

Ta'kidlash kerakki, ijodkorning muayyan allyuziv nomga murojaat qilishi uning dunyoqarashi, nomlar haqidagi bilimi bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, R.Parfi she'riyatida o'zbek xalqi uchun mashhur bo'lgan nomlar bilan bir qatorda g'arbga xos allyuziv nomlarni ko'p kuzatish mumkin.

Men kimnidir kutaman mahzun, Men kimgadir yig'lamog'im shart.

Tanholik-la turibman o'zim, Mening bilan birgina zulmat.

Yiroqlarda ingranar List ham, Qulog'imga bo'zlaydi Furqat.

Huzurimga chiqmas bir odam, Men baribir, kutgayman faqat.

Ushbu parchadagi ingranar so'zi antroponimning kodini topishga ishora qilyapti. List bastakor, musiqashunos bo'lgani uchun uning musiqalari lirik qahramonning kayfiyatiga uyg'un holda mahzun eshivilishi nazarda tutilgan.

Allyuziv nomlar qatnashgan matnlarda katta hajmli axborotni ixcham shaklda ifodalash imkoniyati mavjud bo'ladi.

Precedent nomlarning badiiy matndagi navbatdagi vazifasi onomastik metafora bo'lib kelishidir. Onomastik birliklar ham badiiy matnda metaforik ma'noda qo'llanishi mumkin. Metaforaning bu tip birliklar bilan namoyon bo'lishi onomastik metafora deb yuritiladi va muayyan onomastik birlikni nom bo'lmagan boshqa so'z yoki so'z birikmasi ma'nosida qo'llashga asoslanadi. Masalan, Hotam antroponimini o'ta saxovatli odam ma'nosida qo'llash o'zbek badiiy nutqida an'anaga aylangan bo'lib, quyidagi misolda buni ko'rish mumkin:

Och yotganga yemak ber...

Hech bo'lmasa ko'mak ber...

Suyab elt bir Hotamga. (A. Obidjon „Och yotganga yemak ber“).

Tilshunoslikda onomastik birliklarning ko'chma ma'noda qo'llanishiga alohida e'tibor berilgan<sup>56</sup> hamda ushbu hodisa antonomasiya<sup>57</sup>, onomastik metafora, deonimlashish<sup>58</sup> terminlari ostida o'rganilgan. Ko'chma ma'noda

<sup>56</sup> Ермолович Д.И. Имена собственные на стыке языков и культур. -М.2001. -с.200.

<sup>57</sup> Нахимова Е.А. Кўрсатилган асар. -б.87.

<sup>58</sup> Ермолович Д.И. Кўрсатилган асар. -б.64

qo‘llangan onomastik birliklar esa konnotonim<sup>59</sup>, ramziy nomlar<sup>60</sup> terminlari bilan atalgan.

Tilshunoslikda nomlarni turdosh ot yoki boshqa turkumdagi so‘zlar ma’nosida qo‘llash hodisasiga turlicha yondashuvlar mavjud. Ma’lumki, bu hodisa yuzaga kelganda, muayyan onomastik birlik semantik jihatdan turdosh otga yaqinlashadi. Shu o‘rinda onomastik birlikning ko‘chma ma’noda qo‘llanishida uning qaysi jihati asos bo‘ladi, degan savol bo‘lishi tabiiy.

Onomastik birliklarning leksik ma’no ifodalashi yoki ifodalamasligi tilshunoslikda bahsli muammolardan biridir. Jumladan, bu hodisaga daniyalik tilshunos X. Serensen shunday munosabat bildiradi: „Onimlar ham leksik ma’noga ega, faqat bu ma’no turdosh otlarga xos bo‘lgan ma’nodan farq qiladi“<sup>61</sup>. Tilshunos E.A. Naximova ham ushbu fikrni ma’qullaydi va bu borada uch xil yondashuv borligini yozadi: 1) entsiklopedik ma’no kontsepsiyasi (unga ko‘ra onimlar lug‘aviy ma’noga ega emas, qomusiy ma’noga ega); 2) referentiv ma’no kontsepsiyasi (unga ko‘ra onimlar yagona referentni ifodalaydi. Masalan, yozuvchi so‘zi yagona bo‘lmagan referentlarni anglatrsa, Mixail Sholoxov aniq referentni bildiradi); 3) „poluantroponimlar“ kontsepsiyasi (unga ko‘ra, ayrim antroponimlar ham atoqli ot ham turdosh ot vazifasida kela oladi). E.A. Naximova onimlarning bu tarzda qo‘llanishi tilshunoslikda antonomasiya, logoepistema, matn reministentsiyasi kabi terminlar bilan atalganligini ta’kidlab, nomlarning ko‘chma ma’noda qo‘llanishini onomastik metafora termini bilan atash ma’qulligini aytadi<sup>62</sup>.

Bizningcha, ushbu terminlar ostida o‘rganiluvchi hodisalarni chegaralab olish kerak. Ya’ni, umuman olganda, onomastik birliklarning ko‘chma ma’noda qo‘llanishini antonomasiya termini ostida o‘rganish ma’qul.

Antonomasiya aslida keng tushuncha bo‘lib, Axmanova O.S. onomastik birliklar bilan aloqador quyidagi hodisalarni antonomasiyaning turlari sifatida

---

<sup>59</sup> Ермолович Д.И. Кўрсатилган асар.-б.65.

<sup>60</sup> Воронцов Р.И. Кўрсатилган асар.-б.10

<sup>61</sup> Нахимова Е.А. Прецедентные онимы в современной российской массовой коммуникации. Теория и методика когнитивно-дискурсивного исследования.-Екатеринбург.2011.-с.76.

<sup>62</sup> Нахимова Е.А. Кўрсатилган асар.-б.81.

izohlaydi:antroponimlarni metaforik ma'noda qo'llashga asoslangan ko'chim.Masalan,rashkchi ma'nosini ifodalash uchun Otello antroponimini qo'llash;shaxsni tavsifiy usulda ifodalovchi nutqiy figura .Masalan,Napoleonni Austerlits g'olibi nomi bilan ifodalash mumkin.

K.R.Kagramonov esa antonomasiyani ham nomlash jarayoni ham uning mahsuli sifatida tushunadi va o'z qonuniyatiga ega bo'lgan uslubiy figura ekanligini ta'kidlaydi.Tilshunos turdosh ot ma'nosini ifodalayotgan atoqli otning predmetlik ma'nosi qay darajada ifodalanishiga qarab antonomasiyaning ikki turini farqlaydi;til antonomasiyasi va nutq antonomasiyasi<sup>63</sup>. Uning ta'kidlashicha, atoqli ot turdosh ot ma'nosini ifodalab kelganda,predmetli-mantiqiy ma'no birinchi o'ringa,nomlash ikkinchi o'ringa o'tadi. Haqiqatan, Hotam antroponimi saxiy ma'nosini ifodalab kelganda,nomlash susayadi. Nominativ ma'noda qo'llanganda esa,aniq bir shaxs yoki obyektini ifodalaydi.

Adabiyotlarda berilgan ta'riflarni umumlashtirib,antonomasiyani quyidagicha ta'riflaymiz:Antonomasiya-muayyan onomastik birlikni turdosh ot sifatida qo'llash bo'lib,uning quyidagi turlari bor:1)adabiy asar qahramoni yoki tarixda mashhur bo'lgan ba'zi shaxslarni anglatish uchun onomastik birlikni metaforik ma'noda qo'llash;2)muayyan turdosh ot yoki boshqa so'z turkumini ifodalash maqsadida u bilan aloqador onomastik birlikni qo'llash.

O'zbek tilida onomastik birliklarni ko'chma ma'noda qo'llanishini quyidagicha guruhlab o'rganish mumkin:

Onomastik birlikni muayyan ma'no kasb etishiga ko'ra metaforik qo'llash.Masalan,zukko yoki sodda odam ma'nosini ifodalash uchun Afandi: go'zal,iboli ayol tushunchasini ifodalash uchun Kumush: sadoqatli yorni ifodalashda Barchin antroponimlarini qo'llash.Quyida mard,qahramon,yurtini sevuvchi yigitlar ma'nosiga timsol sifatida Alpomish antroponimi qo'llangan: Alpomishlar tug'ilajak,Baxting boshga gultoj endi, O'zbekmomo (M.Yusuf.,,O'zbekmomo'').

---

<sup>63</sup> Каграманов К.Р.Явление антономасии в языкеи речи-Выпуск521.2007.-с.122.



Onomastik birlikni aloqadorlik asosida ma'no kasb etishiga ko'ra metonimik qo'llash. Quyidagi misolda muayyan shaxsga tegishli bo'lgan narsa onomastik birlik orqali ifodalangan:

O'qidim Gerodot tarixing ming bor,

Forobiy, Danteni takror va takror. (A. Oripov „Muallim“).

Biz yuqoridagi hodisalarning birinchisini onomastik metafora termini ostida o'rganish lozim deb hisoblaymiz. Ayrim ishlarda onomastik metafora antonomasiyaning bir turi ekanligi qayd etiladi.

Aytish joizki, odatdagi metaforada metaforik ma'no bir tushunchani anglatrsa, onomastik metaforada nom ishora qilgan ma'no hajmi kengroq bo'ladi. Quyidagi misolda, oqila, go'zal, o'ta iboli qizlar ma'nosiga timsol sifatida Kumush onomastik birligi qo'llangan: Siz bugungi Kumushlar, ayol zotin sarasi, Sochingizni to abad ishq qo'llari tarasin, Otabeklar topsa ham qovushmoqlik chorasini, Oson emas ekan-ku abad asramoq suymoq, Oson ekan-ku axir Sizni boy berib qo'ymoq (H. Xudoyberdiyeva, „Kumushning o'limiga“). Bunday holatda ongimizdagi go'zallik mezonlari Kumush bilan bog'liq holda kengayadi.

Ayrim tadqiqotchilar metonimik nomlarni ham onomastik metafora termini ostida o'rganish lozim degan qarashni ilgari suradi. Bizningcha, bu kabi nomlarni onomastik metonimiya termini ostida alohida o'rganish ma'qul chunki keyingi tadqiqotlarda onomastik birliklarning metafora va metonimiya asosida ma'no ko'chishi alohida hodisalar ekani e'tirof etilgan. Onomastik metonimiyada ko'pincha muayyan asarlar nomi o'rnida ularning mualliflari nomi tilga olinadi. Masalan:

O'zbek Navoiyni o'qimay qo'ysa,

Oltin boshning kalla bo'lgani shuldir.

Bedil qolib, Demyan Bedniyni suysa,

Qora sochning malla bo'lgani shuldir.

(E. Vohidov, „O'zbek Navoiyni o'qimay qo'ysa“).

Keltirilgan parchada Navoiy, Bedil, Demyan Bedniy antroponimlari onomastik metonimiyani yuzaga keltirgan. Ta'kidlash kerakki, shoirning nom

tanlashdagi mahorati ayni paytda lingvopoetik jihatdan ham qimmatlidir. Birinchidan, Bedil va Bedniy poetonimlarida fonetik hodisa bo'lgan tovushlar ohangdorligi yuzaga kelgan bo'lsa, ikkinchidan, Sharqning ulkan va zabardast shoiri sifatida qadrlanuvchi, o'ziga xos faylasufona qarashlar sohibi bo'lgan Bedil nomi bilan o'zga millat shoiri bo'lgan Bedniy nomlarini o'zaro zidlash orqali ijodkorning subyektiv munosabati ham ifodalangan.

Onomastik birliklarning ko'chma ma'noda qo'llanishida, xususan, onomastik metaforada leksik qurshovning o'рни muhimdir. Ayniqsa, bunday nomlarning sifatlovchi bilan birga qo'llanishi ko'p uchraydigan hodisa sifatida qayd etiladi<sup>64</sup>. Onomastik metaforalarning bu xususiyati badiiy matnda emotsional munosabatni yuzaga keltiruvchi vositalardan biridir. Tadqiqotchilar presedent nomlarning ko'plik shaklida qo'llanishi (bo'lajak Lomonosovlar), ko'rsatish olmoshi (sening Julyettang), muayyan atributlar onomastik metaforalarning yuzaga kelishida vosita rolini bajarishini qayd etadilar<sup>65</sup>.

O'zbek tilshunosligida bu masala maxsus o'rganilmagan bo'lib, ayrim tadqiqotlarda mavzuga aloqador fikrlarni uchratish mumkin. Jumladan, N. Husanov mumtoz adabiyotdagi antroponimlarning ramziy ma'noda qo'llanishi haqida to'xtab, quyidagilarni ko'chma ma'noda ishlatilgan antroponimlar sifatida o'rganadi: Farhod-ko'ngil ma'nosida, Yusufi husn, Yusufi soniy-mashuqa ma'nosida, Bahman-qahraton qish ma'nosida, Hurmuz-kun chiqish ma'nosida kabi. Olim antroponimlarning turli narsa va hodisalar ma'nosida qo'llanishini an'anaviy istiora termini bilan nomlagan<sup>66</sup>.

Onomastik birliklarning funksional-stilistik xususiyati ularning „so'zlovchi“ nom vazifasida kelganida yaqqol ko'rinadi.

Badiiy matnda so'zlovchi nomlar semantikasi bilan badiiy asar qahramonining turli xususiyatlariga ishora qiladi. „So'zlovchi“ nomlar badiiy matnda nomlar vositasida hosil qilingan ekspressivlik va emotsionallik mohiyatini

---

<sup>64</sup> Ермолович Д.И. Кўрсатилган асар. б-74.

<sup>65</sup> Воронцов Р.И. Кўрсатилган асар. б-9.

<sup>66</sup> Husanov N.O'zbek antroponimlari tarixi. -Toshkent.Navro'z.2014-.145.

anglash,shuningdek,ijodkorning ijobiy va salbiy subyektiv munosabatini ifodalash hamda komik effekt hosil qilish vazifasini bajaradi.

O'zbek badiiy matnlarida ham „so'zlovchi" nomlar ko'p uchraydi. A.Qodiriyning Kumush,Oybekning Yo'lchi,G'.G'ulomning Yodgor kabi qahramonlari nomlarini bunga misol bo'ladi.Ba'zan bu tarzda „so'zlovchi" nom orqali asarning umumiy g'oyasiga ham ishora qilinadi. A.Qahhorning „Asror bobo" „Qobil bobo" hikoyalaridagi Asror bobo,Qobil bobo ismlarini shunday „so'zlovchi" nomlar sirasiga kiritish mumkin. Shuningdek, „Mushtum" jurnalidagi Xudbiddin, G'amxo'rov, Yepto'y masov, Said Ahmad hajviyalaridagi Farmonbibi, Sotti E.A'zam asarlaridagi Xon Man Men, MenXon Man, Otashqalb shoir, Alvastixonim Mafkuraxonim jasur shoir kabi nomlar ham, „so'zlovchi" nom hisoblanadi.

Tarixiy shaxslar nomi bilan qahramonlarni atash.Bunda badiiy asar personaji nomi atayin muayyan tarixiy shaxs nomi bilan ataladi va tarixiy shaxs nomi o'zi haqidagi faktlarga ishora qilib, „so'zlab turadi". Masalan, O.Muxtorning „Tepalikdagi xaroba" romanida qo'llangan nomlarning ba'zilari intertekstuallik doirasida matnning badiiyatini boyitgan.Asarning bosh qahramoni Buxoro tarixiga qiziqqan 30 yoshdagi yigit bo'lib,yozuvchi uni Mirzo G'olib ismi bilan ataydi.Asar davomida Hindiston iftixoriga aylangan tarixiy shaxs shoir Mirzo G'olib hayotidagi ayrim voqealarga,ijodiga murojaat qilinadi va bevosita shu nomli qahramon bilan tarixiy shaxs bo'lgan Mirzo G'olibga xos fazilatlar qiyoslanadi: Bir kuni Lutfulla-O'z isming ma'nosini bilasanmi?!-deb so'ragan edi kulimsirab.- O'ylamagan ekanman.Bilmadim... -----Mirzo ---ziyoli degani, Ziyo!G'olib-g'alaba!Dunyoda ziyoz,ezgulik,g'alabasi... ----Ey!Meni juda ko'tarib yubording-ku!... -----To'g'ri.Lekin.Hindistonda,Bayronga zamondosh buyuk bir inson o'tgan.Mirzo G'olib!Senga shu odamning ismini qo'yishgan... o'sha kungacha u o'z ismiga e'tibor ham bermagan edi.Buyuk salafini bilmas edi!Lutfulladan uyalib,kitob izlashga tushdi.Topdi.....Bobur Mirzo „Hind sori otlandim" degan bir zamonda,ota-bobolari shuhratli sarkardalar Turondan Hindistonga borib qolgan --- Mirzo G'olib, ----Agra shahrida tug'ilgan edi.U o'zi-o'ziga: „Sen qutlug' Turon

yeridan ;sening qoning-turk qoni!”-der; ko‘pincha o‘zini „sodda turk” deb atar edi. Biroq u -mutafakkir, faylasuf, shoir, nosir!-urdu va fors tillarida kitoblar yozgan; butun Hindistonning iftixoriga aylangan edi! (O. Muxtor, „Tepalikdagi xaroba”) Asar qahramoni mirzo G‘olib qiyin vaziyatga tushib qolganida shoir Mirzo G‘olibning irodasi har qanday vaziyatda ham bukilmagani haqida o‘qiganlarini eslaydi va bu unga kuch beradi. Asarda bu jarayon quyidagicha yoritilgan: Shu pallada hayotga, butun tiriklik olamiga uni bog‘lab turgan birgina nozik, ingichka ip- Mirzo G‘olib, degan ism edi! U emas, ism o‘lim bilan olishmoqda; behol, sarnigun bo‘lishdan uni saqlamoqda edi... (O. Muxtor, „Tepalikdagi xaroba”).

Ta’kidlash kerakki, to‘qima nomlar bilan ifodalovchi „so‘zlovchi” nomlar ko‘proq funksional-stilistik qimmatga ega bo‘ladi. Chunki bu nomlar ijodkorning individual mahoratini ham belgilaydi. Shuningdek kontekstdan alohida holatda ham qahramonning ismi orqali uning xarakteri haqida muayyan axborotimiz bo‘ladi. Mashhur „Kelinlar qo‘zg‘oloni” komediyasidagi Sotti ismini shunday „so‘zlovchi nom deyishimiz mumkin. Sotti ismi o‘quvchilarda „sotmoq” fe‘li bilan bog‘liq bo‘lib, ovsinlari sirini qaynonasiga sotmoq, yetkazib, „sotadigan ayol” tabiatiga ishora qiladi. Sottixon asarda „so‘zlovchi” nom vazifasida kelib, yumoristik effektini yuzaga keltirgan. Bashorat. Suykalmay joning chiqsin! (hali ham yelkasida dasturxon bilan turgan Nigoraga). Mana shu Sottixon ovsiningizga ehtiyot bo‘ling. Aslo sir ayta ko‘rmang, darrov sotadi. Ishonmagin do‘stingga, somon tiqar po‘stingga.

Muhayyo. Shpion bu o‘lgur shpion (Said Ahmad „Kelinlar qo‘zg‘oloni”)

Umuman olganda, onomastik birliklarning o‘ziga xos „so‘zlovchi” nom bo‘la olish maqomiga ega bo‘lishi bu birliklarni keng qamrovli tadqiq qilish kerakligidan dalolat beradi.

Onomastik birliklarning yana bir vazifasi ular vositasida badiiy san’atlar va uslubiy figuralar hosil qilishdir. Onomastik birliklar badiiy matnda tajnis, talmeh, tashbeh, ishtiyoq, nido badiiy san’atlarini va bir qator uslubiy figuralarni yuzaga keltirishda muhim vositalardan biri sifatida ishtirok etadi. Masalan,

E.Vohidovning „O‘zbekim” qasidasida Furqat, Muqimiy, Afg‘on kabi onomastik birliklarning o‘z apellyativ asoslari (furqat, muqimiy, afg‘on) bilan yonma-yon qo‘llash usulidan foydalanilgan. Bunda bir xil shakldagi ikki so‘z ikki xil tushunchani ifodalaydi. Furqat-shoir taxallusi, furqat-ayriliq, hijron. Natijada tajnis san’atining o‘ziga xos ko‘rinishi hosil bo‘lgan. Yig‘ladi furqatda Furqat Ham muqimlikda Muqimiy, Nolishingdan Hindu Afg‘on Qildi afg‘on ,o‘zbekim. (E.Vohidov, „O‘zbekim”).

Quyidagi parchada esa Qo‘fi Qof tazod yaratish maqsadida qo‘llangan. Mazkur nomning so‘zda qilday so‘zi bilan zidlantirilishi Qo‘fi Qofcha birikmasi ma’nosining ekspressivligini oshirib, badiiy mazmun ta’sirchanligini ta’minlagan. Qilday qumursqaning ham Qo‘fi Qofcha yuki bor (B.Fazliddin, „Dardsizlik”).

Ko‘rinadiki, onomastik birliklar badiiy matn onomastik metafora, allyuziv nom, „so‘zlovchi” kabi funksional-stilistik vazifalarda keladi. Shuningdek, bu birliklar ijodkorning subyektiv munosabatini ifodalab keluvchi, matn shakllantiruvchi vosita hamdir. Nomlarning yuqoridagi vazifalari badiiy matnda boshqa funksional-stilistik vositalar qatorida muhim ahamiyat kasb etadi.

#### Bob bo‘yicha xulosalar

1. Badiiy matnda ijodkorning badiiy niyatini yoritishga xizmat qilgan onomastik birliklarga nisbatan funksional-stilistik terminini qo‘llash maqsadga muvofiq.

2. Badiiy matnning onomastik ko‘lami asarning struktural-semantik yaxlitligiga xizmat qilish barobarida biror janr tabiatiga xos effektни yaratishda, matnning serqatlamliligini ta’minlashda, xalqning milliy mentaliteti, o‘ziga xos madaniyatini ko‘rsatishda, ijodkorning badiiy tafakkur darajasini namoyon qilishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli badiiy asar tili tadqiqida badiiy matnning onomastik ko‘lami muammosini ham o‘rganish lozim. Bunda muayyan ijodkor asarlarining yoki alohida bir asarning onomastik ko‘lamini tadqiq etish ham maqsadga muvofiqdir.

3. Onomastik birliklar badiiy matnda onomastik metafora, allyuziv nom,, ,so‘zlovchi’ nom kabi funksional-stilistik vazifalarda keladi, shuningdek, ijodkorning subyektiv munosabatini ifodalaydi.

4. Onomastik birliklar badiiy matnda nafaqat nominativ vazifa bajaradi, balki turli ramziy ma’nolarni ham ifodalaydi.

5. Onomastik birliklar, asosan, she’riy matnlarda turli badiiy san’atlar va uslubiy figuralarni yuzaga keltirishda muhim omillardan biri sifatida ishtirok etadi.

## **II. Bob BADIY MATNDA QO‘LLANGAN ANTROPONIMLARNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI**

### **2.1. Badiiy matnda antroponimlar lingvistik vosita sifatida**

Onomastikaning eng yirik guruhi antroponimlardir.,, Biror tildagi antroponimlar majmui antroponimiya (xuddi zoonimiya, toponimiya kabi) deb yuritiladi<sup>67</sup>.

Antroponimlar xalqning tarixi va ma’naviyatini o‘zida birlashtirgan leksik birliklar hisoblangani uchun ularning ma’naviy, yuzaga kelishi, rivojlanishi, qo‘llanish xususiyatlarini tadqiq etish muhim ilmiy ahamiyatga ega. E. Begmatov antroponimik birliklarni quyidagi tartibda ko‘rsatadi:

1. Ismlar-konkret shaxsga berilgan ismlar.

2. Laqablar.

3. Taxalluslar.

4. O‘zbeklarda shaxsni nomlashning o‘tmishda mavjud bo‘lgan ba’zi shakllari („qizi” ,,o‘g‘li”) yordamida nomlash.

5. Shaxsni uning ismiga o‘tmish ajdodlari nomini tiklash orqali atashning arabcha shakllari („ibn” ,,binni”).

6. O‘tgan asrning 20-30-yillarida rasmiy ravishda majburan qabul qildirilgan Ruscha familiya va ota ismlari’’<sup>68</sup>.

Badiiy matnda antroponimlar onomastikaning alohida o‘rganilishi lozim bo‘lgan qismidir. Bu til birliklarini funksional-stilistik yondashuv asosida o‘rganish

---

<sup>67</sup> Begmatov E. O‘zbek tili antroponimikasi. - Toshkent. Fan, 2013. - b. 11.

<sup>68</sup> Begmatov E. Ko‘rsatilgan asar. - b. 11.

orqali ijodkorning badiiy niyati va asar qatlamlaridagi yashirin ma'nolar teranroq anglanadi. Antroponimlarni o'rganishdagi zarur jihat ularning matn qatlamlari bilan aloqadorligi masalasidir. Bunda nom bilan bog'liq mazmuni bir qarashda tushunib bo'lmaydi. Asar qahramonining xarakteri yoritilib borgan sari antroponimga yuklatilgan ma'no ham oydinlashadi. Badiiy matnda antroponimlar qahramonni nomlashning turli shakllari (ism, laqab, taxallus), tarixiy shaxs nomlari, mifologik nomlar shaklida uchraydi.

Ta'kidlash kerakki, o'zbek tilshunosligida antroponimlarning funksional-stilistik xususiyatlariga bag'ishlangan alohida tadqiqotlar mavjud emas. Mazkur masala bo'yicha bayon qilingan ba'zi mulohazalarnigina uchratish mumkin. Masalan, Sh. Abdurahmonov antroponimlarni kulgi qo'zg'atuvchi vosita sifatida tadqiq etgan. M. Yo'ldoshev esa A. Qodiriy, A. Qahhor, S. Ahmad hajviy asarlaridagi bir qator asar qahramonlarining ismlariga alohida diqqat qaratadi. Olim maqsadli qo'llangan bunday nomlarda yozuvchining kinoyasi aniq sezilib turganini, bunday antroponimlar badiiy matnda poetik jihatdan kuchli aktuallashgan bo'lishini ta'kidlaydi. Umuman, M. Yo'ldoshev to'g'ri ta'kidlaganidek, „mahoratli yozuvchilar qahramonning hayoti, taqdiri va ruhiyati bilan uning ismi o'rtasida mushtaraklik o'rnatish orqali betakror obrazlar yaratishga harakat qiladilar. Bu, albatta, yozuvchining funksional-stilistik mahorati sanaladi va bunday holatlarni tadqiq etish orqali yozuvchining poetik olamiga kirib borish mumkin.

B. O'rinboyevning „G'afur G'ulom asarlari lingvopoetikasi“ nomli monografiyasida shoir ijodida poetik leksikologiya, poetik nutq jilolari, shoirning ko'chim va stilistik figuralardan foydalanish mahorati kabi masalalar tahlil qilingan<sup>69</sup>. Tilshunos atoqli shoirning quyidagi misralarini tahlil qilar ekan, „shoir atoqli otlarni takrorlash orqali tasvirga jonlilik, o'ynoqilik baxsh etgandir“ - deydi:

Birdaniga radio,  
Olamga berar xabar,  
Toshxon, Olmos, Mukambar  
Olimjon, Ravshan, Qambar,

---

<sup>69</sup> O'rinboyev B. G'afur G'ulom asarlarining lingvopoetikasi. - Samarqand, 2008. - b. 49-50.

Bayramda o‘ynab bersin.

G‘.G‘ulom asarlaridagi Ko‘kan, Yodgor, Shum bola kabi qahramonlar ismida muayyan badiiy niyat bor. Masalan, „Ko‘kan” poemasida shoir Ko‘kan ismli qahramonning o‘z mustaqil fikriga ega emasligini ifodalash uchun ism sifatida ko‘kan so‘zidan foydalangan. Tilimizda ushbu so‘z „Ko‘kanlash”-hayvonning oyog‘ini tushovlash, ko‘kan(ko‘gan)shevada. Qo‘zi-uloqlar qator qilib bog‘lab qo‘yiladigan (qo‘y-echkini sog‘ishda ishlatiladigan) ilmoqli arqon; chilvir<sup>70</sup> kabi ma’nolarda qo‘llangan. Poemada qahramonning erki o‘z qo‘lida emasligi uning ismi zamirida aks etgan.

N. Husanovning „O‘zbek antroponimlari tarixi”<sup>71</sup> monografiyasida mumtoz adabiy yodgorliklardagi antroponimlarning uslubiy va ma’noviy o‘ziga xosliklari tadqiq qilingan. Tilshunos badiiy tasvirning asosiy vositalaridan biri bo‘lgan antroponimlar badiiy asarlarda boshqa so‘zlar kabi ekspressiv-uslubiy vazifaga xoslanishi mumkinligini qayd etadi. N. Husanov tarixiy yodgorliklardagi antroponimlarni uslubiy xususiyatiga ko‘ra ikki guruhga bo‘lib o‘rganishni tavsiya etadi. 1. Nominativ vazifada keluvchi antroponimlar. 2. Ma’lum bir kontekstda o‘ziga xos qo‘shimcha ma’noni, ekspressiv-emotsional ma’noni oluvchi antroponimlar.

Ta’kidlash kerakki, olim nazmiy asardagi ismning leksik mazmuni bilan muallifning badiiy niyati orasida muntazam aloqa topishga harakat qiladi. XV asr adabiy yodgorliklaridagi shaxs ismlarining o‘ziga xos uslubiy-estetik vazifa bajarishini bir necha o‘rinda ta’kidlagan. N. Husanov fikrlarini shunday xulosalaydi: „Yodgorliklardagi ismlar qahramonning tashqi qiyofasiga, kasbiga, ruhiyatiga, millatiga, asarning umumiy g‘oyasiga va joyiga mutanosib ravishda izchillik bilan tanlangan”<sup>72</sup>.

Badiiy matnda qo‘llangan antroponimlar ijodkorning individual mahoratini ham ko‘rsatuvchi vositadir. Ba’zi adiblar qo‘llagan nomlar adib yashagan makonga ishora qilib turishi bilan xarakterlanadi. Ayrim ijodkorlar esa asarlarida turkiy nomlarni ko‘p qo‘llaydi. Aytish mumkinki, Sh. Xolmirzayev, T. Murod asarlarida

<sup>70</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati. -Toshkent: O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi, 2006. -2-jild. -b.443.

<sup>71</sup> Husanov N. O‘zbek antroponimlari tarixi. -Toshkent: Navro‘z, 2014.

<sup>72</sup> Husanov N. Ko‘rsatilgan kitob. -b.105.



qo‘llangan nomlar Surxon vohasi bo‘y-bastini ko‘rsatib turadi. „T.Murod qissalarida tasvirlangan odamlarga boshqa xalq libosini kiydiringiz ham, o‘zbekligi bilinib turadi”, -degan edi S.Ahmad. Ha, adib asarlarida qahramonlarning xulq-atvoridan tortib ismigacha milliylik singdirilgan. Tog‘ay Murod ijodida quyidagi milliy ism, laqablarni uchratamiz: Bo‘ri polvon, Shukur polvon, Ermat polvon, Ro‘zi polvon, To‘ra oqsoqol, Oyxol momo, Mamat bobo, Momoqiz, Juma polvon, Tilovberdi polvon, Shoir polvon („Yulduzlar mangu yonadi”), Qulmat polvon, Xol polvon, Ziyodulla kal, Xumor xola, Qobil polvon, Jo‘ra bobo („Ot kishnagan oqshom”), Esonboy, Qoplon, Norgul, Qurbonboy, Oymomo, Abdiboy, Mengsulton, Bo‘riboy, Olloyor, Qimmat.momo, Xoldon.momo („Oydinda yurgan odamlar”) Xumor.momo, Ortiqboy, Xolliyev, Orziqulov, Qulmatcho‘loq, Xoliqboy („Momo yer qo‘shig‘i”).

Antroponimlarni leksik vosita nuqtai nazaridan tahlil qilganda, badiiy matnda ulardan quyidagi maqsadlarda foydalaniladi: 1) allyuziv nom sifatida matnni shakllantirish hamda intertekstuallikni ta‘minlash; 2) komik effekt hosil qilish; 3) salbiy yoki ijobiy bahoni ekspressiv ifodalash; 4) kuchli his-hayajonni ifodalash; 5) ritorik figura tarkibida kelib tasvirni tiniqlashtirish; 6) turli ma‘nodagi murojaatni ifodalash.

1. Allyuziv nom sifatida matnni shakllantirish hamda intertekstuallikni ta‘minlash. Antroponimlar allyuziya bo‘lib kelganda, yozuvchining badiiy maqsadi birmuncha aniq ifodalanadi. Mutaxassislar allyuziv haqida gapirar ekan, „uning kitobxon uchun avvaldan ma‘lum bo‘lishi lozimligi, agar keltirilgan allyuziya kitobxon uchun notanish bo‘lsa, kutilgan effektga erishilmasligi, bu esa aytilmoqchi bo‘lgan fikrning o‘z ta‘sir kuchini yo‘qotishi mumkinligini”<sup>73</sup> ta‘kidlashadi.

Allyuziya sifatida taqdim qilingan onomastik birlik ko‘pchilik uchun tanish va tushunarli bo‘lishi lozim.

Na oltin, na javohir edim,

Armonli bir yosh shoir edim.

---

<sup>73</sup> Yo‘ldoshev M. Yadgarov Q. Badiiy matnning lisoniy tahlili fanidan amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish. - Toshkent, 2007. b.51.

Zuhro bo‘lmasang ham chiroyda,

Men ishqingda naq Tohir edim.(Mirtemir,,Surat’’).

Parchadagi Zuhro,Tohir ismlari haqida ongimizda muayyan tasavvur bor.Ya’ni folklordagi tanish nomlardan Mirtemir o‘xshatish vositasi sifatida o‘rinli foydalangan.Bu o‘z navbatida intertekstuallikni ham yuzga keltirgan, ya’ni lisoniy xotiramizda boshqa matn-,,Tohir va Zuhro’’ertagi mazmuni qayta tiklanadi.

Quyidagi misolda qo‘llangan antroponim allyuziya talabiga uncha mos kelmagani bois ko‘zlangan maqsadga to‘la erishilgan deb aytish qiyin.Biroq matnning intertekstualligini,demakki,matnning ko‘pqatlamliligini ta’minlashi shubhasiz:-E,qanaqa bolasan,o‘zi,,tur-tur’’deysan,qayoqqa turaman,pastelniy rejimda bo‘lsam,yo seniki Isoning hayqirig‘idanmi:,,Lazer, tur’’degan bilan jon bitadimi,uka,siz Iso payg‘ambar va men Lazer emasman(S.Vafo,,Devor’’).

Kasalxonada yotgan A‘zamjon ismli bemor tilidan aytilgan bu jumla g‘arb adabiyotidan boxabar yoxud xristianlik dinidan,Iso payg‘ambar bilan bog‘liq rivoyatlardan xabardor bo‘lgan kitobxon uchun mashhur matn sifatida ma’lum qimmatga ega.Ammo bunday tayyorgarligi bo‘lmagan kitobxon uchun bu jumla tushunarsiz tuyulishi tabiiy.Hatto hikoya qahramonining tabiatiga va nutqiga unchalik „yopishmagan’’bu jumla sun‘iyligi bilan g‘ashni keltiradi.Agar bu jumla qo‘llanishidan oldin qahramon nutqida Iso va Lazer haqidagi rivoyatga aloqador gap aytilganda yoki uning tabiatida,faoliyati tasvirida bunga kichik bir ishora bo‘lganida ham mazkur jumla o‘zini oqlar edi.Biroq hikoyada dabdurustdan aytilgan bu allyuziya o‘zini oqlamagan.Xristianlik dini bilan bog‘liq rivoyatlarda va g‘arb diniy-badiiy adabiyotlarida ko‘p tilga olinadigan Iso payg‘ambarning Lazarni tiriltirgani haqidagi naql shu tarzda mazkur hikoyada „yopishmagan gajak’’dek bo‘lib qolgan.Shu ma’noda shifokor va bemor orasidagi muloqotga mazkur jumlaning tirkalishi ham o‘rinsizdir.

2.komik effekt hosil qilish.Antropoetonimlar badiiy matnda alohida komik effektini hosil qilish uchun ham ishlatiladi.Masalan,O‘.Hoshimovning,,Ikki karra ikki-besh’’qissasida Muhabbat ismi ham ana shunday estetik yuk olgan:

...Muxochka!-dedi ovozini pasaytiribroq(mehmonxonadagi navbatchi ayol).-Yetti yuz o'n to'qqizning egasi keldi.-Keyin muloyim jilmayib,Rais buvadan so'radi: Bir o'zingizmi?

...Ko'pchilik!-Rais buva Shodivoy ikkalamizga imo qildi.Kadrlarni olib keldik.o'qishga kirmoqchi..

Pastdagi xotin „Muxa”deganida pashshadek qiltiriq ayolni ko'z oldinga keltiruvdim.„Muxa”si shunaqa bo'lsa,fili qanaqa bo'larkin?

„Muxa”ona ,ya'niMuhabbat opa stol tortmasini sharaq-shuruq qilib ochdi-yu bandiga tuxumdek yog'och ilgich osilgan kalitni olib,yo'l boshladi. Tavba! Shundoq semiz xotin shunaqangi zipillab yurishini birinchi ko'rishim (O'.Hoshimov „Ikki karra ikki-besh”).

Yozuvchi bu o'rinda Muhabbat antroponimining ma'nosidan emas,balki uni qisqartirib aytganda,rus tilidagi„muxa”so'ziga to'g'ri kelib,uning pashsha ma'nosidan foydalangani va bu orqali kuchli kulgi qo'zg'ata olganini ko'ramiz.

Komik effekt hosil qilishning turli-tuman yo'llari bor.Antropoetonimlardan foydalanib kulgili holatni hosil qilish amaliyoti xalq og'zaki ijodining ajralmas an'analaridan biridir.Xalq orasida Abdulla qiziq nomi bilan mashhur bo'lgan oltiariqlik Abdulla Akbarov repertuarida ham bu mavzuga oid misollar talaygina.Uning„Ko'rdim”deb nomlangan hangomasida ana shunday holatni kuzatish mumkin.„*Bir akaxonimizning to'qqizta qizi bor ekan.O'g'il ko'rsam yetkazganiga ismini,„Ko'rdim”qo'yaman deb o'ziga o'zi so'z beribdi.Har qalay,niyatiga yetibdi.Akaxonimiz so'zida turib,unga „Ko'rdim”deb ism qo'yishibdi.Yillar o'tibdi.Bir kuni ularning uyiga mehmon kelib qolibdi.Oshni endi yeymiz deb turishgan ekan,chiroq o'chib qolibdi.Mehmon paytdan foydalanib go'shtning kattarog'ini oldiga tortib,endi yeyman deb tursa,mezbon sham olib kelgin demoqchi bo'lib:-Ko'rdim!-deb o'g'lini chaqiribdi.Mehmon bir sakrab tushibdi.O'g'lidan darak bo'lavermagach,akamiz ovozini balandlatib yana:-Ko'rdim!-deya baqiribdi.Mehmon o'g'lining ismini bilmas ekanmi, shoshib-*

*pishib:-Aka,baqiravermang odamni sharmanda qilib,bir marta ko'rdim, deganingizdayoq go'shtni joyiga qo'yib qo'rganman!-dermish<sup>74</sup>.*

3.Salbiy yoki ijobiy bahoni ekspressiv ifodalash.Antroponimlar badiiy matnda salbiy yoki ijobiy bahoni ekspressiv ifodalash maqsadida ham ishlatiladi. Masalan,Abdulla Qahhorning „Kimyogar“<sup>75</sup> nomli feletonida Yovg'och Olloberganov ismli qahramon bor.Ism va familiya anglatgan ma'nodan qahramonning ma'naviy dunyosi ochiq sezilib turadi.Ya'ni qahramonning olg'irligidan yov,dushman ham qochishga joy topolmay qoladi.Omborga kelgan kishidan ham,keltirilgan ashyodan ham ..Olloberganov degan ta'magirlik qilaveradi.Shu ma'noda,qahramonning ismi va familiyasi uning fe'l-atvoridan darak berib turish bilan birga muallifning mazkur qahramonga nisbatan salbiy munosabatini ham ifodalaydi:Omborchi sifatida Yovg'och Olloberganov ham,boshqa kimyogarlarday,oltin yasaydi.Biroq oltinni u,boshqa kimyogarlarning singari g'ishtdan,toshdan,guvalakdan emas,insonlik izzati nafsidan,insonlik sha'ni va insoniylik hamiyatidan yasaydi.

Quyidagi parchada qahramonning familiyasi mazmuniga mos tamagirligi, olg'irligi ifodalanadi.Oltmishdan oshgan chol halol mehnati evaziga tegadigan donni olish uchun omborga keldi.Olloberganov o'ziga xos chaqqonlik bilan donni darrov tortib beradi.Sofdil chol,omborchi hozir tarozidan urib uch kilogram m kam berganligini xayoliga ham keltirmay,donni ko'tarib ketaveradi.

Kimyogar vijdonini uch kilogramm donga aylantirdi(A.Qahhor,„Kimyogar“).

Yoki O.Hayitovning „Xudbiddinning hurmati qani?“hajviyasida tilimizdagi mavjud onomastik qolip asosida yasalgan Xudbiddin ismi salbiy subyektiv baho ifodalash uchun qo'llangan. Otim Xudbiddin bo'lgani bilan o'zim xudbin.emasman.Hurmatimni.yo'qotib.qo'rganman,.xolos.Bilmayman, qachon, qayerda.yo'qota qoldimakan u qurmag'urni(„Mushtum“dan).Bu o'rinda

---

<sup>74</sup> Abdulla qiziq nima deydi?-Toshkent:Sharq,2006.-b.5-6.

<sup>75</sup> Abdulla Qahhor. Asarlar.Besh jildli.-To'rtinchi jild.-Toshkent:G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti,1988.-b.316-318.

Xudbiddin to‘qima ismi xudbin so‘zi ma’nosiga ishora qilyapti. Ushbu so‘z shartli antroponimga aylanganda, tovush o‘zgarishiga uchragan, ya’ni n tovushi tushgan.

4. Kuchli his-hayajon ifodalash.,,Xonim....O‘chirilgan....Azizim Roza Hasan... O‘chirilgan...Bibirobiya!(...)Xotin!Men sening oldingda, farzandlarimning oldida behad aybdorman.O‘ylab ko‘rsam umrim xatolarga to‘la ekan.Shu xatolar...adashuvlar orqasida,bilib-bilmay,sizlarning ham hayotingizni barbod qilibman(E.A’zam,,Jannat o‘zi qaydadir’’).Parchada Bibirobiyada qoladi!Va shu oxirgi ismda qahramonning kuchli hayajoni yashiringan.Chunki haqiqatni tugal tushunib yetgan paytda har qanday inson ortiqcha balandparvoqlikdan, tantanavorlikdan yiroqda bo‘ladi.

5.Ritorik figura tarkibida kelib,tasvirni tiniqlashtirish.Antroponimlar badiiy nutqda ritorik figuralar tarkibida kelib,tasvirni tiniqlashtirish yoki matnni shakllantiruvchi vosita bo‘lib kelishi mumkin.Masalan,quyidagi parchada shoir umumtildagi antroponimni uning apellyativi bilan birga qo‘llash orqali takrorga asoslangan ohangdorlikni kuchaytirishga erishilgan.

Yetar, shuncha yurdim yashirib,

Endi yurak sirim ochaman.

Yotog‘iga oydinda kirib,

Oydiyoyini olib qochaman.

(B.Iso,,Oydiyoyini olib qochaman’’).

6.Turli ma’nodagi murojaatni ifodalash.Antroponimlar murojaat birligi sifatida badiiy matnda ishtirok etganda,ismning fonetik qobig‘ida turli o‘zgarishlar yuz berishi kuzatiladi.Bu holar adresat va adresant o‘rtasidagi subyektiv munosabat darajasiga ko‘ra namoyon bo‘ladi.Oradagi munosabatning darajasi antroponimning ifoda shaklini ham belgilaydi.N.Ahmedova bunday murojaat birliklarining,asosan,norasmiy doiralarda,ko‘proq kundalik-maishiy hayot jarayonida faol qo‘llanishini aytadi hamda ,,tengdosh tinglovchi’’ presuppozitsiyasiga ega murojaat birliklarida atoqli otlar turlicha qisqargan shaklda uchrashishni ta’kidlaydi.Quyidagi misolda asli Nuriddin tarzida ifoda qilinishi kerak bo‘lgan ism Nuri-i,Nurijon tarzidagi murojaat birligiga aylangan va aka-uka

orasidagi samimiy munosabat ifodalangan: *Aka izillab chor tarafga yugura ketdi. „Nuri-i, Nurijon, ayt, qayerdasan? Mayli, eshakka sen minib borasan, o‘tinni o‘zim ko‘tarib ketaman-ayt, qayerdasan? Qayerdasan, Nurijon, ayt, chiqa qol, endi sirayam urmayman, Nurijon... (E.A‘zam „Javob‘‘)*.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, umumtilda qo‘llangan har qanday kishining ismi, taxallusi, laqabi antroponim termini ostida umumlashtiriladi. Biroq badiiy matnda alohida maqsad bilan qo‘llangan kishi nomlari antroponim atamasi bilan ifodalanadi. Bunday birliklar funksional-stilistik jihatdan muayyan vazifalarni bajarishga moslashgan. Shuningdek, antroponimlar semantik va struktural jihatdan quyidagi xususiyatlarga ega bo‘ladi: 1. Antroponimlar alohida ma‘no bilan to‘yingan bo‘ladi, yozuvchilar qahramon ismiga uning xatti-harakati, fe‘l-atvori bilan bog‘liq axborotlarni joylaydi. 2. Badiiy asardagi antroponimlar real nomlardan keskin farqlanadi. Ulardagi informativlik badiiyat bilan aloqador bo‘lib, ular yozuvchi tafakkurining hosilasidir. Antroponimik birliklarga kiruvchi ism, ota ismi, familiya, laqab hamda taxalluslarning stilistik-funksional xususiyatini ta’kidlashimiz mumkin. Ma’lumki, ismlar o‘zbek onomastikasining antroponimiya ko‘lamiga mansub bo‘lib, ular kishilarni nomlashda eng ko‘p qo‘llangan birlikdir. Ismlar-odamlarga yoshlik paytida beriluvchi atoqli ot bo‘lib, ular insonning kundalik faoliyati, hayoti uchun g‘oyatda muhimdir.

Bu borada o‘zbek ismlarining juda katta boyligini bir joyga to‘plab, ma’nosini izohlab berish orqali kelajak avlodga arzigulik ma’naviy meros qoldirgan tilshunos olim E. Begmatovning quyidagi fikrlarini esga olish joiz: „Ismlarning asosiy lisoniy-kommunikativ vazifasi har bir shaxsni yakka lab atash orqali uni boshqa shaxslardan farqlash, ajratishga xizmat qilishdan iborat. E’tibor berib qaralsa, hech bir ism shunchaki tanlanib bolaga qo‘yilmaydi. Har qanday ism berilishi zamirida ota-onalarning biror maqsad, orzu-umidlari, farzandining sog‘ligi, kelajagi, istiqbolini ko‘zlagan ezgu niyatlar yotadi. Mana shu niyatlar bolaga ism tanlash va berish uchun asos vazifasini o‘taydi<sup>76</sup>.

---

<sup>76</sup> Begmatov E. Ismlarning sirli olami. - Toshkent, 2014-b.3.

Badiiy matnda ham farzandga ism tanlash masalalari bilan bog'liq jihatlardan turli badiiy maqsadlarda foydalaniladi. X. Sultonov qalamiga mansub „Nuqta“ hikoyasining umumiy g'oya va mazmunida, asosan, ana shu masala yotadi.

Asarda Bobur Mirzoning farzandlariga ism tanlashdagi fazilatlari badiiylik bilan uyg'unlashgan holda go'zal tasvirlangan. Bu orqali Boburning „dilbar shaxs“ ekanligi yana bir bor namoyon bo'ladi. Otalikning farzi ayni-farzandga munosib ism qo'yimoq, deydi. U hamisha baqadri imkon bunga intiladi; ikkinchi o'g'li tug'ilganda unga umrlik baxt tilab, **Komron** nomini beradi; uchinchi o'g'il dunyoga kelganda unga askarlik shijoatini tiladi - **Mirzo Askariy** deb bag'riga bosdi; Hindni olganda haq taolo to'rtinchi o'g'ilni ato etdi - shavkatli kunlarimdan yodgor deb **Hindol** deb ism qo'ydi; tangri bir onadan uch qizni unga karomat qildi - gul bargi monand nozik zebolarga chaman gullarning xush ismlarini ravo ko'rdi - **Gulrangbegim, Gulchehrabegim, Gulbadanbegim**, deb suydi. Mana endi yaratgan unga nabira quvonchini baxsh etibdi (X. Sultonov, „Nuqta“).

Boburning birinchi nevarasi (Humoyunning farzandi) tug'ilganida, uning xayolida farzandlariga nom qo'yish bilan bog'liq xotiralar uyg'unadi. Yozuvchi bu jarayonni ham tarixiy fakt, ham badiiylik bilan uyg'unlikda chiroyli tasvirlagan. Hikoyada tanlanadigan ismning mazmuniga e'tibor qaratish bilan birga uning yozilishi, shakli, talaffuzi ham muhimligini ta'kidlanadi, aks holda ismni yanglish talaffuz qilganda qo'pol ma'nolar kelib chiqishi Boburning nevarasiga qo'yilgan ism misolida yoritiladi.

Badiiy matndagi g'oyani yoritishda maqsadli tanlangan ismlar va ularning ma'nosi yozuvchi uchun muhim vositalarfdan biridir. O'zbek adabiyotida ismlardan jozibadorlik, milliy harorat, ma'no hosil qilishga mohir ijodkorlar talaygina. Misol sifatida Yo'lchi, Unsin, Tantiboyvachcha (Oybek); Asror bobo, Qobil bobo, Sotiboldi, Semiznazarov, Yovqoch Olloberganov (A. Qahhor); Farmonbibi, Sotti, kokilaxon, Tijoratxon, Oldi Sottiyev (S. Ahmad); Mo'mintoy, To'ychiboy (O'. Hoshimov); Shum bola, Yodgor (G'. G'ulom); Ozod, G'arib (I. Sulton) kabi qahramonlar nomini keltirish mumkin.

Badiiy matnda qo‘llanuvchi antroponimlarni mohiyatiga ko‘ra quyidagilarga ajratish o‘rinlidir: 1. Odatdagi(real) antroponimlar. 2. To‘qima antroponimlar. 3. Tarixiy antroponimlar. 4. Mifologik antroponimlar. 5. Bir asardan ikkinchi asarga ko‘chib o‘tuvchi nomlar (an’anaviy nomlar).

Real nomlar deganda, odatda, tildagi mavjud ismlar fondiga kiruvchi nomlar tushuniladi. Badiiy matnda barcha real nomlar ham poetik ahamiyatga ega deb bo‘lmaydi. Real nomlarning apellyativ ma’nosiga ishora qilish orqali ijodkor muayyan badiiy niyatini ifodalaydi. Masalan, A. Qahorning „Qobil bobo“ asaridagi Qobil ismi orqali ismning apellyativ asosi bo‘lgan qobil so‘zning „so‘zga kiradigan yuvosh, mo‘min“ ma’nosi orqali qahramonning xarakteriga xatti-harakatiga ishora qilingan: *Ellikboshi o‘g‘ri teshgan yerni yana bir ko‘rdi. Qobil bobo qo‘l qovushtirib, uning ketidan yurar va yig‘lar edi. Kechqurun Qobil bobo aminning oldiga boradigan bo‘ldi. Quruq qoshiq og‘iz yirtadi. Aminga qancha pul olib borsa bo‘ladi?... Qobil bobo hamyonini qoqishtirib, borini ellikboshiga berdi, yana qancha duo qildi.*

Badiiy matnda ijodkor ba’zan boshqa millatga xos ismlarni ham atayin kiritadi. O‘zbek adabiyoti namunalarida uchraydigan ayrim Ruscha-baynalmilal ismlar asar g‘oyasini ochishda, xarakterning mohiyatini belgilashda va yozuvchining muayyan maqsadini yoritishda muhim leksik vositalardan biridir.

Shuni ta’kidlash kerakki, she’riy nutqda real nomlardan badiiy maqsadda foydalanish holati ko‘p kuzatiladi. Atoqli shoir E. Vohidov ismdosh shoirlarga atab bir hazil ruboiy yozgan:

Ikki shoir ikki adash, Tursunboy do‘stlarimga bag‘ishlangan hazil ruboiy:

*Tursunboy dedi Tursunboy: Adash,*

*Shartmi ikkimizni Tursunboy atash?*

*She’rxon adashmasin, bo‘laylik endi.*

*Sen Tursun Ali, men-Tursunboy Adash*

(E. Vohidov „So‘z latofati“)

She’rda shoir bir asosli so‘zlar (adash, adashmoq, Adash) dan mohirona foydalanib, o‘ziga xos so‘z o‘yinini yuzaga keltirgan. Ma’lumki, bu holat fanda



badiiy san'at turlaridan biri bo'lgan ishtiyoq termini bilan nomlanadi. Shuningdek, mazkur to'rtlikda adash turdosh oti Adash atoqli otiga qofiya qilinib, tajnis san'ati ham yaratilgan. Bu esa badiiy san'at hosil qilishda antroponimlarning ham salmoqli o'rni borligini ko'rsatadi.

Badiiy matnda to'qima antroponimlar jiddiy ekspressiv vazifa bajarib keladi. Mahoratli ijodkor o'z badiiy niyatiga muvofiq turli nomlarni yaratadi. Masalan, A. Qodiriyning „O'tkan kunlar“ romanida Kumushning Otabekka yozgan maktubida Kumush nomi o'rnida Tuproqbibi nomi qo'llanadi. Tuproqbibi tilimizdagi mavjud onomastik qolip asosida (Kumushbibi, Oyshabibi kabi ismlarga xos tarzda) yozuvchi tomonidan maqsadli qo'llangan nom bo'lib, ayni paytda tuhmat bilan uyushtirilgan maktubni o'qigach, Kumushbibida kechgan ichki holatni tasvirlashda muhim leksik qiymat kasb etgan. Yozuvchi o'zini Otabek tomonidan aldangan, xo'rlangan deb o'ylab, qadr-qiymati yer-tuproq bilan bitta bo'lgan holda his etgan Kumushbibining ichki holatini ko'rsatib berishini Tuproqbibi antroponimiga yuklagan. Bu o'rinda *Kumushbibi va Tuproqbibi* antroponimlari apellyativ asoslari (kumush va tuproq) o'rtasidagi ma'noviy ziddlik ham Kumushning o'sha vaqtdagi holatini aniq va ta'sirchan ifodalashga xizmat qilgan... *Tashlandiqlikning so'ng o'tinchi qilib sizdan shuni so'rayman: uchinchi yor topganda, ikkinchi bechoraga ham shunday uyatsizlik qilinmasa edi! Sizga yor, menga uyatsizlikning qurboni bo'lish muborak! Kumush emas, Tuproqbibi yozdim, 17 javzo 1265 yil. Marg'ilon (A. Qodiriy „O'tkan kunlar“).*

A. Qodiriy Otabekning Kumushga mazkur maktubiga yozgan javobida ushbu nom Otabekni befarq qoldirmaganini ta'kidlash maqsadida unga javoban *Oltinbibi* ismini tilga oladi. Ya'ni oltinga tenglashtirish orqali oltinning qiymati kumushdanda yuqori ekani, bu bilan Kumushbibining surati yanada yorqinroq chizilgani o'quvchini rostmana hayratlantiradi: *Umidim yulduzi, orzum chechagi, hayotim tirgagi Kumushimga! Kinoya va achchiqlar bilan to'liq bo'lgan maktubingizni oldim. Xatni yozgan chog'ingizda tamom bir o't Ichida, g'azab dengizida suzganligingiz gavdalanib ko'z o'ngimdan o'tdilar... Siz o'zingizni tuproq bilan tenglashtirmakchi bo'lgansiz, lekin men hozir Kumushga ham qanoatlanmay*

*Oltinbibi deb atamoq fikriga tushdim...Borlig'im muhabbatingiz alangasi bilan tutashgani holda zavjingiz Otabek(A.Qodiriy „O'tkan kunlar'')*

To'qima nomlardan mahorat bilan foydalanish E.A'zam ijodiga ham xosdir.Uning „Otoyining tug'ilgan yili''asarida to'qima nom orqali madh qilmoq so'zining ma'nosiga ishora qilingan:*Madhiddinni hamma maqtaydi, hamma yaxshi ko'radi.Bilaman,uni bugun universitetda maqtaydilar,ertaga ishxonasida,jamoat o'rtasida maqtaydilar.U esa-qayerda,kimga,qaysi sharoitda bo'lmasin hamisha qo'lini ko'ksiga qo'ygancha:„Rahmat,rahmat''deb yo iljayib, yo ishshsayib,yo tirjayib turaveradi;hatto tushida ranjitgan odamidan ham ertasi kelib astoydil uzr so'raydi(E.A'zam „Otoyining tug'ilgan yili'').*

Demak to'qima nomlar,asosan,nomning apellyativ ma'nosiga ishora qilish orqali leksik maqsadda qo'llanadi.

Tarixiy antroponimlarga badiiy matnning ko'pqatlamligini hosil qilishda ko'p murojaat qilinadi.Quyidagi parchada Mo'min Mirzo tarixiy antroponimi leksik qimmat kasb etgan.Ma'lumki,aqlli,ziyrak va jasur Mo'min Mirzo mudhish hiylaning qurboni bo'lgan.Ushbu antroponim,asosan,she'riy matnlarda allyuziv nom sifatida qo'llanib,bundan besh yuz yil avval bo'lib o'tgan mudhish qotillik haqidafi faktga ishora qilib kelgan.A.Oripovning Mo'min Mirzo o'limiga bag'ishlangan she'rida lirik qahramonning besh asr avval yashab o'tgan shahzodaga Mo'min Mirzo ukam,deb murojaat qilishi she'rda teran xayrihohlikni yuzaga keltirib,nido san'atini yaratishda vosita bo'lgan.

Mifologik antroponimlar ham ayni shaklda badiiyatga aloqador bo'lsagina mifopoetonimlik maqomini oladi.Aks holda mifoantroponim sifatida talqin qilinadi.Masalan:

Shuhrat qoldirmoqqa Gerostratdek,

Diana ma'badin yoqmoq shart emas.(G'.G'ulom.,,Vaqt'')

She'rdagi Diana mifopoetonimi matnning onomastik ko'lamini kengaytirmoqda. Shoir tarixda nom qoldirish uchun olamshumul yovuzlik va vayronkorlik shart emasligini ta'kidlab,,ko'plarining baxtiga o'zlikni jamlab,shu ulug' binoga bir g'isht qo'ysak bas''degan ezgu a'molni madh etadi.

Ma'lumki, Gerostrat Efes shahri fuqarosi. U o'z nomini abadiylashtirish maqsadida miloddan avvalgi 356 yilda dunyoning yetti mo'jizasi biri hisoblangan Efesdagi Artemida ibodatxonasiga o't qo'ygan. Gerostrat nomi badiiy asarlarda majoziy ma'noda shuhratparastlik timsoli sifatida faol qo'llaniladi. Diana-mifoantroponimi esa yunon mifologiyasida ayollik, go'zallik va hosildorlik timsoli hisoblanadi. Bundan tashqari Diana nabotot va hayvonot dunyosi homiysi sifatida ham tilga olinadi. Mifologik manbalarda u Artemida nomi bilan ham atalgan. Ya'ni Artemida va Diana antroponimlari bir mabudaning ikki nomidir. She'riy parchada keltirilgan mifoantroponimni qo'llashdan asosiy maqsad she'r zamiridagi yashirin mazmun-yaratuvchanlikka xayrixohlik va vayronkorlikka bo'lgan salbiy munosabatni Diana va Gerostrat timsollari vositasida ifodalashdir. Diananing go'zallik, hosildorlik ma'budasi ekanligi buning dalilidir.

Badiiy matnda muayyan asar qahramonlari nomi mashhur nom sifatida boshqa bir matn tarkibida keladi. Bunda bir asardan boshqa asarga „ko'chib o'tgan nomlar“- „an'anaviy nomlar“ o'ziga matn tarkibida jiddiy leksik vazifa bajaradi. Garchi bu nomlar o'ziga tegishli bo'lgan asar matnida leksik yuk bo'lmasa-da ikkinchi matnda allyuziv nom sifatida ijodkorning muayyan badiiy niyatini yoritishga xizmat qiladi. Mazkur antroponimlar she'rning g'oyaviy-badiiy mazmunini shu bilan birga intertekstuallik asosida ko'pqatlamlikni hosil qilishi bilan ahamiyatlidir. Ko'pqatlamlik badiiy matnning muhim xususiyatlaridan biridir, uni yuzaga chiqaruvchi vositalar ko'p bo'lib, ular ichida antroponimlarning o'rni alohidadir. Quyidagi parchada „Alpomish“ dostoni bosh qahramoni Barchin ismi ham ko'pqatlamlikni hosil qilganini ko'rishimiz mumkin. Ma'lumki, Barchin Alpomishni uzoq yil kutib, yoriga sadoqat bilan yashaydi. Mana shu jihat zamonaviy adabiyotda Barchin antroponimining sadoqatli ayol ramziga aylanishini ta'minlagan. Bunga eng yaxshi misolni quyidagi parchada kuzatish mumkin. Doston syujetiga ko'ra, lirik qahramonning yori uni kutmasdan boshqasi bilan turmush quradi. Barchin ismi „Alpomish“ dostonidagi Barchin bilan bog'liq voqealarga ishora qilib, she'r mazmunining serqatlam bo'lishiga xizmat qilgan:

*Barchinoydek kutganing qani?*

*Zardobu qon yutganing qani,  
Umr yo'lida to yumguncha ko'z,  
Birga-birga ketganing qani? (Mirtemir,,Surat'')*

Mumtoz sharq badiiy tafakkurida ideal oshiq timsoli Majnun qiyofasida tajassum etgan. Ishq-muhabbat mavzulariga bag'ishlangan she'rlarda Majnun ismi eng ko'p kuzatiladigan antroponimlardan hisoblanadi. Uzoqqa bormaylik birgina XX asr o'zbek she'riyati antologiyasiga tanlab olingan she'rlarni ko'zdan kechirganda ham o'nlab she'rda mazkur antroponimdan badiiy vosita sifatida foydalanganligini ko'rishimiz mumkin. Masalan, H.Olimjon mashhur „Xayolimda bo'lding uzun kun...’’ deb nomlangan she'rda shunday qo'llangan:

Topilarmi unda bir chora,  
Agar meni qurshasa junun:  
Bo'lib qolsa sirim oshkora,  
Atasalar nomimni Majnun!(H.Olimjon,,Xayolimda bo'lding uzun kun'')

Matnda antroponim telbalik, behudlik ma'nosidagi junun so'zi bilan aloqalantirilgan va qofiya bo'lib kelgan. Zero Majnun ham etimologik jihatdan telba, Devona, behud ma'nosida ifodalangan.

Shuningdek, Layli va Majnun nomlari she'riy matnlarda o'xshatish etaloni vazifasida kelib, badiiy mazmun ekspressivligi, ta'sirchanligi uchun xizmat qilgan. Jumladan, Usmon Nosir she'rni Layloga, o'zini esa Majnunga o'xshatish orqali she'riyatga bo'lgan mehri beqiyos ekanligini ta'kidlagan bo'lsa, muhabbat mavzusidagi she'rlarida Layli va Majnun nomlari ta'riflanayotgan sevgining behad teranligini yoritishda leksik vosita bo'lgan. Bunda o'zbek lingvomadaniyatida Layli va Majnunning ideal oshiqlik etaloni sifatida qabul qilinganligi ham muayyan ahamiyatga ega. *Saharda qon tupursam mayli. Men-Majnunman, she'rim, sen-Layli!(U.Nosir., Yana she'rimga'')*. *Oshiqda ishq bo'lsa mukammal, mashuqani etarmish shaydo. Majnunligim anglab u go'zal, Zora sevsa bamisli Laylo(E.Vohidov,,Sho'irga maktub'')*

Ma'lumki, she'r sarlavhasi, epigراف va bag'ishlovlar intertekstuallik hosil qiluvchi leksik vositalardan hisoblanadi. Sarlavha, epigراف va matn o'rtasida o'zaro

bir-birini to'ldiruvchi aloqa mavjud bo'ladi. Ba'zan shoir she'riyatini kimgadir bag'ishlab yozadi va bunda ko'proq sarlavhada yoki bag'ishlov sifatida ismlardan foydalanadi. Bu ism egasi kitobxonga tanish bo'lsa, u bilan bog'liq axborot she'r o'qilmasidan avval kitobxonning tajribalari va tasavvurlarini harakatga keltiradi. Agar notanish bo'lsa, she'rni o'qish davomida u haqda ma'lumotga ega bo'ladi va uning qaysidir qirralarini kashf qiladi.

*Shoir*

*Abdulla Orifga*

*..Hali bo'g'izlarda bo'g'ilar nafas,*

*Eski yaralarda chak-chak tomar qon.*

*Shoirni kuylatgan tabiat emas,*

*Shoirni kuylatgan Hazrati Inson (R. Parfi, „Shoir“).*

She'rning mazkur parchasida Abdulla Oripovning „ya'ni bag'ishlov qaratilgan obyektning portreti yaqqolroq namoyon bo'lgan. Abdulla Oripov she'rlarida „Hazrati Inson“ iborasiga ko'p murojaat qiladi. Mazkur birikma uning nazmiy uslubini ham belgilovchi o'zak ibora holiga kelgan. Rauf Parfi shoirga baho berish jarayonida ana shu leytmotivni topa olgan.

Ayrim asarlar nomi-bibliyonimlar qahramonlar ismidan iborat bo'ladi. Bunda ismdagi badiiy yuk asarning umumiy mazmuniga aloqador bo'ladi. Masalan, Odil Yoqubovning „Muqaddas“ qissasi ham bosh qahramon nomi bilan atalgan va ism anglatgan „muqaddas“lik apellyativ ma'nosi vositasida asarda tasvirlangan muqaddas tuy'ularga ishora qilingan: *Ha, endi aqlim kirgan, endi hamma narsaga tushungan edim. Muhabbat-muqaddas tuyg'u. U soflikni talab etadi. Muqaddas mening o'zimni ham, sevgimni ham tark etib, ko'zimni ochgan edi. Xalqning „Insofli odam oshini yer, insofsiz-boshini“ degan maqolida mujassamlangan hayotning eng ulug' qonunlaridan biri menga o'zining shafqatsiz, lekin adolatli kuchini ko'rsatgan edi. (O. Yoqubov, „Muqaddas“).*

Xullas, badiiy matnda antroponimlardan allyuziv nom sifatida matnni shakllantirish, matnning intertekstualligini ta'minlash, komik effekt hosil qilish, salbiy yoki ijobiy bahoni ekspressiv ifodalash, kuchli his-hayajonni, turli

ma'nodagi murojaatni ifodalash hamda badiiy san'atlarni yuzaga keltirishda foydalaniladi.

## **2.2. Badiiy matnda laqab va taxalluslarning lingvistik xususiyati.**

Tilimizdagi ayrim belgi-xususiyat bildiruvchi so'zlar insonlarning ma'lum bir xatti-harakati, xarakteriga nisbatan qo'llanadi va bunday so'zlar bora-bora laqab maqomiga o'tadi. Xalq tilida kishilarga laqab qo'yish keng tarqalgan.

Tilshunoslikda tadqiqotchilarning laqablar yuzasidan bildirgan turli fikrlarini kuzatish mumkin. Jumladan, M.N. Chobanov laqabga shunday ta'rif beradi: „Laqab-bu norasmiy qo'shimcha nom bo'lib, jamiyatda bir kishini ikkinchisidan farqlashga xizmat qiladi“<sup>77</sup>. E. Begmatov laqabga turli mualliflar bergan izohlarni umumlashtirib, laqabni ta'riflashda bir qator xarakterli xususiyatlarni hisobga olish kerakligini ta'kidlaydi. Jumladan, „laqab o'z egasining biror bir jismoniy fazilati yoki nuqsi, aqliy iste'dodi va kasbi, odamlar orasida o'zini tutishi, biror ijobiy yoki ayritabiiy xarakteriga ishora qiladi; laqab ko'proq xalq tilida, lahja va shevalarda yashaydi, ko'pgina laqablarning motivativ asosi ko'proq tor doirada ma'lum bo'ladi (oilalari, kichik jamoa doirasi, laqabni qo'ygan shaxs va boshqalar) kabi fikrlari asoslidir“<sup>78</sup>.

Laqablar funksional xususiyatiga ko'ra kishi ismlariga yaqin turadi va ko'p holda ular bilan birga qo'llanadi. Laqablar hozirgi davrdagidek familiya va ota ismlar udum bo'lmagan davrlarda o'sha nomlar o'rnini bosgan. Bir xil ismli shaxslarni o'zaro farqlashda laqablar, ayniqsa, qo'l kelgan. Avvallari nominativ vazifa bajarган laqablar asta-sekin uslubiy vazifa bajarishga o'ta boshlagan.

O'zbek tilshunosligida laqablarning leksik-semantik va uslubiy xususiyatlari M. Rashidova tomonidan maxsus tadqiq qilingan<sup>79</sup>. Ushbu tadqiqotda xalq tilidan, folklor va badiiy adabiyot materiallaridan mingdan ortiq laqab to'plangan bo'lib, ularning nominativ tiplari, ma'noviy-mavzuiy guruhlari aniqlangan hamda laqablarning morfologik tarkibi, yasalish usullari o'rganilgan. Shuningdek, monografiyada laqablarning uslubiy xususiyatlari haqida ham alohida bob

<sup>77</sup> Чобанов М.Н. Основы азербайджанской антропонимика. Автореф. дисс. канд. филол. наук. - Баку, 1992. - с. 28.

<sup>78</sup> Begmatov E. O'zbek tili antroponimikasi. - Toshkent, 2013. - b. 55-56

<sup>79</sup> Rashidova M. O'zbek tilida laqablarning leksik-semantik va uslubiy xususiyatlari. - Toshkent: Iqtisod-moliya, 2008

bo‘lib,ularning badiiy til uslubidagi o‘rni yoritilgan.Tadqiqotchi bir qator asarlardagi uslubiy xususiyatga ega laqablarni to‘plab,ular orqali ifodalangan badiiy niyatini tushuntirib beradi.Xususan,S.Siyoyev asarlariga unumli murojaat qilib,Handalakxon,Kampirshunos,Klara-Qo‘ng‘iroq kabi laqablarni tahlil qiladi.

Badiiy matnda laqablar asar qahramonlarini u yoki bu tomondan tavsiflash, ularga xos ayrim belgi-xususiyatlarni ifodalash,kitobxon hissiyotiga ta’sir qilishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Badiiy matnda qahramonlarga laqab tanlash ko‘pincha asar janri bilan ham bog‘liq bo‘ladi.Masalan,hajviy yoki detektiv asarda ism-laqab yoki ism o‘rnida kelgan laqablarga ko‘p murojaat qilinadi.Badiiy matnda qahramonning muayyan xarakterini bo‘rttirib tasvirlashda ismsiz laqabning o‘zi,ya’ni ism o‘rnida laqab qo‘llanilishi ko‘p uchraydi.Masalan,E.A’zamning „Pakananing oshiq ko‘ngli” qissasida bosh qahramon Pakana laqabi bilan ataladi,hatto asar davomida uning ismi umuman tilga olinmaydi.Bu esa qahramonning jismoniy nuqsoni bo‘lgan pakanaligi haqida ma’lumot berish bilan birga asar badiiyatini ham shakllantirgan. Muallif aytmoqchi bo‘lgan fikr,ya’ni ko‘ngil odamning bo‘yi pakana yoki aksincha bo‘lishiga qaramaydi.Qahramon bo‘yi pakana bo‘lsa-da, yuksak orzular qanotida parvoz qiladi,ba’zida pakanalik unga pand beradi.Bu kabi mustaqil qo‘llanuvchi laqablar qahramonning xarakteri va xatti-harakatini o‘zida mujassamlashtirib turadi.Shu sababli ular o‘quvchi xayolida obrazli tarzda qoladi.„Shaytanat”romanidagi Chuvrindi, Kesakpolvon, O‘qilon, Bo‘tqa kabi laqablar ham mustaqil qo‘llanuvchi laqablarga misol bo‘ladi.

Quyidagi misolda ism va laqab qahramonning jamiyatdagi o‘rnini ,xususan, avvalgi va keyingi maqomini ta’kidlash hamda xarakterini yoritishga xizmat qilgan.„Qutlug‘ qon”romanidagi Mirzakarimboy obrazining o‘tmishini yoritishda Oybek ,Karim chittak antroponimidan foydalangan. „Chittak” so‘zining denotati Mirzakarimboyning yoshlikdagi xatti-harakatini,xarakterini yoritishda lingvistik vosita bo‘lgan.Yozuvchi oddiy mahalla baqqoli o‘g‘lining Mirzakarimboy darajasiga yetganligini quyidagicha izohlaydi:Mirzakarimboy ilonning yog‘ini yalagan odam edi,hamma boylar kabi,ayyor,mug‘ambir,puxta-pishiq;u yuraksiz

emas, balki har ishda ehtiyotkorlikni ma'qul ko'rar edi. Mana shular orqasida u kamtarin mahalla baqqolining o'g'li Karim chittak-kichkina, lekin harakatlari chaqqon va ildam bo'lganidan, yoshlikda shunday laqabi bor edi, -hozirgi kimsan Mirzakarimboy!.. U Toshkentning eng oldingi boylaridan. Toshkentning eski va yangi shaharlarida to'plab sotuvchi ikki gazlama do'koni, Turkiston o'lkasining turli shaharlarida katta-kichik ayrim do'konlar, Toshkent tevaragidagi turli mavzularda yer-suv va hokazo unga qaraydi. Bundan tashqari, uning katta o'g'li Hakimboyvachcha yirik paxta savdosi bilan mashg'ul... (Oybek, „Qutlug' qon“).

Badiiy til bobida benazir adib Cho'lpon qahramonlariga laqab tanlashida va uni xarakteriga mos holda yorita olishida o'ziga xos uslubi bo'lgan. „Kecha va kunduz“ romani qahramoni Miryoqubning laqabi ijodkor tomonidan juda ohorli tanlangan laqablardan hisoblanadi. Laqab qahramon portretini yaratishda muhim vosita bo'la olgan. Laqab izohi asarda quyidagicha keltirilgan: Do'konida har narsa topiladigan bir baqqolga „farang baqqol“ deb nom qo'ygan keksalar har ishda qo'li bo'lgan bu odamga „Miryoqub epaqa“ laqabini berib, xato qilmanglar. O'zlari ham bu laqabning to'g'riligini osongina isbot qiladilar: ---U aralashmagan ish epaqaga kelmaydi (Cho'lpon, „Kecha va kunduz“).

Ayrim laqablar borki, ular asar davomida qahramonning kasb-koriga ishora qilish bilan birga uning butun xatti-harakatini o'zida aks ham ettira oladi, natijada laqab aniq antroponim darajasiga ko'tarilib, uning yonida qahramonning asl ismi qo'llanishiga hojat qolmaydi. Mirmuhsinning „Me'mor“ romanidagi qahramon nomi shunga misol bo'la oladi. Asli ismi Najmiddin Buxoriy bo'lgan bu inson xalq orasida buyuk imoratlar qurish va go'zalliklar yaratishdan boshqa narsani o'ylamaydigan ijodkor sifatida Me'mor laqabi bilan mashhur bo'ladi. Asarda ushbu antroponimning mohiyati dahshatli bo'ron ko'tarilgan paytda butun fikru zikri xayolida gavdalanayotgan qasrning tarhini chizishda bo'lgan, o'z orzu-rejalari haqida tinimsiz o'ylagan Me'morning o'z kasbiga mehri orqali ochilgan: *Me'mor g'ildirakka yopilgan namat orasidan uzoq-uzoqlarga boqardi; hamma yoq sariq chang, ammo g'arb tomonda falakka ustun bo'lib turgan girdoblar ancha yaqin kelib qolgan edi. Uning ko'zlariga bu „ustun“lar orasidan moviy gumbazlar*



*ko'rinib ketganday bo'ldi.Falakka bo'y cho'zgan allaqanday buyuk qasr ro'parada namoyon bo'lib,Me'morning xayolini olib qochdi.U xayol ichida aravalarni,namatlarni tortqilab,g'uvillayotgan Xalach bo'ronini sezmas,uning ko'z oldida girvat-u bo'ron kashf etgan mislsiz bir qasr turardi (Mirmuhsin.,Me'mor'').*

Laqab qo'llash har bir ijodkorning o'ziga xos mahoratini ham belgilaydi.Bu borada Abdulla Qahhorning,,O'tmishdan ertaklar''asari diqqatga sazovor.

Qissada antroponimik birliklardan ism,ota ismi,va laqablarning qimmatli namunalarini hamda xalqimizga xos ism qo'yish an'alarining o'ziga xos shakllarini kuzatish mumkin:Yosh bir juvon mahalladagi hamma erkaklarga laqab qo'yib,hammaning ichagini uzdi:.,*Madamin-talmov,bu odam hamisha talmovsilar ekan,G'ani-salang,bu odam juda novcha bo'lib,salanglab yurar ekan;Nurmat-tajang,bu odamning hech to'g'ri gapi yo'q,nima desa xunob bo'lib aytar ekan.Juvon bularning qilig'ini ham qilib ko'rsatdi.Juvon dadamga ,,Chinoq''deb laqab qo'ydi,hammadan ham shu kulgi bo'ldi:ayam shuncha yil turib dadamning qulog'i kemtik ekanini ko'rmagan ekan''.*Misoldan ko'rinib turibdiki,qahramonlarning ismi laqab bilan birga qo'llangan.Laqablar hayotiy bo'lgani bois qahramon tavsifi va fe'l-atvoriga mos.Tilimizdagi talmovsiramok fe'lining dovdiramok,o'zini yo'qotib qo'yimok ma'nosi,salanglamok fe'lining u yoqdan bu yoqqa harakatlanmok, borib kelmok;lapanlamok ma'nosi ushbu laqablarning shakllanishiga asos bo'lgan.

Mazkur laqablar xoslangan bo'lib,faqat ma'lum shaxs ismi bilan birga qo'llanadi.Tajang so'zi esa biroz boshqacha.Laqab sifatida ko'p qo'llanadigan bu so'z har qanday serjahl,achchig'i tez kishi uchun ishlatilaveradi. Masalan: Nurilla Narvoniy ,,bir ichak uzdi''qilish uchun eshigiga ,,Hasratxon''deb yozilgan nimqorong'i xonaga Eshpo'lat tajangni olib kiribdi(.,Mushtum''). A.Qodiriyning Toshpo'lat tajangi mazkur laqabli antroponimlarning eng mashhuri hisoblanadi.,,O'tmishdan ertaklar''da ham ayni laqab bilan ataladigan Nurmat tajang,Obid tajang kabi qahramonlar bor.Badiiy matnda qahramonlarning laqabi,odatda,uning xatti-harakati,nutqi,xarakteri orqali izohlanadi.Quyidagi

misolda Obid tajang degan qahramonning o'zini tutishi tasviri berilgan o'rinlar undagi tajanglik belgilarini yanada bo'rttiradi. *Mahallada Obid-tajang degan novcha, ozg'in bir bangi bor edi, shu odam ko'chaning oxiridan hayqirib, xotinini urib-tepib kelayotibdi... Obid-tajang to'xtadi, qizargan ko'zlari bilan dadamga yeb qo'ygudek bo'lib qaradi-yu, chaparosta qilib so'ka ketdi... Belgilangan so'zlar „tajanglik“ ottenkasini kuchli tarzda aks ettirgan.*

Ba'zan badiiy matnda ham salbiy laqabga ega bo'lgan qahramonning suhbatdoshlari tomonidan piching qilinishi, shaxsiyatiga tegilishi kuzatiladi. Masalan, *u duduq, xiylagina duduq bo'lishiga qaramay sho'x, xushchaqchaq, yaxshigina askiya ham qilar ekan. Kulala askiyada yengilganida uning damini qaytarish uchun: „Siz mening otimni aytguningizcha onam yana bitta Kulala tug'adi“ deb shaxsiga tekkanida, Azim xafa bo'lish o'rniga qotib-qotib kuldi. Ushbu misolda Azim duduq degan qahramonning duduqligini raqibi ochiq-oydin aytmasdan, balki, „Siz mening otimni aytguningizcha onam bitta Kulala tug'adi“ jumlasini orqali piching qilishida Azimning duduqligiga ishora qilinadi. Laqabning izohini bu holatda, „qog'ozga o'rab“ aytish haqiqiy qahhorona mahoratdir.*

Quyidagi parchada eskichilik qilib odamlarni tuzatadigan domlaning nomi xalq orasida o'z ismi bilan emas, balki tanasidagi kamchiligini anglatuvchi „pes“lik belgisining laqabga aylanishi va uni evfemik yo'l bilan „*Oq domla*“ deb „hurmat bilan“ atashganini ko'ramiz: *Oq domla peshonasi, ko'z ostlari, bir chakkasi va butun bo'yni oppoq pes, biroq nafasidan jinni shifo topadigan bo'lgani uchun xalq Pesdomla degani og'zi bormay, Oq domla derkan.*

Mazkur asarda qahramonlar jamiyatning turli qatlamlariga mansubligi bilan diqqatga sazovor. Bu holat laqab qo'yishning qay darajada keng tarqalganligi bilan izohlanadi. Xalqimizda xo'ja, maxsum, taqsir kabi unvon va turli kasb-hunar nomlarini laqab sifatida ishlatish odati bor. Bu holat asarda qo'llanganda, uning jonli chiqishini, xalqona urflarga yozuvchi munosabatini belgilaydi: *Dadam qur'on, avrod sotib olib, uning yostig'i ostiga qo'ydi. Bularning hech biri foyda qilmadi-dard tutishini qo'ymadi. Birov dadamga: „Ucharmaxsumga o'qiting, nafasi*

*o'tkir'' ,debdi. Bu odam juda zo'r, duoning kuchi bilan qulf ochadigan azayimxon bo'lib, aytilgan joyga bir zumda yetib borgani uchun, Ucharmaxsum'' deb nom chiqargan ekan. Dadam borib shu azayimxonni olib keldi. Ucharmaxsum haqiqatan yelday kelib uyga kirdi, yuziga doka tutgan ayamdan beriroqqa cho'kkalab, beshiktervatar singari tebranib mayin tovush bilan o'qiy ketdi. (A. Qahhorning, „O'tmishdan ertaklar’’).*

A. Oripovning „Sohibqiron’’ dramasida ham antroponimlar, xususan, laqablar alohida badiiyat bilan qo'llangan o'rinlar juda ko'p. Bu ayniqsa, Temur va Yildirim antroponimlarning apellyativ asosiga ishora qilingan o'rinda yaqqol sezilgan. Quyidagi parchada Temurning nuqtadonligi antroponimga asoslangan ifoda bilan ko'rsatib berilgan:

**Boyazid:**

*Asir bo'lib tursam hamki qoshingda, Temur,  
Zor emasman iltifoting, taassufingga.*

**Temur:**

*Oddiygina bir voqea yuz berdi, axir,  
Sen yildirim laqabli bir qudratli chaqmoq.  
Cho'ng temirga urilding-u chilparchin bo'lding.*

Parchadan anglashilganidek, mazkur suhbat mag'lub hukmdor Yildirim Boyazid va Muzaffar hukmdor Amir Temur orasida bo'lib o'tmoqda. Bu o'rinda Yildirim so'zining ma'nosiga ishora qilish orqali jiddiy ekspressivlik hosil qilingan. Bu so'z „O'zbek tilining izohli lug'ati’’da eskirgan so'z sifatida berilgan bo'lib, uning chaqmoq, yashin ma'nolarini anglatishi mumkin. Shevada ham (Olot, Qorako'l) chaqmoq, momaqaldiraq so'zi o'rnida yildirim so'zi ishlatiladi. Bu o'rinda Amir Temurning nomiga ham ishora qilingan va chaqmoq (yildirim)ning temirga ta'sir o'tkazolmasligi haqidagi mazmundor fikr nomlar orqali ekspressiv tarzda ifodalangan.

„Sohibqiron’’ dramasi onomastik ko'lamning markazida turgan yana bir nom-Amir Temur xufyasining laqabi bo'lmish Buqalamun poetonimidir. Bu laqab unga Temur tomonidan berilgan bo'lib, shu so'zning ma'nosi orqali uning xatti-

harakatiga ishora bor. Bugungi kunda tilimizda mazkur soʻzlarning „oʻzgaruvchan, turlanuvchan, ishonib boʻlmaydigan” kabi koʻchma maʼnolari faollashgan. Shu sabab ushbu qahramon laqabi boshda salbiy maʼno kasb etgandek boʻladi. Biroq asar davomida, qahramonning yuklatilgan vazifani ado etish uchun qiyofa oʻzgartirish mahoratiga nisbatan qoʻllanganligi seziladi. Buqalamun nafaqat qiyofa oʻzgartiradi, balki laqabini ham oʻzgartirib boradi (oldin Itolmas boʻlganligi haqidagi maʼlumot quyidagi parchada keltirilgan). Buqalamun soʻzi lugʻatda shu tarzda izohlangan: „Tovlanuvchan, xameleon; sft. Koʻchma. Oʻzgaruvchan, birdek turmaydigan; rang-barang”<sup>80</sup>. Quyidagi parchadan Buqalamun deb laqab qoʻyilishining sababini anglaymiz:

**Buqalamun:**

*Olampanoh, hozir boʻldim, ne buyurgaysiz?*

**Temur:**

*Yana yumush topshiramen senga ishonib,*

*Zero, har ne mushkulni ham eplab kelgansen.*

*Xufyalarim orasida epchili oʻzing,*

*Xohlasang gar oʻzgaradi butkul qiyofang.*

*Oʻzgaradi va hattoki koʻzingning rangi,*

*Sen bilmagan til ham yoʻqdir yetti iqlimda.*

**Buqalamun**

*Olampanoh, shu sababli laqabimni ham,*

*Juda topib qoʻygandingiz, buqalamun deb,*

*Asl ismim bir zamonlar Itolmas boʻlgan. (A. Oripov, „Sohibqiron”)*

Taʼkidlash kerakki, „Sohibqiron” dramasiidagi onomastik birliklarni toʻliq tadqiq qilish funksional-stilistik xususiyati uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Laqablarni badiiy matn doirasida tadqiq etishda muayyan ijodkor asarlarida qoʻllangan laqablarni guruhlab oʻrganishi ham mumkin. Masalan, E.Aʼzam ijodidagi laqablarni baʼzi xususiyatlariga koʻra quyidagi guruhlarga ajratish mumkin.

---

<sup>80</sup> Oʻzbek tilining izohli lugʻati. - Toshkent: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. - 1-jild. - b.392.

1. Shaxsning gavda tuzilishidagi biror xususiyat, nuqsonga ishora qiluvchi laqablar. Misol uchun, Pakana („pakananing oshiq ko‘ngli”); tepakal, Alvastixonim, Moviyko‘z („Shoirning to‘yi”); Maymun („Guli-guli”).

2. Shaxsning biror xarakterli, o‘ziga xos xatti-harakatiga ishora qiluvchi laqablar. Misollar: Kasaloy, Oshiq G‘arib („Javob”), Janobiddin Savdoyi, Sango-mango domla („Navoiyni o‘qigan bolalar”), „Karosho”, xola („Shovqin”); „Xendi-xox” laqabi nemis tili o‘qituvchisi („Manzuma otin”).

3. Shaxsning kasb-kori, faoliyatiga ishora qiluvchi laqablar. Masalan, Temiryo‘lchi („Shoirning to‘yi”), Salim Qaror („Ta‘ziya”), Sho‘ro bobo („Guli-guli”).

4. Shaxsning salbiy xususiyatini anglatuvchi laqablar. Misollar: Vahshiy Orziqulov-(o‘quvchilarning ustoziga qo‘ygan laqabi) („Guli-guli”).

Tilimizda qo‘llanadiga antroponimlarning bir guruhini taxalluslar tashkil qiladi. Taxalluslar atoqli ot sifatida tilda juda qadimgi davrlardan mavjuddir. Uning dastlabki namunalari Gretsiyada paydo bo‘lgan. Shu sababli ham bir qator slavyan hamda rus tilida qo‘llanuvchi psevdonym so‘zi grekcha psevdonymos- „soxta nom” degan termindan olingan. E. Begmatov „tildagi taxalluslar ikki maqsadda: adabiy-siyosiy hamda tilshunoslik maqsadlarida to‘planishi va o‘rganilishi mumkin”<sup>81</sup>, deb ta’kidlagan. Taxalluslarni lingvistik maqsadda to‘plash va o‘rganish ularni atoqli ot kategoriyalaridan biri sifatida xarakterlab berishni talab etadi.

Olimlarning ta’kidlashicha, tilda taxalluslarning paydo bo‘lishida muayyan ehtiyojlar sabab bo‘lgan. Jumladan, fel’eton va tanqidiy maqola muallifi o‘z ism va familiyasini oshkor qilmaslikka intilishi, bu orqali ma’lum ijtimoiy-siyosiy, adabiy-badiiy qarashlarni kim yozganini sir tutishi, shuningdek, o‘xshash ism, familiyalarning ko‘pligi, ayniqsa, ijodkorlar uchun taxallus tanlashga sabab bo‘lgan<sup>82</sup>. Lug‘atlarda ham taxallusga shu ma’nodagi izohlar berilganligini ko‘rish

---

<sup>81</sup> Begmatov E. O‘zbek tili antroponimikasi. -Toshkent, 2013. -b. 79.

<sup>82</sup> Begmatov E. O‘zbek tili antroponimikasi. -Toshkent, 2013. -b. 79

mumkin: „Taxallus arabcha soʻz boʻlib, xalos boʻlish va qutulish maʼnosini beradi”<sup>83</sup>.

Oʻzbek filologiyasida taxalluslarni toʻplash va oʻrganishga oid tadqiqotlarga oʻzbek matbuoti sahifalaridan 430 ta taxallusni toʻplagan T.Qorayev<sup>84</sup> hamda Yo.Isʼhoqovning<sup>85</sup> maqolalarini, T.Qorayev, R.Vohidovlarning „taxalluslar” kitobini misol qilib koʻrsatish mumkin. Shuningdek, taxalluslar haqidagi baʼzi maʼlumotlar „Nomlar va odamlar”<sup>86</sup>, „Ismingizning maʼnosi nima?”<sup>87</sup> kabi asarlarda uchraydi.

T.Qorayev va R.Vohidovlarning „Taxalluslar” kitobida taxallusning qachon qoʻllana boshlagani haqida fikrlar keltiriladi va turli manbalarga tayanib, arab va eron adabiyotida VII-VIII asrlardan taxallus udum boʻlganligi aytiladi. E.Begmatov aniqlagan maʼlumotlarga koʻra, Sharq xalqlarida „jumladan, oʻzbeklarda taxallus tanlash VII-VIII asrlarga borib taqaladi. Ayniqsa, adiblar oʻzi tugʻilgan joyiga nisbatan berib yasagan taxalluslar buni isbotidir. Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Koshgʻariy, Ahmad Yugnakiy va boshqalar<sup>88</sup>.

Badiiy matnda taxallus ham oʻziga xos leksik vazifa bajarib keladi. Mumtoz adabiyotimizda ittifoq deb ataladigan sheʼriy sanʼat mavjud. Bunda sheʼrda shoir taxallusining ham lugʻaviy maʼnosida, ham taxallus sifatida ishlatilishi nazarda tutiladi. Yaʼni shoir maqtaʼda oʻz taxallusini keltirish barobarida bayt mazmunidan uning lugʻaviy maʼnosi ham faollashgani anglashib turadi<sup>89</sup>. Masalan,

*Muhabbat osmonida goʻzal Choʻlpon edim, doʻstlar,*

*Quyoshning nuriga toqat qilolmay yerga botdim-ku!* (Choʻlpon)

Ushbu misolda shoir taxallusi ayni soʻzning nominativ maʼnosini ham faollashtiradi.

<sup>83</sup> Shamsiyev P. Ibrohimov S. Navoiy asarlari lugʻati. - Toshkent, 1972. - b. 601.

<sup>84</sup> Qorayev T. Adabiy taxalluslar haqida // Oʻzbek tili va adabiyoti. - Toshkent, 1967. - №1 юғию 54-58.

<sup>85</sup> Isʼhoqov Yo. A. Navoiy va Navoiy taxallusli shoirlar // Oʻzbek tili va adabiyoti. - Toshkent, 1968. - №1 - b42-45.

<sup>86</sup> Begmatov E. Nomlar va odamlar. - Toshkent: Fan, 1966

<sup>87</sup> Menajiyev M. va boshq. Ismingizning maʼnosi nima? - Toshkent: Maʼnaviyat, 1968

<sup>88</sup> Begmatov E. Oʻzbek tili antroponimikasi. - Toshkent, 2013. - b. 79.

<sup>89</sup> Qurbonov D. Mamajonov Z. Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lugʻati. - Toshkent: Akademiya nashri, 2013. - b. 125.

Bu usulni atoqli adib Abdulla Qodiriy ijodida ham kuzatish mumkin. Nomlarni o'z badiiy niyatiga muvofiq qo'llash Qodiriyning ilk asarlaridayoq ko'zga tashlanadi. Adib, „Ahvolimiz” „, Millatimga bir qaror” nomli she'rlarida Qodir nomini taxallus, ham turdosh ot sifatida qo'llab, ittifoq san'atini hosil qilgan. *Kelingiz yoshlar, ziyolilar, bu kun g'ayrat qiling, uxlaganlarni agar Qodir esak uyg'otamiz* (A. Qodiriy, „Ahvolimiz”). *Bu kun men so'zladim oz nutq siza to Qodir o'lguncha, Ilohi aylasun ta'sir, shu so'z sizga bekor o'lsun* (A. Qodiriy, „,). Shuningdek, adib taxallus sifatida qo'llagan Julqunboy, Juboy, Mirza julqun, Dumbulnisa, Dumbul, Shakkok, Chichora, Ovsar kabi nomlarda ham muayyan badiiy niyat bo'lgan.

Ba'zan badiiy asar qahramoni nomi muayyan tarixiy shaxs taxallusi bilan atalib, bu bilan uning xarakteriga ishora qilinadi. Quyidagi badiiy matn parchasida shoir tabiat inson bo'lgan Lutfulla ismli qahramonning xarakterini yoritishda ulug' shoir Lutfiy nomiga murojaat qilinadi: *Bir yigit bor edi . Lutfulla! Afg'onistonga yuborishgan edi.. Otasi adabiyot muallimi bo'lgani uchunmi, adabiyotni yaxshi ko'rar, Lutfiy degan shoirga, ayniqsa, ixlosmand edi. Ko'pincha, men Lutfulla ekanligimdan, Lutfiyga qiziqqanmanmi, dadam Lutfiyni eslab menga bu ismni qo'yganmikan, buning ikkisi ham „, lutf” dan kelib chiqqan, deb yurar edi. Lutfiy-taxallus; Lutfiy Kashmiriy, Lutfiy Buxoriy, Lutfiy Mashhadiy, degandek bu taxallusning egasi ko'pligini bila turib, shoir Lutfiy uni tanlagan ekan. O'ziga beparvolikdanmi, atayin ko'zga tashlanmaslik uchunmi, shunday qilgan edi!... Lutfulla shu to'g'rida o'ylagani o'ylagan; bu jumboqni yechgisi kelar edi. Umuman, Lutfulla-ism jinnisi; -har qanday ism odam haqida tasavvur beradi, ism qo'yishni bekorga ota-onaning burchi, deyishmagan, mazmunida gapirib yurar; shunga odatlangan edi... (O. Muxtor, „Tepalikdagi xaroba”). Ushbu matnda qo'llangan Lutfulla ismi shoir Lutfiyga ishora qilingani sababli leksik vosita bajargan. Bu o'rinda Lutfiy taxallusi tilga olinmaganida Lutfulla ismi ham hech qanday leksik ahamiyat kasb etmas edi.*

Yuqoridagi misollar tahlilidan shunday xulosa qilishimiz mumkinki, taxalluslar ham badiiy matnda ittifoq, ishtiyoq, tajnis kabi badiiy

san'atlarni hosil qilish, intertekstuallik, komik effektini yuzaga keltirish asosiy maqsadlardan sanaladi.

### **Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar**

1. Badiiy matnda antroponimlardan quyidagi maqsadlarda foydalaniladi:  
a) allyuziv nom sifatida matni shakllantirish; b) matnning intertekstualligini ta'minlash; c) komik effekt hosil qilish; d) salbiy yoki ijobiy bahoni ekspressiv ifodalash; e) kuchli his-hayajonni ifodalash; g) turli ma'nodagi murojaatni ifodalash; f) badiiy san'atlarni yuzaga keltirish.

2. Badiiy matnda antroponimlar presedent nomlardan tanlanganida ortiqcha izoh talab qilmaydi. Ular mashhurligi sababli kitobxon tomonidan oson tushuniladi. Mazkur antroponimlar intertekstual matn unsuri sifatida asarning ko'pqatlamliligini hosil qiladi.

3. Presedent nomlar o'z manbasiga ko'ra biror xalqning ijtimoiy-tarixiy, madaniy, siyosiy, badiiy sohasiga doir faktlarga mansub bo'ladi. Har bir xalqning xotirasida saqlanuvchi milliy va universal presedent nomlar o'sha xalqning kognitiv va lingvomadaniy xususiyatlarini aks ettiradi.

4. Muayyan bir yozuvchining asarlaridagi onomastik birliklarga e'tibor berilsa, birlashtiruvchi nuqtalar ko'zga tashlanadi.

5. Taxalluslar badiiy matnda turli so'z o'yinlari va badiiy san'atlarni hosil qilish kabi estetik maqsadlar bilan qo'llanadi. Ayniqsa, ittifoq san'atini yuzaga keltirishda taxalluslar muhim ahamiyatga ega.

## **III Bob. BADIY MATNDA TOPONIMLARNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI**

### **3.1. Toponimlarning badiiy matndagi o'rni**

O'zbek tilidagi onomastik birliklarning salmoqli qismini geografik obyektlarga qo'yilgan nomlar-toponimlar tashkil etadi. Toponimlar o'zbek tili lug'at boyligining muhim qismi bo'lib, ularni leksik-semantik, grammatik, etimologik jihatdan tahlil qilish tilshunoslar oldida turgan dolzarb muammolardan biridir. Xususan, toponimlarning badiiy



matndagi o‘rni, ijodkor badiiy niyatini yoritishdagi turli vazifalarini o‘rganish bu birliklarning keng imkoniyatlarini ko‘rsatishga yordam beradi. Toponimlarning badiiy matndagi leksik xususiyatlari yoritilgan ishlar sifatida T.K.Polyakova, I.V.Gruznova, L.A.Dolbunova, E.V.Dyukova kabilarning tadqiqotlarini ko‘rsatish mumkin<sup>90</sup>.

O‘zbek tilshunosligida F.Is‘hoqov, B.Umurqulov, B.Choriyev<sup>91</sup> kabi tilshunoslarning badiiy adabiyotda turli maqsadlar bilan qo‘llanadigan toponimlarning uslubiy xususiyatlariga bag‘ishlangan ishlari e‘lon qilingan.

E.Begmatov toponimlarni lisoniy va ma‘naviy hodisa sifatida tadqiq qilgan edi. Shu o‘rinda toponimlarning badiiy matnda yana bir alohida vazifani, ya‘ni estetik vazifani bajarishini ta‘kidlamoq joiz. Badiiy asarda qo‘llanilgan boshqa onomastik birliklar singari toponimlar ham yozuvchining badiiy niyatiga xizmat qiladi. Badiiy matndagi voqea-hodisalar bilan bog‘liq bunday makonlarning atoqli nomlari haqida tilshunos E.Qilichev shunday deydi: „Badiiy asar tilidagi geografik joy nomlarini o‘rganish, avvalo, toponimika ilmini rivojlantirish uchun muhim bo‘lsa, so‘ngra yozuvchi uslubini belgilash uchun ham ahamiyatlidir“<sup>92</sup>. T.Qurbonov ushbu fikrga qo‘shilgan holda, bu borada tarixiy romanlardan foydalanish o‘rinliroq bo‘lishini, chunki, toponimlarning, deyarli barchasi tarixiy taraqqiyot natijasi hisoblanishini, tarixiy romanlar tilidagi toponimlarni leksik-semantik, grammatik jihatdan tekshirib, etimonini berish hozirgi fanimiz oldidagi muammolardan biri ekanligini ta‘kidlaydi. Darhaqiqat, badiiy matndagi toponimlar, xususan, tarixiy asarlardagi toponimlar tilimizdagi joy nomlarining arxaik shakllari haqida ma‘lumot beradi. Shuni ta‘kidlash kerakki, zamonaviy adabiyotda ham, xususan, she‘riyatda juda ko‘p shaharlar nomi arxaik shaklda qo‘llanilganini kuzatish mumkin. Masalan, Toshkent o‘rnida Shosh, Qo‘qon o‘rnida

---

<sup>90</sup> Полякова Т.К. О поэтической топонимастике в стихах М.В.Исаковского-Смоленск.1973.-с.-104. И.В.Грузново функциональная значимость топонимов в структуре англоязычного поэтического текста.-Саранск.2005.-с.98-101. Долбунова Л.А. Дюкова Е.В. роль топонимов в формировании художественного произведения//Лингвистическое проблемы коммуникации.-Саранск,2002.-с.-96-97.

<sup>91</sup> Is‘hoqov F., Zarbulmasal’’dagi toponimlar haqida//Leksika, stilistika va nutq madaniyati masalalari.-Toshkent,1980.-b.56-70. Umurqulov B. Stilizatsionnye funktsii toponimov v poezii Gafur Gulyama. Materialy po onomastike Uzbekistana.-Dzhizзах,1985.-с.28-29, Choriyev B.G’afur G’ulomning toponimlardan foydalanish mahorati//Onomastika, Uzbekistana,1989.s.-95-96

<sup>92</sup> Qilichev E. Badiiy tasvirning leksik vositalari.-Toshkent:Fan,1982.-b.-62-63.

Ho‘qandi Latif.Nomlarni bu tarzda qo‘llash she’rga yuqori leksik uslub bag‘ishlaydigan vositalardan biridir.

Quyidagi she’riy matnlarda Shosh nomi Toshkent toponimi o‘rnida qo‘llanilib,yuqori leksik uslubni yaratishda vosita bo‘lgan.Shuningdek,Shosh arxaik nomi o‘quvchi ongida Toshkentning qadimiy,uzoq tarixga ega bo‘lgan Shahar ekanligi haqidagi assotsiatsiyani ham yuzaga keltiradi.Matnda shahar nomi qadimiyligini ko‘hna sifatlovchisi yanada bo‘rttirilgan.

*Qish-yoz,kuzi-bahor,tuni-kunidan Ravshan,  
London,Parij,Rumoga.alishmayman.ko‘hna.Shosh.*

*(G‘.G‘ulom,,Toshkent’)*

*Yoki yana bir misol:*

*Tongda salom bilan balqadi quyosh,*

*Unga peshvoz chiqar avval ko‘hna Shosh.(A.Oripov,,Toshkentim’).*

Bu misollarda esa,Shosh arxaik nomi murojaat birligi sifatida qo‘llanib,nido san’atini hosil qilgan.

*Assalom,o‘zbekning bosh shahri,salom,*

*Bosh shahri, qadimiy Shosh shahri,salom.(H.Hotamqulov,,Toshkentga’).*

*Toshkentda zilzila...Bugun...Aprel...Tong...’’*

*Shosh,nahot yelkangga kulfat quladi?*

*(U.Azim,,G‘afur G‘ulom haqida hujjatli fantaziya’’).*

Ma’lumki,Ho‘qandi latif Farg‘ona viloyatidagi Qo‘qon shahrining tarixiy nomi. Ho‘qand(Havokand)nomi,,go‘zal’,,,yoqimli’,,,shamol shahri’,,,baland shahar’’ ma’nolarini bildirishi yozma manbalarda qayd qilingan. Ho‘qand,Ho‘qandi latif nomlari ham she’riy matnlarda yuqori leksik uslubni yaratishda vosita bo‘lgan:

*Bu Ho‘qandi latif.Lol ochun...*

*Dunyo tashlar hayratiy nazar.*

*Qutlagani bu tong erk bilan,*

*Ko‘kdan yerga tushar yulduzlar.(E.Siddiqova,,Qo‘qon’’).*

*Yoki:*

*Bu Qadim shaharlar siri yashirin,  
Bu so'nggi arklarning dimog'i baland.  
Men ham tutmoqchiman yuragim qo'rin,  
Shoirlar ruhidan madad ber, Ho'qand!*

Shuningdek, she'riy matnlarda Sirdaryo va Amudaryo gidronimlarining arxaik shakli bo'lgan Sayxun va Jayxun so'zlarini qo'llash orqali ham mazkur daryolarning qadimiy daryo ekanligi haqidagi assotsatsiyani yuzaga keltirish bilan birga yuqori leksik uslubni yaratishda vosita bo'lgan.

*„Bizlarga suv kerak, katta suv kerak!“*

*Haq esa so'raydi to'lovsiz xunni.*

*Ko'za sindirganning ra'yiga qarab,*

*Oshkora xo'rladik Sayhun, Jayhunni.* (E. Shukur, „Bizlarga suv kerak...“).

O'zbek she'riyatida tinimsiz yosh to'kayotgan oshiqning ikki ko'zini, shuningdek, yorning ikki o'rim sochini Sayhun va Jayhun o'xshatish an'anaga aylangan. Bunda mazkur toponimlar ham yashirin o'xshatish, ham mubolag'a san'ati yuzaga kelishida leksik vosita bo'lgan.

*Nigorim chashmi ikkidur: Biri yag'mo, biri jodu,*

*Bu jodudan ikki ko'zim Biri Sayhun, biri Jayhun.* (E. Vohidov, „Dutorim tori ikkidur“).

T. Qurbonov o'z tadqiqotlarida tarixiy badiiy asar tilidagi toponimlar masalasiga ham to'xtalib, P. Qodirovning „Yulduzli tunlar. Bobur“ va „Humoyun va Akbar. Avlodlar dovoni“ romanlarida qo'llangan toponimlarni tahlil qiladi. Tadqiqotchi ta'kidlaganidek, ishning asosiy masalalaridan biri roman tilida toponimlar qo'llashning badiiy ahamiyatini ochib berish; yozuvchining joy nomlari bilan bog'liq rivoyat yoki afsonalarini, tarixiy voqea-hodisalarni asar qahramonlari tilidan hikoya qilish mahoratini ko'rsatib berishdan iborat<sup>93</sup>.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, xoh u tarixiy asar bo'lsin, xoh boshqa mavzudagi asar undagi toponimlarni ham badiiy matnni shakllantiruvchi vositalardan biri sifatida baholash mumkin.

---

<sup>93</sup> Qurbonov T. Badiiy asarlardagi toponimlarning lingvistik tahlili va izohi masalalari. - Samarqand, 2006. - b. 8

„Humoyun va Akbar” romanida toponimlar faqatgina obyektning ifodalovchi vosita emas, balki, qahramonlar ruhiyatidagi armon, sogʻinch ifodasini yoritib berishga ham xizmat qilgan: Lekin sabr qila-qila Akbar ham ellikdan oshdi. Nahotki Samarqanddagi Amir Temur maqbarasini, Shohizindani, Fargʻona bogʻlarini, Toshkentning Boʻzsuvi biror marta borib koʻrish unga nasib qilmagan boʻlsa? (P. Qodirov, „Humoyun va Akbar”).

Quyidagi oʻrinda esa ikki obyektga xos umumiy jihatlari orqali toponimlar qiyoslanyapti: -Ilohim uzoq umr koʻring, Akbarjon! Kashmirning bodomzorlari, anorzorlari, tutzorlari, mirzateraklari xuddi Fargʻona vodiysini eslatar emish. Men oʻzim-ku, Fargʻona vodiysini koʻrganim yoʻq, lekin Qilichxon Andijoniy Kashmirga kelgandan beri tugʻilgan joylarini qoʻmsab yuragi ezilib yuribdir (P. Qodirov, „Humoyun va Akbar”).

Menimcha, badiiy asarda qoʻllanilgan toponimlar eng avvalo, badiiyatga qay darajada xizmat qilganligi nuqtai nazaridan tahlil qilinishi kerak.

Toponimlar ham badiiy matnda onomastik metafora, allyuziv nom, „soʻzlovchi nom” vazifalarida keladi, shuningdek, turli badiiy sanʼatlarni hosil qilishda vosita boʻlib xizmat qiladi. Masalan, quyidagi misolda Buxoro toponimi Samarqand toponimi bilan birga allyuziv nom sifatida qoʻllanib, Hofiz Sheroziyning mashhur baytiga ishora qilish orqali intertekstuallik kasb etgan:

*Ming Samarqand ming Buxoro hadya etgum xol uchun,  
Lek nigorimda havas yoʻq mulk-u davlat, mol  
uchun.* (E. Vohidov, „Hofizga”)

Eʼtiborli jihati shundaki, Hofiz Sheroziyning Agar koʻnglimni shod etsa oʻshal Sherazi jononi Qaro xoliga baxsh etgum Samarqand-u Buxoroni misralarda oshiq mashuqasiga Samarqand va Buxoro shaharlarini baxsh etishini nazarda tutgan boʻlsa, E. Vohidov esa bu shaharlarni oʻz maʼnosida emas, balki koʻchma maʼnoda, yaʼni toponimning mazmun koʻlamini kengayitgan holda butun dunyo, behisob boylik maʼnolarida qoʻllangan.

Baʼzan ijodkor asar gʻoyasining yukini onomastik birliklarga yuklaydi. Masalan, quyidagi parchada X. Doʻstmuhammad oʻzbek paxtakorlarining shoʻro

davridagi og'ir mehnatini tasvirlashda Paxtaqaynar nomini qo'llab,matn mazmunidan sezilib turgan kinoyani kuchaytirgan:*Faol tanbeh eshitaverib eti qotib ketgan shekilli,hech gap bo'lmagandek,o'rnidan turdi-da,qiroat bilan xatni o'qishga tutindi.-,Paxtaqaynar qishloq sho'rosiga!Paxtaqaynar paxta zavodiga! O'z nomi bilan paxta koni bo'lmish Paxtaqaynar qishlog'ida yashovchi azizlar! Kunni tunga ulab oq oltin yetishtirayotgan paxta planini bajarishdan ko'ra muqaddasroq orzu-niyatni bilmaydigan paxtaqaynarlik azamatlar!...Shunga aminmanki,paxtaqaynarliklar halovatni paxta terimidan topadilar!Paxtaqaynarda ish to'xtashi insoniyat tarixida yuz bermagan hodisa-ku!... (X.Do'stmuhammad.,,So'roq')*.

Toponimlar haqida gap ketganida,o'zbek xalq dostonlari va ertaklarida uchraydigan ayrim joy nomlarining ham o'ziga xos leksik xususiyatlari borligini va ularni o'rganish orqali xalq tilining onomastik sathidagi yangi qirralari ochilishini ta'kidlash lozim.Alpomishning ko'zlagan maqsadiga yetishida turtki bo'lgan Murodtepa yoki turkiy xalqlar dostonlarida uchrovchi afsonaviy Asqar tog' kabi nomlar joy nomlarining mumtoz namunalaridir.

„Alpomish’’dostonidagi Murodtepa nomi badiiy niyatga muvofiq dostonda atayin tilga olingan.Chunki qahramonning oldiga qo'ygan maqsadi aynan shu tepaga chiqa olishi bilan baholanadi va unga muvaffaqiyatli chiqib,niyatlariga yetishiga ishora qiladi:

„*Alpomish cho'ponlarning qo'shxonasidan o'tlanib kelayotib edi.Toychi viloyatida,Qalmoq muzofotida,Chilbir cho'lida Murodtepa degan tepasi bor edi,hadili baland tepa edi,ustidan qanotli qush uchib o'tolmas edi,har qanday odam chiqib,oyoq osti qilib ketolmas edi.Shu tepani ko'rib,Alpomish irim chekib:,,Shu tepaga otimni solayin,irkilmay tepaga otim chiqib ketsa,borgandan yorimni olaman,chiqolmasa,borib nima qilaman,borgan bilan bekor ahmoq bo'laman,peshonamni shu yerdan sinab ko'raman'*,-dedi.Otni tepaga to'g'ri

*qildi,tuyog‘idan chiltanlar hami berdi,qirq ming otning dubiri paydo bo‘ldi. Alpomish ko‘nglida yorini olmasa ham olgancha bo‘lib qoldi’*<sup>94</sup>.

Quyidagi she‘rda Asqar tog‘ toponimi original tarzda onomastik metafora sifatida qo‘llanganini ko‘ramiz.Asqar tog‘ nomi o‘zbek lingvomadaniyatida katta,buyuk tog‘ bilan bog‘liq assosatsiatsiyani hosil qiladi.She‘rda ham „zabardast,baquvvat” ma’nolarida qo‘llanib,onomastik metaforaning yuzaga kelishida leksik vosita bo‘lgan:

*Kelar ichimizdan xo‘rsiniq chuqur,*

*Asqar tog‘ edi-ku,nurayotirmiz,*

*Ko‘namiz,ne iloj,shunga ham shukur,*

*Harqalay k‘z tirik,ko‘rayotirmiz,*

*Qarilik gashtini surayotirmiz.*(E.Vohidov,,Qarilik gashtini...’’).

M.Yusuf she‘rida esa bu tog‘ nomi o‘xshatish va mubolag‘a san‘atini hosil qilishda leksik vosita bo‘lgan:

*Bir yigitlar tug‘ilsinki,Bir yigitlar.*

*Yelkalari Asqar tog‘day,aqli raso.*

*Oriyatli,Hamiyatli,Nasli raso-*

*Bir yigitlar tug‘ilsinki,Bir yigitlar...*

(M.Yusuf,,Bir yigitlar tug‘ilsinki...’’).

Ayrim parafrazalarning shakllanishi joy nomlari bilan aloqador bo‘lib,ular o‘sha joy nomiga nisbatan obrazli tasavvur hosil qilish asosida yuzaga keladi. Masalan,,„Sharqning oltin darvozasi-Toshkent,suv ichidagi Shahar Venetsiya, qizil lolalar yurti-Gollandiya,yashil qit‘a-Avstraliya,sariq lolalar yurti-Braziliya, muhabbat qasri-Tojmahal,dunyo tomi-Pomir,okean ortidagi davlat-Amerika, ozodlik oroli-Kuba,mitti mamlakat-Vatikan,quduqlar mamlakati-Turkmaniston’’<sup>95</sup>kabilar aynan shu joylarning ma‘lum jihatlarini tasvirlashga ko‘ra,aniqrog‘i, qadimiyligi hamda joylashish o‘rni va o‘ziga xos belgi-xususiyatiga mos holda shakllangan deyiladi.Tadqiqotchilar ta‘kidlaganidek,toponimik asosga ko‘ra

<sup>94</sup> Alpomish o‘zbek xalq qahramonlik dostoni//Aytuvchi Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li,yozib oluvchi:M.Zarifov/- Toshkent:Sharq,1998.-101-b.

<sup>95</sup> Normurod R.O‘zbek tilida ikkilamchi nominatsiya.-Toshkent,Fan,2010.-b.74

shakllangan parafrazalarda har bir joyning turli xil sharoit, belgi, boshqa jihatlariga aloqadorliklari muhim ahamiyat kasb etadi. Badiiy matnda ham bunday onomastik parafrazalarni qo'llash matn ekspressivligini oshirishga xizmat qiladi. Masalan, she'riy matnlarda Farg'ona vodiysiga nisbatan Bog'i Eram toponimi ko'p qo'llangani kuzatiladi.

*Ey jannat singari muhtasham makon,*

*Tog'lar bag'ridagi ey Bog'i Eram.*

*Huzuringga yetgum, topsam gar imkon.. (Humoyun,, Oltin vodi'y').*

*Chiroying-so 'zimda, ishqing –ko 'zimda,*

*O 'xshashing topilmas dosh-u to 'zimda.*

*Izhorim ojizmi, yonishim kami,*

*Bog'i Behishtmisan, Bog'i Erammi?! (Y. Sulaymon,, Farg'onam').*

Quyidagi she'riy parchada ham Bog'i Eram toponimi „go'zal maskan, jannatmonand yer'' ma'nolarida qo'llanilgan hamda Farg'ona toponimining tasvirlanishida Bog'i Eram toponimidan foydalanilgan. Aytish mumkinki, bu o'rinda G'.G'ulom onomastik metaforaning go'zal namunasi yaratgan:

*O'zbekiston shabcharog'i, olmosi Farg'onadir,*

*Yerda yulduzlar kabi har yerda gavhar yonadir.*

*Har taraf Bog'i Eram, har manzil koshonadir,*

*Quvnagan xalqning labida kanda bo'lmay yonadir.*

*(G'.G'ulom,, O'zbekiston shabcharog'i').*

Quyidagi misollarda esa mazkur toponim o'xshatish etaloni sifatida qo'llanib, o'xshatish badiiy san'atini yuzaga keltirishda vosita bo'lgan hamda tasviriylilikni kuchaytirishga xizmat qilgan:

*Ellar to'zg'ib yotar gul yaprog'idek,*

*Bir yon shoh-u gado, bir yon do'st, g'anim.*

*Bir yonda xayoliy Eram bog'idek,*

*Buyuk va betimsol mening vatanim. (A. Oripov,, Ona sayyora').*

*Dalalar yashnaydi Bog'i eramday,*

*Tabiatga shaydo adib ko'zida. (Zulfiya,, Quyoshli qalam').*

### 3.2.Real va to'qima toponimlarning badiiy matnda ifodalanish imkoniyatlari

Badiiy matndagi toponimlarni ikkiga bo'lish mumkin:1.|Real toponimlar.  
2.Shartli(to'qima)toponimlar.

Real toponimlar,ya'ni tilda mavjud bo'lgan joy nomlari badiiy matnda turli maqsadlarda qo'llanadi.Masalan,ba'zi toponimlar badiiy matnda ko'chma ma'noda kelib,jiddiy ekspressivlikni yuzaga keltiradi.Quyidagi misolda Kamchatka toponimi ana shu maqsadda qo'llangan:Kechasi olmadek lampochka xira yoritib turgan,sichqon hidi bilan to'lgan barakda umumiy Komsomol yig'ilishi bo'ldi.Birinchi kurslar eng chekkada,qamishzorga tutashib ketgan uchastkada edi.Odat shu,birinchi kurslarni „Kamchatka’’ga yuborishadi.(O'.Hoshimov,„Tushda kechgan umrlar’’).

Ma'lumki,Kamchatka-Rossiyaning eng chekka hududlaridan birining nomi. Mazkur o'lka nomi tilimizda „eng chekka’’ „juda uzoq joy’’ „borish mushkul makon’’ ma'nolarida qo'llanadi.Umuman,badiiy matnda bu toponim onomastik metafora vazifasida kelib,har qanday joyning chekka ma'nosini berish uchun ishlatiladi.Bu nom quyidagi misolda ayni ma'nolarda qo'llangan:

*Men bilmasdim-bu nur nima,bilmasman hanuz,*

*U-mo'tadil iqlimlardan yiroq makondir.*

*Yoki yetti og'a -ini-qadrdon yulduzlar,*

*Yo o'zimning ona yurtim O'zbekistondir?*

*Ne bo'lsa ham,ne bo'lsa ham,ko'ngil qatidan,*

*O'rin oldi,ko'kragimga yashirdim uni:*

*Bugun olis tasavvurlar Kamchatkasidan,*

*Yuragimning poytaxtiga ko'chirdim uni!*

(M.Kenjaboyev,„Geografiya darslarida’’).

Real geografik obyektни bildirgan toponimlar ham lingvistik jihatdan tahlilga tortilishi mumkin.Masalan,yozuvchi qaysidir hududni san'atkorona uslubda tasvirlashi mumkin yoki shoir yurt madhida alohida badiiy tasvir usullaridan foydalanib,ifodalashi mumkin.Bunday hollarda toponim badiiy matnning muhim



unsuriga aylangan bo'ladi. Jumaniyoz Jabborov „Qo'ng'irtog'” nomli she'rida jumhuriyatimiz hududida mavjud bo'lgan real tog' nomi she'riy matnning har tomonlama yaxlitligini ta'minlashga xizmat qilgan:

Qarshining naq yonboshida Qo'ng'irtog',  
Bo'lak tog' yo'q undan ko'ra qo'ng'irroq,  
Gullar unar unda qizil, qo'ng'ir, oq,  
Sayrab yotar qushlar misli qo'ng'iroq.  
Tog' emas bu, balki ulkan qo'g'irchoq,  
Bir ko'rganning bir umrga kongli chog'.  
(J. Jabborov, „Qo'ng'irtog'”).

Badiiy matnda turli me'moriy obidalar, bino va inshootlar nomi ham alohida badiiy maqsadlar bilan qo'llanadi. Bu birliklar tilshunoslikda toponimlar makroko'lamiga kiruvchi urbanonimlar, ya'ni „shahar ichida, hududda joylashgan har qanday topografik obyektlar atoqli ot<sup>96</sup> tarkibida o'rganiladi. Urbanonimlar tarkibini tashkil qiluvchi onomastik birliklardan biri oykodomonimlar bo'lib, shahar hududida joylashgan alohida olingan bino inshootlari va boshqa xil me'moriy obidalar nomini bildiradi. Ya. Avlaqulov madrasalar, maqbaralar, qadimiy qal'alar va darvozalar nomini ham mazkur tipga mansub deb qaraydi. Quyidagi misolda Tojmahal oykodomonimi ramziy ma'noda, ya'ni sevgi koshonasi ma'nosida qo'llangan: Ana o'shanda bir ulkan haqiqatni angladim: shuncha yillar mobaynida qalbmida osmono'par Tojmahalni bunyod etgan ekanmiz!.. Uni faqat birgina inson - Sen vayron etishga qodir eding - shu qadar sovuqqonlik bilan vayron qilding - ki! (X. Do'stmuhammad. "Men - Sensiz, sen - Mensiz").

Quyidagi parchada Makkatillo toponimi o'xshatish konstruksiyasi tarkibida kelgan va muqaddaslik ma'nosini bo'rttirib tasvirlashga yordam bergan. Bu maskanga qadam ranjida qilgan inson kechinmalari bilan asar qahramonining qalb kechinmalari o'zaro taqqoslanadi: *ilohiy tuyg'ular qanotida Seni farishta yanglig' olib chiqaman, xayolan.... O'zim he-e yerdan oyoq uzolmasam-da, Seni, Siz farishtamni ko'klarga ko'taraman, ko'targanim sayin Makkatilloga ilk safar qadam*

<sup>96</sup> Avlaqulov Ya. O'zbek tili onomastik birliklarining lingvistik tadqiqi: Filol. fan. nomz. diss. - Toshkent, 2012. - b. 78

*ranjida qilgan bandai mo'min singari ko'zlarimdan duv-duv yosh to'kiladi, baxtiyorlik va shodumonlik yoshlari... (X.Do'stmuhammad., „Men-Sensiz, Sen-Mensiz“).*

Badiiy matnda boshqa xalqlarning bino va inshootlari nomi ham qo'llanadi. Bu nomlar intertekstuallikni hosil qilish bilan birga qalamga olinayotgan mavzuni kengroq yoritishga ham yordam beradi. Shekspirning „Gamlet“ tragediyasi birinchi marta sahnalashtirilgan teatr joylashgan qal'a nomi Elsinor deb nomlangan. She'rdagi ushbu nom obrazlilikni hosil qilgan:

*Ishxona to'rt qavat beton imorat-*

*Elsinor qal'asi bilan egizdir.*

*Soat o'n bir yarim... G'amgin alanglab,*

*Kechikib kelmoqda ishga Shekspir... (U.A'zim., „Bu joy teatrmas“).*

Shuni ta'kidlash kerakki, ijodkor matnga muayyan toponimni olib kirar ekan, o'sha toponim bilan aloqador faktlar matn mazmuni bilan uyg'unlik hosil qila olgandagina, nom badiiyati to'laqonli yoritiladi. Quyidagi joy nomi muvaffaqiyatli qo'llangan misolni keltirishimiz mumkin: E.Vohidovning „O'zbekim“ nomli qasidasida qo'llangan Afg'on toponimi Hind toponimi bilan birga qo'llanib, Z.M. Boburning taqdir taqozosi bilan avval Afg'oniston, keyin Hindistonda yashashga majbur bo'lganligi tarixiy faktga ishora qilib kelgan. Bunda Hind va Afg'on toponimlari hajman kichik shaklda katta mazmunni berishga xizmat qilib, intertekstual matn yuzaga keltirgan. Shuningdek baytda onomastik birlik (Afg'on)ni o'z apellyativ asosi (afg'on) bilan birga qo'llashdan iborat usuldan foydalanib, tajnis san'ati hosil qilingan.

Toponimlar she'riy matnda undalma bo'lib kelganda, murojaat birligi sifatida ta'kid ta'sirchan va tantanavor bo'ladi. O. Matjonning quyidagi she'rida Xorazm toponimi ana shunday maqsad uchun xizmat qilgan:

*Ey, sirli diyor, Xorazm,*

*Ey, nurli shior, Xorazm.*

*Goh seni sotdi Guldursin,*

*Goh sotdi O'tror, Xorazm.*

*O'ynoqi g'amdir kuylaring,*

*Chalsam yonar tor,Xorazm.*

*Jahon aljabrinda noming,*

*Har daf'a takror,Xorazm(O.Matjon,,Ey sirli diyor,Xorazm'').*

Badiiy matnda to'qima toponimlarning ham leksik xususiyatlari o'ziga xosdir. Ayniqsa,o'rin-joy oti yasovchi qo'shimchalar ishtirokida hosil qilingan okkazional toponimlarning aksariyati mavjud uzual toponimlarning yangicha nom bilan talqin etilishida kuzatiladi va bu yozuvchining badiiy niyatini yanada to'yintiradi.M.Yusufning „Quyoshistonim’’she’rida ana shunday nom qo‘llanganini ko‘rish mumkin:

*Qabul ayla qullug'im,*

*Qadim Quyoshistonim(M.Yusuf,,Quyoshistonim'').*

D.Shodiyeva olib borgan tadqiqotlarida Quyoshiston yasalmasiga alohida e'tibor berib,uning katta g'oyaviy-emotsional qimmatga ega ekanligini ta'kidlab,bu o'rinda -iston qo'shimchasi guliston tipidagi so'z yasash uchun qo‘llanganini aytib o‘tgan<sup>97</sup>.

Darhaqiqat,badiiy matnda Quyoshiston yasalmasi O‘zbekiston ma’nosida qo‘llanib,serquyosh diyor yangicha nom bilan talqin etilgan.Quyoshiston nomi orqali O‘zbekiston yerining nafaqat mintaqaviy jihatdan quyosh nuri tushishi uchun qulay hudud,balki uning odamlari quyoshday issiq,haroratli,bag‘rikeng bo‘lganligiga ishora qilinganligini mazkur misolda ham ko‘rish mumkin:

*Olam keng,Elillar ko'p,Yurtlar beshumor.*

*Har yurt o'z ahliga go'zal va ajib.*

*Ne baxt,Quyoshiston ta'rifli diyor,*

*Nurli peshonamga bo'libdi nasib.(E.Vohidov,,O'zbekiston'').*

Yuqorida ta'kidlanganidek,Quyoshiston toponimida quyosh harorati ko'p yurt ma'nosi yoki quyoshga o'xshagan diyor ma'nosi mavjud,bir so'z bilan aytganda,bu nom zamirida yashirin o'xshatish bor.

---

<sup>97</sup> Shadiyeva D.Muhammad Yusuf she'riyati lingvopoetikasi:Filol.fan.nomz...diss.-Toshkent,2007.-b.115-116

Obod soʻzi ham joy nomlarini hosil qiluvchi soʻz sifatida tilimizda koʻp uchraydi. Badiiy matnda ushbu soʻz bilan yasalgan, jiddiy ekspressiv ahamiyatga ega boʻlgan toʻqima toponimlar ham uchraydi. M. Shayxzodaning „Toshkentnoma“ lirik poemasida Toshkentga nisbatan Salomobod toʻqima toponimi qoʻllangan.:

Odamlarga qoʻyganday laqab,  
Shaharlarning sharafin oqlab,  
- Qoʻyilganda unvonlar maxsus,  
Toshkentimiz olgan taxallus,  
„Salomobod“ boʻlar edi, rost,  
Bu taxallus shahrimizga mos.

Sheʼrning keyingi oʻrinlarida toʻqima toponimlarning mohiyati yanada yorqinlashadi:

Sharqdan, gʻarbdan, janubdan mudom,  
„Salom“ deya kelar mehmonlar.  
„Salom“ desa, „alikassalom“,  
Va guldasta olar mehmonlar.  
Ular koʻngil qoʻnoqlaridir.

Chin doʻstlikning inoqlaridir. (M. Shayxzoda, „Toshkentnoma“).

Shuni alohida taʼkidlash kerakki, mahoratli yozuvchilar mavjud onomastik birliklarga muqobil shakllar topib, ularni oʻz badiiy maqsadiga muvofiq tarzda qoʻllaydilar. Erkin Aʼzam „Bizning togʻa“ nomli asarida „dongʻi olamga ketmoq“ iborasiga analogik tarzda „dongʻi Dongʻistonga ketmoq“ iborasini qoʻllaydi:

*Hovlining bir chetidagi oʻgʻliga atab qurilayotgan chala imoratga tikilgan koʻyi tushunqiramay turganimni koʻrib, togʻamiz alam-iztirob bilan boʻkirib yubordi: - Boʻlmasa, kelib mendan koʻradi-da jiyan! – Yoʻgʻ-e togʻa, jin uribdimi, axir! Amir boʻlamiz unchalik emas. - Baribir zoti past... Mayli. Lekin, falonchining dongʻi Dongʻistonga ketgan shiyponi yonib*

*ketibdi, desa, kimning jiyani u, deb so'raydimi mardum- so'raydi! Shu isnodni qanday ko'taraman dedim-da, ji-yan! (E.A'zam „Bizning tog'a'')*

Ibora tarkibidagi leksemaning o'zgarishi natijasida emotsional-ekspressiv kuchi ortgan. Badiiy matnda qo'llangan Amirtepa oykodomonimi matnning ijtimoiy voqelikdagi ba'zi salbiy illatlarning tanqidini bo'rttirib ifodalashga xizmat qilgan: *Ul dabdaba-yu ul as'asani ko'rdingizmi, jiyani? Hayf, hayf. Haftaning yetti kuni ana shunday maishat. Bir to'da ulfati bilan qayoqdagi sayoq o'yinchi qizlarni eltib, bazmi jamshid qilib yotadi. Bu ishlarning savol-javobi bordir axir bir kun! Koshonalariga „Amirtepa'' deb nom qo'yib olganlar. Bir-ikki nordonroq gapi bilan izza qilmoqchi bo'lsam—qayoqda! Afg'onga o'tayotib amir Olimxon shu joyda to'xtab nafas rostlagan ekan, o'shaning nomiga qo'ydik-da, tog'a'', deydi kasofat suv yuqtirmay... (E.A'zam „Bizning tog'a'')*

To'qima toponimlarda so'zlovchi nomlik xususiyati yaqqol sezilib turadi, shu sababli, bunday „so'zlovchi'' toponimlarda ekspressivlik kuchli bo'ladi. Quyida Nurilla Abbosxonning „Sho'rqishloq'' romanidagi Janjalmahalla nomi „so'zlovchi'' nom vazifasida kelib, mahallaning „janjalni pulga sotib olaydigan'' aholisiga ishora qilib kelgan: *Sho'rqishloqliklarning eng fe'li og'ir,, sirkasi suv ko'tarmaydigan'' qismi mana shu mahallada yashaydi. Bu mahalla nomi hujjatlarda „Adirmahalla'' deb yuritiladi. Sho'rqishloq xalqi bu mahallani „Janjalmahalla'' yoki „Guzurmahalla'' deb ataydi. Adirmahallaliklar „janjalni pulga sotib olishadi''. Sho'rqishloqliklar bu mahalladan qiz olib, qiz berishmaydi. Favqulodda bir xayolparast yigit bu yerlik qizga oshiq bo'lib qolmasa, hech kim bunday mas'uliyatni qudachilikka qo'l urmaydi. Hamma ham tinch, xotirjam yashashni istaydi-da (N. Abbosxon „Sho'rqishloq'').*

E. Vohidovning „Donishqishloq latifalari'' hajviy asaridagi Matmusaning qishlog'i to'qima Donishqishloq nomi bilan yuritiladi:

*Donishqishloq degan joy,  
Bordir bizning tomonda,  
O'sha qishloq ahlidek,  
Dono xalq yo'q jahonda.*

She'rdan toponim o'zining nominativ ma'nosiga zid qo'llangan. Ya'ni, bu joyning odamlari donishmand emas, balki juda sodda, dumbul insonlar sifatida tasvirlanadi va badiiy matnda ham izohlanadi.

Jambil, Jarjon, Susambil, Ko'hi Qof, Borsa kelmas, Borsa xatar, Borsa kelar, Bog'i Eram, Bo'tan tog' kabi toponimlarni ham to'qima toponimlarga kiritish mumkin. Chunki bunday toponimlar badiiy matnning makoniy ko'lamini absraktsiyalash maqsadida qo'llanadi. Makon bilan bog'liq sirlilik, mavhumlikni bo'rttirib ifodalashga xizmat qiladi. Jumladan, o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalarida uchraydigan afsonaviy tog' hisoblangan Ko'hi Qof nomi badiiy matnlarda allyuziv nom sifatida qo'llanib, biror manzilning haddan ziyod olisligini ta'kidlash uchun xizmat qilgan.

*Ko'hi Qofga qadar ketardim,*

*Laylim ko'zingni bir bora ko'rmoqlik uchun.*

*Na chora?... Bu charxga qurbim kelmaydi,*

*Afsus, bu gardishga yetmaydi kuchim.* (I. Mirzo, „Ko'hi Qofga qadar“).

A. Oripovning „Sohibqiron“ dramasida Ko'hi Qof mifotoponimi jangchilar matonati va Sohibqironga sadoqatini ta'sirchan ifodalash maqsadida qo'llanilgan. Ya'ni „Sohibqiron“ amr etsa, askarlar bajarolmaydigan ishning o'zi yo'q degan mubolag'ali fikr mazkur mifotoponim vositasida g'oyat aniq ifodalangan.

*Muntazirmiz amiringizga, o, Sohibqiron,*

*Siz amr eting- kemirgaymiz Ko'hi Qofni ham,*

*Siz amr eting- simirgaymiz bahru ummonni.*

*(A. Oripov, „Sohibqiron“).*

Tadqiqotchilarning qayd etishicha, xalq og'zaki ijodidagi toponimlar asar turi va janridan kelib chiqib tanlanadi. Susambil nomi qadimdan o'zbek tilida epik yurti bildirib, ertak (ktematoponim) lardan birining nomi ham bo'lib kelgan. Jambil toponimi ham ertaklarda uchraydi. Chambil-Jambil-Susambil nomlari shakliga ko'ra bir-biriga daxldor bo'lib, Jambil, Susambil nomlarining yaratilishida Chambil

toponimi asos bo'lgan<sup>98</sup>. T. Nafasov Jarjon to'qima toponimi xususida shunday deb yozadi: „Shoir H. Olimjon yaratgan yangi epik obrazlardan biri Jarjondir.

*Jarjonning dalasida,*

*Daryoning yoqasida,*

*Bir chol o'tin terardi,*

*Doim shunday yurardi.* (H. Olimjon, „Oygul bilan Baxtiyor“).

Jarjon-yurt, mamlakat nomi. Matndagi misralar mazmuniga ko'ra Jarjon - aslida daryo nomi. Bu nom Jurjon nomiga o'xshab yaratilgan. O'zbekistonning hozirgi va qadimiy joy nomlari tizimida jon/jan/shon/shan leksemali nomlar anchagina. Zarafshon (daryo), Andijon (shahar), Badaxshon (Qamashi qishloq), Ardaxshon (Jizzax, qishloq), Sherjon (Sherobod daryo, qishloq), Navjan (Sherobod qishloq). Bu nomlarning barchasi gidronim (daryo, jilg'a nomi) sifatida yaratilgan<sup>99</sup>.

Umuman olganda, badiiy matndagi toponimlar kontekst bilan bog'liq holda funksional-stilistik xususiyatlarini namoyon qila oladi. Ular badiiy ifoda imkoniyatlariga ko'lam bag'ishlaydigan, matnning estetik ta'sir quvvatini oshiradigan vosita bo'lib, intertekstuallik doirasida o'rganilganda, lingvistik tadqiqotlar uchun yaxshi material bera oladi. Xususan, to'qima toponimlar badiiy matnda jiddiy ekspressiv ahamiyatga ega bo'ladi. Badiiy matnda qo'llangan tarixiy toponimlar esa zamon va makon munosabatlarini yoritishda muhim vositalardan biri sifatida diqqatga sazovordir.

### **Uchinchi bob bo'yicha xulosa**

1. Badiiy matnda qahramonlar nutqini xoslashtirishda, intertekstuallikni hosil qilishda va badiiy matnning makoniy individualligini ta'minlashda toponimlardan keng o'rinda foydalaniladi.

2. Badiiy matnda toponimlar kontekst bilan bog'liq holda lingvistik xususiyatini namoyon qiladi. Ular badiiy ifoda imkoniyatlariga ko'lam bag'ishlaydigan, matnning estetik ta'sir quvvatini oshiradigan lingvistik vositalardan biridir.

---

<sup>98</sup> Nafasov T. Sheva va onomastik birliklar/Hamid Olimjon tavalludining 100 yilligiga bag'ishlangan yosh olimlar va iqtidorli talabalarning ilmiy anjumani materiallari. 12-mart, 2009-yil. - Andijon n.-b. 24.

<sup>99</sup> Nafasov T. Sheva va onomastik birliklar/Hamid Olimjon tavalludining 100 yilligiga bag'ishlangan yosh olimlar va iqtidorli talabalarning ilmiy anjumani materiallari. 12-mart, 2009-yil. - Andijon n.-b. 25.

3.Real toponimlar badiiy matnda ko‘p hollarda metaforik ma’noda qo‘llanib, matnda ifodalangan g‘oyaning shakllanishiga hamda badiiy mazmuni ekspressiv tarzda ifodalashga xizmat qiladi.Ichan qal’a toponimining „inson ma’naviy dunyosi” ma’nosida;Ka’ba toponimining„tashqi dunyo bilan aloqasi uzilgan joy” ma’nosida;Kamchatka toponimining „biror joyning uzoq va eng chekka qismi” ma’nosida qo‘llanishi kabi holatlar buni isbotlaydi.Bunday toponimlar kontekstda „joy” ma’no uzvini saqlagan holda ko‘chma ma’no kasb etib,muayyan tushunchaning badiiy shakli sifatida voqelanadi hamda badiiy matnda toponim maqomiga ega bo‘ladi.

4.To’qima toponimlar badiiy matnda jiddiy ekspressiv ahamiyatga ega bo‘ladi.Ular badiiy matnda tasviriylik(Quyoshiston),subyektiv munosabat (Salomobod,Oshqovoq ko’chasi),yumoristik ruh(Donishqishloq) kabi badiiy effektlarni yuzaga keltirishda muhim lingvistik vosita sifatida xizmat qiladi.

5.Badiiy matnda qo‘llangan tarixiy toponimlar esa makon va zamon munosabatlarini yoritishda muhim vositalardan biri sifatida diqqatga molikdir.



## XULOSA

1. Onomastik birliklar badiiyatini o'rganuvchi sohaga nisbatan onomapoetika muayyan badiiy niyat bilan qo'llangan nomlarga poetonim, shuningdek, poetik yukli shaxs nomlariga antroponim, shunday xususiyatli joy nomlariga toponim terminlari qo'llanadi.

2. Onomastik birliklar badiiy matnda, asosan, onomastik metafora, allyuziv nom, so'zlovchi nom vazifalarini bajaradi, shuningdek, ular subyektiv baho ifodalashi yoki matnni shakllantiruvchi vosita bo'lib kelishi mumkin.

3. Antroponimlar sifatida o'rganiluvchi ism, laqab, familiya, ota ismi, taxallus kabi birliklar, odatda, ijodkorning estetik tafakkuri va ko'zlagan badiiy niyati bilan uyg'unlashgan holda namoyon bo'ladi. Badiiy matnda antroponimlardan quyidagi lingvistik maqsadlarda foydalaniladi: a) allyuziv nom sifatida matnni shakllantirish; b) matnning intertekstualligini ta'minlash; v) komik effekt hosil qilish; d) salbiy yoki ijobiy bahoni ekspressiv ifodalash; g) kuchli his-hayajonni ifodalash; e) turli ma'nodagi murojaatni ifodalash; f) badiiy san'atlarni yuzaga keltirish.

4. Badiiy matnda antroponimlar presedent nomlardan tanlanganida ortiqcha izoh talab qilmaydi. Ular mashhurligi sabab kitobxon tomonidan oson anglanadi. Mazkur antroponimlar intertekstual matn unsuri sifatida asarning ko'p qatlamliligini hosil qiladi.

5. Presedent nomlar o'z manbasiga ko'ra biror xalqning ijtimoiy-tarixiy, madaniy, siyosiy, badiiy sohasiga doir faktlarga mansub bo'ladi.

## **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.**

### **I. Normativ- huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar**

1. Sh.M. Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz.- Toshkent-, „O‘zbekiston“ -2017

2. Sh.M. Mirziyoyev. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.- T-, „O‘zbekiston“ -2017.

3. Sh.M. Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz.- T-, „O‘zbekiston“ ,2017.

4. Sh.M. Mirziyoyev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.- T. O‘zbekiston, 2017

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining „O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi“ to‘g‘risidagi Farmoni (Xalq so‘zi 2017-yil, 8-fevral).

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari“ to‘g‘risida (Xalq so‘zi 2017-yil, 21-aprel).

7. I.A. Karimov, „Yuksak ma‘naviyat-yengilmas kuch“.- Toshkent: Ma‘naviyat, 2008.

8. I.A. Karimov Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori.- T; Sharq nashriyot-matbaa konserni. 1997-yil,

9. I.A. Karimov. Barkamol avlod orzusi, // Tuzuvchilar: Sh. Qurbonov, R. Axliddinov, H. Saidov.- T: Sharq nashriyot-matbaa konserni 1999-yil, 182-bet.

10. O‘zbek tilining izohli lug‘ati, besh jildli ,1-jildi.- Toshkent: „O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi“ Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.

11. O‘zbek tilining izohli lug‘ati, besh jildli ,3-jildi.- Toshkent: „O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi“ Davlat ilmiy nashriyoti, 2007.

12. O‘zbek tilining izohli lug‘ati, besh jildli ,4-jildi.- Toshkent: „O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi“ Davlat ilmiy nashriyoti, 2008.

### **II. Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to‘plamlar.**

13. .Begmatov E, Uluqov N.O‘zbek onomastikasi terminlarining izohli lug‘ati.-Namangan,2006.
- 14.Begmatov.E.Joy.nomlari-ma‘naviyat.ko‘zgusi.-Toshkent. Ma‘naviyat, 1998
- 15.Begmatov.E.O‘zbek.ismlari.-Toshkent: O‘zbekiston. milliy. ensiklopediyasi 2007.
- 16.Begmatov E.O‘zbek tili antroponimikasi.-Toshkent:Fan,2013.
- 17.Begmatov E.Ismlarning sirli olami.-Toshkent:O‘zbekiston,2014.
- 18.Vohidov E.So‘z latofati.-T:O‘zbekiston,2014.
- 19.Do‘stqorayev B.,Alpomish matnining jilolari’’//O‘zbekiston adabiyoti va san’ati,2011-yil.
20. Is’hoqov Yo.Alisher Navoiy va Navoiy taxallusli shoirlar//O‘zbek tili va adabiyoti.-T,1968.
- 21.Yo‘ldoshev .M,Yadgarov.Q.Badiiy matnning lisoniy tahlili.-T,2007.
- 22.Yo‘ldoshev.M.Badiiy matn lingvopoetikasi.-T:Fan,2008.
23. .Qilichev E. S.Ayniy asarlaridagi antroponimlarning stilistik xususiyatlari// O‘zbek tili va adabiyoti.-Toshkent,1978.
- 24.Mahmudo.N.Tilimizning tilla sandig‘i.T:G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi,2012-yil.
- 25.Mahmudov.N.Fan tili va til fani // O‘zbek tili va adabiyoti.-T,2013.
- 26..Nurmonov.A.Tilshunoslikning adabiyot bilan munosabati//Tanlangan asarlar.3 jildli.-T:Akademnashr,203-yil.
- 27.Nurmonov.A.Madvaliyev.A,Mahkamov.N.Mustaqillik davrida o‘zbek tilshunosligi taraqqiyoti// O‘zbek tili va adabiyoti.-T,2011.
- 28.Rashidova .M.O‘zbek tilidagi laqablarning leksik-semantik va uslubiy xususiyatlari.-T:Iqtisod-moliya,2008.
- 29.Sultonov.I.Badiiy asarning tili.//O‘zbekiston adabiyoti va san’ati.-T.1939.
- 30.Xudoyberganova.D.Presedent nomlarning antropotsentrik talqini// O‘zbek tili va adabiyoti.-T,2015.
- 31.Qilichev.E.Badiiy tasvirning leksik vositalari.-T:Fan,1982.

32. Qorayev. T. Adabiy taxalluslar haqida// O‘zbek tili va adabiyoti. -T, 1967.
33. Qurbonov. T. Badiiy asarlardagi toponimlarning lingvistik tahlili va izohi masalalari. -Samarqand, 2006.
34. G‘ulomov. A. Badiiy adabiyotning tili haqida// Adabiyot va san‘at. -T. 1941.
35. Husanov. N. O‘zbek antroponimlari tarixi. -T: Navro‘z, 2014.
36. Yo‘ldoshev. B. Badiiy asar tili masalalari (yozuvchi, shoir, olimlar talqinida) tanlanma fanidan uslubiy qo‘llanma. -t: Navro‘z, 2014.
37. Abdurahmonov Sh. A. O‘zbek badiiy nutqida kulgi qo‘zg‘atuvchi lisoniy vositalar. Filol. fan. nom. ...diss-Toshkent 1997. -147b
38. Avlaqulov Ya O‘zbek tili onomastik birliklarining lingvistik tadqiqi: Filol. fan. nomz. ...diss-Toshkent 2012-158b
39. Ahmedova N O‘zbek tilida murojaat birliklarining semantik-konnotativ tadqiqi. Filol. fan. nomz. ...diss-Toshkent, 2008. -154b
40. Xudoynazarov I. Antroponimlarning til lug‘at tizimidagi o‘rni va ularning semantik-uslubiy xususiyatlari. Filol. fan. nomz. ...diss. -Toshkent, 1998
41. Sh. Yoqubov. Navoiy asarlari onomastikasi: Filol. fan. nomz... diss. avtoreferat -Toshkent, 1994. -b. 8-18.
42. Jalolova. L. Abdulla Qodiriyning „O‘tkan kunlar“ romanining lingvistik tadqiqi: Filol. fan. nomz. ...diss. avtoref. -Toshkent, 2007.
43. Yo‘ldoshev. M. Cho‘lponning badiiy til mahorati („Kecha va kunduz“ romanining tili misolida): Filol. fan. nomz. ...diss. avtoref. -Toshkent, 2000.
44. Normurodov. R. Sh. Xolmirzayev asarlarining til xususiyatlari: Filol. fan. nomz. ...diss. avtoref. -Toshkent, 2000.
45. Nuritdinova. R. O‘zbek onomastikasi terminlarining lisoniy tahlili: Filol. fan. nomz. ...diss. -Toshkent, 2005.
46. Shadiyeva .D. Muhammad Yusuf she‘riyati lingvopoetikasi: Filol. fan. nomz. ...diss. avtoref. -Toshkent, 2007.
47. Yoqubbekova. M. O‘zbek xalq qo‘shiqlarining lingvopoetik xususiyatlari: Filol. fan. D-ri...diss. -Toshkent, 2005.

### **III. Rus tilidagi adabiyotlar.**

48. Altuxova O.N. Poetonimy-mediatory v makrokontekste proizvedeniy: V. Pelevina Sotsiosfera-M; 2014-№3с50-59.
49. Axmanova O.S. Slovar lingvistichekix terminov-M: 1969-608s.
50. Axmanova O.S. Gyubbenet I.B., Vertikalniy kontekst''kak filologicheskiy problema. Voprosy yazikoznaniya-M. 1997-№3-s47-54.
51. Ahmad S, Vladimirova N Hikoyanavislik san'ati// O'zbek tili va adabiyoti.-Toshkent, 1973-№4-B53-58.
52. Feoksitova.L.A. K metodike analiza assotsiativno-derivatsionniy semantiki lichnogo imeni//Voprosi onomastika.-Yekaterinburg, 2016.№1.-s.85-166
53. Podolskaya N.V. Slovar russkoy onomasticheskoy terminologii-M: Nauka, 1998.-s.96.
54. Magazanik .E.B. Onomapoetika ili govaryashiye imena v literature.-Tashkent: Fan, 1978.-s18.
55. Kungurov R, Mo'minov R. sobstvennye imena v yazyke khudozhestvennoy literatury// Onomastika Uzbekistana.-Tahkent, 1989,-s.
56. Vinogradov V. Stilistika. Teoriya poeticheskoy rechi. Poetika.-M, 1963.-S.38
57. Калинин В.М. Поэтика собственных имен в произведениях романтического направления: avtoref. diss... kand. nauka-Donesk, 1987
58. Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии.-M: Наука, 1998.-s.28.
- 59.. Флейшер Е.А. Основы прецедентности имени собственного.-дисс..д-ра. филол. наук.-Санкт-Петербургб, 2014.-s.164
60. Косиченко Е.Ф. Прецедентные имена как средство выражения субъективной оценки: автореф. дисс... канд. филол. наук.-M. 2006.-с.16.
61. Воронцов Р.И. Ономастическая метафора в русском литературном языке: Автореф. дисс. канд. филол. наук. -Санкт-Петербург, 2012.-с.9.
- 62 Гунко Ю. особенности функционирования прецедентных высказываний в разговорной речи носителей русского языка. дисс.... д-ра. филол. наук.-Санкт-Петербург, 2002-с.76-77

63. Михайлов В.Н.собственные имена персонажей русской художественной литературы XVIII и первой половины XIX в их функции и словообразование.автореф.дисс.канд.филол.наук.-М.1956.

64.Магазаник Э.Б Поэтика имен собственных в русской классической литературе.Автореф.дисс.канд.филол.наук.-Самарканд.1967

65.Колоколова Л.И.Ономастика в художественной речиА.П.Чехова.автореф.дисс.канд.филол.наук.-Волоград.2000

66.Калинкин В.М.Поэтика онима.-Донецк.1999.

67. Нахимова Е.А.Прецедентные онимы в современной российской массовой коммуникации.Теория и методика когнитивно-дискурсивного исследования.-Екатеринбург.2011.-с.76.

68..Гюббенет И.В.основы филологический интерпретации литературного-художественного текста.-М.1991.-с.41.

#### **IV.Internet manbalari.**

69.Зинин С.И. Введение в поэтическую ономастику // [www.planeta-imen.narod.ru /litonomastika/main.html](http://www.planeta-imen.narod.ru/litonomastika/main.html).

70Зинин С. И. Литературная (поэтическая) ономастика. Термин “поэтоним” [http://imja.name/ poehtonimy/termin-poehtonim](http://imja.name/poehtonimy/termin-poehtonim).

71..Зинин С.И. Литературная (поэтическая) ономастика. Классификация поэтонимов // [www.planeta-imen.narod.ru](http://www.planeta-imen.narod.ru)

72.Каграмонов К.Р. Явление антономасии в языке и речи (на материале англоязычной прессы) / Вестник Московского государственного лингвистического университета, Выпуск 521, 2007. – С. 122-130  
[//cyberleninka.ru/article/n/](http://cyberleninka.ru/article/n/)

